

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

O'ZBEKISTONDA MILLIY TADQIQOTLAR:

DAVRIY ANJUMAN

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022

ALBERT EYNSHTEYN
(1879-1955)

2022
YANVAR
№36



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir
Temur ko'chasi, pr.1, 2-uy.

+998 97 420 88 81

+998 94 404 00 00

www.taqqiqot.uz

www.conferences.uz



**ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ
АНЖУМАНЛАР:
10-ҚИСМ**

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ
КОНФЕРЕНЦИЙ:
ЧАСТЬ-10**

**NATIONAL RESEARCHES OF
UZBEKISTAN: CONFERENCES
SERIES:
PART-10**

ТОШКЕНТ-2022



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]

“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 36-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 январь 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 119 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истикболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25. География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ СОҲАЛАРИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР

1. Бошманова Шахноза Абдуҳаким қизи ЎҚУВЧИЛАРДА МУТОЛАА МАДАНИЯТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ	9
2. Mahmudova Difuza Ongarovna ADABIYOT DARSLARINI HAMKORLIKDA O'QITISH TEXNOLOGIYASINI RIVOJLANTIRISH USULLARI	12
3. Parpiyeva Saodatxon Ikromovna BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARI UCHUN DARSLARINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA – METODIK TAVSIYALAR	14
4. Raupova Mehrinigor Haydarovna KVAZIPROFESSIONAL FAOLIYAT SOHASIDAGI ILMIY-AMALIY TADQIQOTLAR	16
5. Saidaxmedova Gulnora Sharipdjanovna UMUMTA'LIM MAKTEBLARIDA INGLIZ TILI DARSLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHGA XIZMAT QILADIGAN INTERFAOL METODLAR VA ULARNING AHAMIYATI	18
6. Urunova Maylipashsha Allaberganovna MAKTABDA O'QUVCHILARNI FRANSUZ TILI FANIGA QIZIQISHINI OSHRISHDA «RUCHKA STOL O'RTASIDA» INNOVATSION TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH	20
7. Матназарова Озода Шомуротовна, Тўраева Замира Қуранбоевна БОШЛАНҒИЧ СИНФЛАРДА ТАБИАТШУНОСЛИК ФАНИНИ ЗАМОНАВИЙ ПЕДТЕХНОЛОГИЯЛАР АСОСИДА ЎҚИТИШ	21
8. Alibekova Dilafruz PSIXOLOGIYA TARAWINDAGI INNOVATSIYALAR: MEKTEP OQIWSHILARIN KASIPKE BAGDAELAWDIN AYIRIM TAREPLERI HAQQIDA	23
9. Ametova Adolat, Atajanova Luiza BOSHLANG'ICH TA'LIMDA DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING O'ZIGA XOS USULLARI	25
10. Atakuziyeva Muazzam Nemadjanovna BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QITUVCHISI ZAMONAVIY FAN VA TEXNIKA DARAJALARINI IFODALAY OLISHI	27
11. Atoyeva Zarifa BOSHLANG'ICH SINFLARDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA QO'LLANADIGAN USULLAR	29
12. Baqoyeva Ma'mura Bahriddinovna O'ZBEKISTON VA XORIJIY MAMLAKATLARDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TARBIIYALASHDA OILA VA MAKTABGACHA TA'LIMNING O'RNI	31
13. Bekchanova Nazokat, Qabulova Manzura, Shermetova Nozokat MATEMATIK TUSHUNCHA VA MATIQIY XULOSALASH	33
14. Bekmetova Iroda Karimovna, Ro'zmetova Fazilat O'ktamboyevna, Raxmonova Xurshida Baxtiyorovna BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA O'YIN TA'LIM TEXNOLOGIYASI ASOSIDA REFLEKSIV KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH	34
15. Bobomurodova Munira BOSHLANG'ICH TA'LIM DARSLARIDA ILG'OR TA'LIM VOSITALARI	36
16. Botirova Feruza Salaydinovna BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARNI INTELLEKTUAL RIVOJLANTIRISHDA INNOVASION YONDASHUV	38
17. Egamberdiyeva Muqaddas, Aminova Ilmira MATEMATIKANI O'QITISHNING INNOVATSION VOSITALARI	40

18. Egamova Kamalat Baxtiyarovna BOSHLANG'ICH SINFDA O'QISH DARSLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI.....	42
19. Fayzullayeva Gulnoza BOSHLANG'ICH TA'LIMDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.....	44
20. Haydarova Zarnigor O'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISHDA YANGI PEDAGOGIK TEXNALOGIYALARDAN FOYDALANISH.....	46
21. Hikmatova Gulobar BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARI ONGIGA MILLIY AN'ANALARNI SINGDIRISHNING AHAMIYATI.....	48
22. Ibragimova Gulchehra G'aybulloyevna O'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISHDA OILA VA MAKTAB HAMKORLIGI.....	51
23. Jurayeva Nargiza Ibraximovna TARBIYA FANINING NAZARIYASI	53
24. Jumaboyeva Mohinur Maqsud qizi, Yangiboyeva Madina Oybek qizi BOSHLANG'ICH SINF O'QISH DARSLARIDA MATN USTIDA ISHLASH METODIKASI.....	54
25. Jumaniyazova Moxira, Xayitboyeva Svetlona BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QUVCHILARI BILAN O'TKAZILADIGAN DARSLARDA DIDAKTIK O'YINLARNING AHAMIYATI.....	56
26. Komiljonova Nodirabonu Sobirovna INGLIZ TILI DARSLARIDA QIZIQARLI O'YINLARDAN FOYDALANISH VA UNING AHAMIYATI.....	58
27. Mamatova Dildora Murodjonovna BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA INNOVATSION TA'LIMNING DOLZARBLIGI.....	60
28. Masharipova Nargiza Irkinova FUNCTIONAL-SEMANTIC APPROACH TO THE STUDY OF THE CATEGORY OF NUMBER IN LINGUISTICS.....	62
29. Mirzayeva Intizor Baxadirovna BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI HUSNIHATGA O'RGATISH.....	64
30. Najmiddinova Sarafroz Najmiddinovna THE IMPORTANCE OF EDUCATION IN DEVELOPING STUDENTS PROFESSIONAL PROFECIENCY	66
31. Narimonova Munira, Qobulova Muhayyo ZAMONAVIY INGLIZ TILI METODIKASI.....	68
32. Nazarova Nafisa Abdug'afforovna BOSHLANG'ICH TA'LIMDA ONA TILI DARSLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH	69
33. Nosirova Salomatxon Esonaliyevna IQTISODIY BILIM ASOSLARI FANINING MAQSADI VA VAZIFALARI	71
34. O'ktamova Gulbahor Nu'monovna, Qodirova Muhayyo Vohidovna BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING BOG'LANISHLI NUTQINI O'STIRISH ORQALI ULAR BILAN IJODIY ISHLAR O'TKAZISH USULLARI.....	73
35. Qadamova Xurshida Olimjon qizi, Asqarov Azamat Komuljonovich PEDAGOGIK TEXNOLOGIYANING ASOSIY ELEMENTLARI.....	75
36. Qo'chqarova Adiba SHaripovna BOSHLANG'ICH SINFLARDA SINFDAN TASHQARI O'QISH MASHG'ULOTLARINING MAZMUNI.....	77
37. Qodirova Hilola Qo'chqarova Rayxon Hayitova Sharofat FRANSUZ TILIDA PREDLOGLARNING ISHLATILISHI.....	79
38. Qosnazarova Palzada Quwanishbaevna MILLIY QADIRIYATLAR, JASLAR TARBIYASI HAM PUQARALIQ JAMIYETINI RUWXIY KELBETI	80

39. Rajabova Iroda	
TEKNOLOGIYA DARSLARIDA QO‘L MEHNATIDAN FOYDALANISH.....	82
40. Raxmonova Barfiya	
BOSHLANG‘ICH TA‘LIM DARSLARIDA O‘QITUVCHINING MAHORATI.....	84
41. Rozimova Shahribonu Ulug‘bek qizi	
INGLIZ TILI DARSLARIDA NUTQIY VAZIYATLARNING UMUMIY XUSUSIYATLARI	86
42. Ruzmetova Rayhon Kamilovna	
FIZIKANI O‘QITISHDA MUAMMOLI TA‘LIM	88
43. Sabirova Surayyo Ravshanbekovna	
MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES OF ENGLISH LANGUAGE TEACHING	90
44. Sapayeva Bikajon Raximberganovna	
TEKNOLOGIYA DARSLARIDA SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN TA‘LIM	92
45. Sayfiddinova Marxabxon Abdurahimovna	
BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINI TARBIYALASHDA INTELLEKTUAL SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISH	94
46. Siddiqova Nasibaxon Xamidovna	
XORIJY DAVLATLARDA BOSHLANG‘ICH TA‘LIM TIZIMI	96
47. Sobirova Quvonchoy Sanjarovna	
QO‘SHIQ VA UNING CHET TILIDAGI NUTQIY KO‘NIKMALARNI SHAKLLANTIRISHDAGI O‘RNI.....	98
48. Sultonova Muqaddas Nurboyevna	
YOSHLARNING DUNYOQARASHI VA XULQ-ATVORIGA TA‘SIR ETUVCHI IJTIMOIIY- PSIXOLOGIK OMILLAR	100
49. Tursunova Gulsinoy Abdushukurovna	
TEKNOLOGIYA FANIDA STEAM TA‘LIMI YONDASHUVINING DOLZARBLIGI.....	102
50. Umarov Xabibullo	
O‘ZBEKISTONDA SPORT RIVOJI	104
51. Orasta Umarova	
GEOGRAFIK TASAVVURLARNING O‘RTA ASRLARDA RIVOJLANISHI	106
52. Umurzoqova Odinaxon	
NUTQNING KOMMUNIKATIV SIFATLARI VA UNI EGALLASH ZARURATI.....	108
53. Xolova Shaxnoz	
BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA O‘QITISHNING USUL VA TEKNOLOGIYALARI.....	110
54. Xusainbekova Iqboloy Radjabbayevna	
INNOVATIVE METHODS FOR TEACHING ENGLISH AS A SECOND LANGUAGE	112
55. Турманов Куатбай Аманбаевич	
МАЛАКА ОШИРИШ ТИЗИМИДА ТИНГЛОВЧИЛАРДА ТАНҚИДИЙ ФИКРЛАШНИ РИВОЖЛАНТИРИШ	113
56. Raxmatullayev Shohrux Qudrat o‘g‘li, Matyaqubov Maqsad Batirovich	
ABU NASR FOROBIYNING – FUQAROLIK JAMIYATIDAGI O‘RNI.....	115
57. Ашрапова Шохида Пайзуллаевна, Бойтураева Шахноза Абдивахобовна, Мусурмонкулова Умида Абдиганиевна	
ТАЪЛИМ МУАММОЛАРИ ЕЧИМИДА ПЕДАГОГИК ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ	117



ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ СОҲАЛАРИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР

ЎҚУВЧИЛАРДА МУТОЛАА МАДАНИЯТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ

Бошманова Шахноза Абдуҳаким қизи
Жиззах Давлат Педагогика Институтининг
“Педагогика ва психология” факултети
1-курс магистранти.

Аннотация: Инсоннинг рухий-маънавий камолотини таъминлашда китобчалик кучли қудратга эга восита бўлган. Шу боисдан, азал-азалдан маърифат пешволари, ахли донишлар бутун инсониятни китоб ўқишга, ундан илм-у одоб сирларини ўрганишга қўлаб қўйган. Тарбиянинг барча мезон ва унсурлари, аввало, оила, мактабда шакллантирилганидек, китобхонлик маданиятини тарбиялашда ҳам оиланинг, мактабнинг ўрни ниҳоятда каттадир. Ушбу мақолада ўқувчиларида мутолаа маданиятини шакллантириш ҳақидаги фикр-мулоҳазалар акс эттирилган.

Калит сўзлар: бадий асар, маънавият, субъект, китоб, эстетик завқ, қизиқиш, сўз, илмий.

Бугунги кунда китобхонликни оммалаштириш мақсадида кенг аҳоли қатламини китоб мутолаасига жалб қилиш ва уларни китоб билан таъминлаш бўйича оммавий тадбирлар, хайрия акцияларини ташкил этиш, ижтимоий рекламалардан унумли фойдаланиш, ўзбек ҳамда жаҳон адабиётининг, таниқли муаллифларнинг мумтоз ва замонавий бадий асарларини тарғиб қилиш, ушбу соҳада жамоатчилик ташаббусларини қўллаб-қувватлаш, ижтимоий тармоқлар ҳамда интернет имкониятларидан кенг фойдаланган ҳолда ташкил этиш бўйича катта ишлар амалга оширилмоқда.

Ўқувчиларида китоб ўқиш фаолиятини шакллантириш, уни ўқиш маданиятига айлантириш замонавий ўқитувчининг вазифасидир. Уларида китоб ўқиш фаолиятига қизиқишнинг умумий пасайиши, ўқишдан ташқари ахборот манбаларининг кўплиги ва бошқалар. Бироқ, бу ҳодисанинг асосий сабаби ҳали ҳам ўқиш кўрсатмасининг номукамаллиги, мактаб ўқувчиларининг ўқиш фаолиятини мақсадли шакллантириш тизимининг йўқлиги деб тан олинган керак. Ўқиш фаолияти тушунчаси нисбатан янги бўлиб, у ўқилаётган нарсани идрок этиш, тушуниш, дам олиш ва кўпайтиришга қаратилган коммуникатив нутқ билиш фаолияти деб ҳисоблайдиган психологлар, кутубхоначилар ва методистлар орасида вужудга келган [5]. Ўқувчилари ўқиш дарсларида уни нафақат ўқишни ўргатиш, балки сўз орқали уларни бадий адабиёт билан таништиришга кўникма ҳосил қилади. Ўқувчилар китоб ўқиш жараёнида ўзида ҳиссий ва эстетик идрокни ривожлантиради, ҳиссий соҳани ахлоқий, интеллектуал, эстетик ҳис-туйғулар билан бойитади, болаларни ишнинг «сирларини» кашф этишга ўргатади, шу билан уларни бадий сўзни тушунишда аста-секин ривожлантиради [1].

Ўқувчининг маънавий ҳаётини озиқлантирадиган маънавий ёрдам бўлиши керак. Аммо адабий асарларга киритилган ахлоқий қадриятлар автоматик равишда фарзандларимизнинг руҳига ўтмайди, улар тўпланиши ва ривожланиши керак. Шунинг учун мактабда, бошланғич мактаб ёшида ўқишга қизиқиш уйғотиш, китоб билан мулоқот қилиш эҳтиёжини шакллантириш, она сўзининг гўзаллиги, салоҳияти ва буюклигини очиб бериш муҳим аҳамиятга эга.

Дарҳақиқат, ўқиш талабани бадий ва оммабоп илмий адабиётлар, даврий нашрлар билан таништиришнинг ноёб воситасидир. Ўқиш-билимларни бойитишнинг битмас-туганмас



манбаи, боланинг билиш ва нутқ қобилиятини, ижодий кучларини ривожлантиришнинг умуминсоний усули, ахлоқий сифатларни тарбиялаш, эстетик ҳис-туйғуларни ривожлантиришнинг қудратли воситасидир [3].

Мутолаа қилиш ўқувчиларнинг ўқиш тажрибасини бойитади, уларнинг эстетик дидини шакллантиришга таъсир кўрсатади, ўқишга ўргатиш ва адабий асарлар билан ишлашнинг кўп ўлчовли вазифаларини ҳал қилгани учун «синфдан ташқари» ўқишдан сифат жиҳатдан фарқ қилади, шунингдек ўқиш фаолиятининг асосларини ташкил этади. [7].

Ўқишдан олдин китобга қараб, агар у тўғри ташкил этилган бўлса, ҳар бир бола учун ўқиши керак бўлган китобларга бўлган қизиқишини аниқлайдиган энг муҳим услубдир ва болани китоб билан келгуси суҳбатга ўз қобилиятлари чегарасида тайёрлашга имкон беради. Ҳар бир бола, ўқиш дарсларида нима қилиш кераклигини олдиндан билиш жараёнида шахсий қизиқиш бўлиши керак. Бу ният ва мақсаднинг комбинациясига олиб келади ва унга келгуси вазифани муваффақиятли бажаришга имкон беради - ўқув жараёнини субъективлаштириш [2]. Китоб матнидаги нотаниш сўз ва сўз бирикмалари, ибора ва мураккаб танбеҳлар, тарихий жой номлари ҳамда баъзи адабий қаҳрамон тимсолларини изохланиш, шарҳлаш асосида асарнинг ғоявий-бадий хусусиятларини адабий эстетик таҳлил воситасида ўрганиш керак бўлади. Болани ўқишга ўргатиш учун, фикрга кўра, эрта болаликдан китобга бўлган қизиқишни ривожлантириш керак; бошқа киши томонидан асарни ўқишни тинглашни ўрганиш, тингланган асарни тушуниш лозим бўлади. Болага кичик ёшдан бошлаб бадий ва маълумотли китобларини ўқиш керак. Шунда у ўз она нутқининг мусикасини тинглайди, эшитган нарсаларини такрорлайди ва яна эшитишни хоҳлайди. Янги асар билан танишишда ўқитувчи уни ўзи ўқийди. Бундан ташқари, ўқитувчи тўғри, ифодали ўқиш билан бир қаторда ўз фикрларини, ҳис-туйғуларини ва ҳис-туйғуларини етказиши кераклигини унутмаслик керак. Асар ўқиб бўлингач, саволлар билан шошилишга ҳожат қолмайди, ўқитувчи пауза қилиши керак, шунда болалар тушуниб, ички эшитганларини бошдан кечирадilar. Сиз болалар ўзлари чиқиб гапириш истаги пайдо бўлади, деб кўрасиз. Болаларнинг фикри сизнинг фикрингиздан фарқ қилса ҳам, уларни тўхтатмаслигингиз керак, чунки бу болаларнинг фикрлари ва ҳис-туйғуларининг уйғониши бошланади ва у билан нутқ ривожланади. Болаларни бадий асарни ўқиш ва идрок этишга, унга сўз санъати сифатида ёндашишга ўргатиш ўқиш дарсларининг вазифасидир. Ҳаётни образларда акс эттириш сифатида асарни ўқиганда болалар «ҳаётга киришни,» ҳаётнинг бир бўлагини бошдан кечиришни «ўрганадилар. Асарни идрок этиш, бадий образлар туфайли юзага келган кечинмалар, болалар томонидан тўғри тушунилган ғоя - буларнинг барчаси нутқ ва ўқишнинг ифодалилигига асос бўлади. Бу ўринда туғилган мулоқотнинг ички туйғу, мақсади пайдо бўлади – тингловчини образ ва тасаввурлар доирасига жалб қилиш, ҳаяжонлантириш каби тарзда айтиб бериш уйғонади [6].

Асарни идрок этиш уч босқичдан ўтади: завқланиш, тушуниш ва бадий лаззатланиш. Бадий лаззатланиш табиатдан олинган эстетик туйғуни ривожлантиришни ўз ичига олади. Эстетик туйғу адабиёт билан мулоқот қилиш, онг ва юракни ривожлантириш натижасида шаклланган эстетик дидга айланиши керак. Асарни, муаллифнинг позициясини тушунишга қаратилган доимий иш, шунингдек, ўз нуқтаи назарини ифода этиш қобилияти. Тилнинг барча бойлигини ва Ватанининг барча маданий қадриятларини биладиган одамнинг ривожланиши учун адабиётнинг аҳамияти жуда катта, чунки адабиёт инсоннинг ички дунёсини ва унинг атроф-муҳит билан мулоқот қилишга ёрдам беради.

Сўнгги пайтларда болалар ҳар доим ҳам лирик асарларни тушунмасликлари ва натижада уларга бўлган қизиқишни йўқотишларига дуч келямиз. Мумтоз шеърятга қизиқишнинг сустлиги бола нутқининг ривожланиши билан боғлиқ. Бола сўзга эгалик қилиш даражаси унинг мумтоз шеърятга бўлган муносабатини белгилайди. Бу бола шахсининг ривожланиш даражаси кўрсаткичларидан биридир. Ўқитувчининг вазифаси болаларга сўзни турли метод ва усуллар мажмуаси ёрдамида «ҳис қилиш» ни ўрганишга ёрдам беришдан иборат. Аслида ўқиш ўқилаётган матн таркибидаги маълум мазмун (маълумот) ни чиқариш, унинг маъносини тушуниш ва англаш мақсадида амалга оширилади.



Дарҳақиқат, китоб – билим манбаи. Китоб мутолааси эса инсонни ҳаёти давомида мукофот билан тақдирловчи шарафли меҳнатдир. Хулоса қилиб айтганда, юксак интеллектуал салоҳиятга, ўз мустақил дунёқарашига эга, ташаббускор, жисмонан соғлом ва маънан этук бўлган ҳақиқий баркамол авлод келажакда амалга ошириладиган ислохотларнинг ҳал қилувчи кучи, халқимизнинг ҳақиқий маънодаги ҳимоячиси ҳисобланади. Ўқувчиларнинг юқоридаги ижобий сифатларнинг шаклланишида эса уларнинг китоб мутолаасига ошно бўлиши, турли жанрдаги китобларни ўқиб, ўз билими ва дунёқарашини кенгайтириб бориши муҳим аҳамият касб этади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Абдулазизов А.. Академик лицей ва касб-хунар коллежларида мутолаа маданиятини шакллантириш жараёнининг социологик таҳлили. / Соц. фан. номзоди дисс. - Т., 2010. -25-б.
2. Журнал «Начальная школа» 2001 г – 127с Статья -оол «Как читать детские книги на уроках чтения»
3. Мирқосимова М. Ўқувчиларда адабий таҳлил малакасини шакллантириш ва такомиллаштириш асослари. — Т.: «Фан», 2006. -18-б.
4. Чтение. Контрольные работы в начальной школе.
5. Быкадорова -педагогические Лихановские чтения: Сборник материалов 19 ноября 2002 года/Белгородская государственная детская библиотека . – Белгород, 2003.-164с.
6. Ҳусанбоева Қ.П. Адабий таълим жараёнида ўқувчиларни мустақил фикрлашга 11. ўргатишнинг илмий-методик асослари. / Педагогика фан. доктори дисс. – Т., 2007. –262 -б.
7. Совершенствование чтения младших школьников. Методическое пособие для учителя. – М.: АРКТИ, 1999. – 160с.
8. Обучение выразительному чтению младших школьников: Пособие для учителей. – М.: Просвещение. 1981. – 160.
9. Литературное чтение в 1 классе. Методическое пособие. - М.: Вентана – Граф, 2003.- 240с.



ADABIYOT DARSLARINI HAMKORLIKDA O‘QITISH TEXNOLOGIYASINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Mahmudova Dilfuza Ongarovna

O‘zDJTU akademik litseyi

Ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

mahmudovadilfuza1976@gmail.com

+998-97-738-65-45

Annotatsiya: Adabiyot darslarini hamkorlikda o‘qitishdagi ba‘zi masalalar ushbu maqolada qamrab olingan. Pedagogik hamkorlik ta’lim subyektlari faoliyatining tadrijiy yo‘lini namoyon qiladi. Pedagogik hamkorlik jarayonida o‘qituvchi bilan o‘quvchi faoliyati uyg‘unlashib, ijodiy xarakter kasb etadi. U ta’lim jarayoni subyektlaridagi har bir o‘ziga xos jihatni hisobga olishni taqozo qiladi.

Kalit so‘zlar: pedagogik hamkorlik, ta’limiy muammo, hamjihatlik ko‘nikmalari, didaktik vaziyatlar, an’anaviy pedagogik tafakkur

Zero, o‘quv-biluv jarayonining shaxsga yo‘naltirilganligi markazida subyektlar orasidagi hamkorlik yotadi. O‘quv-tarbiya jarayonidagi hamkorlik subyektlarning birgalikda yangi axborotlarni o‘zlashtirishlari va ularni o‘z faoliyatlarida ijodiy qo‘llashlariga ko‘maklashadi. Pedagogik hamkorlik, avvalo, bilimlarni o‘zlashtirishda jamoa bo‘lib faoliyat ko‘rsatishni nazarda tutadi va uning asosiy maqsadi - ishtirokchilarning his-tuyg‘uga asoslangan obrazli tafakkurini shakllantirishdir. Bu serqirra usuldan murakkab didaktik-ijodiy masalalarni yechish, pedagogik amaliyotda esa o‘quv-biluv muammolarini hal etish yo‘li sifatida foydalaniladi. Bu usul o‘quvchi tomonidan o‘zlashtirilishi mo‘ljallangan o‘quv materialiga ijodiy yondashish imkoniyatini kengaytiradi. Pedagogik hamkorlik jarayonida jamoa bo‘lib ishlash guruhda mavzu doirasida yangi mushtarak g‘oyalar tug‘ilishiga zamin hozirlaydi. Tabiiyki, pedagogik hamkorlik texnologiyasi ta’lim jarayonida samaradorligi sinalgan ilg‘or metodlardan foydalanishni taqozo etadi. Ta’lim jarayonida ulardan vaqti va o‘rnida foydalanilsa, o‘quvchining izlanuvchanlik qobiliyati muntazam rivojlanib borayotganini payqash mumkin. Hamkorlikda ishlaganda qo‘yilgan muammoning yechimiga yo‘naltirilgan savol va topshiriqlardan foydalanish o‘quvchilarni yangi farazlar, his-tuyg‘uga asoslangan xulosalar chiqarishga undaydi va bunga ma’lum miqdorda erishiladi ham. O‘quvchilar o‘z ijodiy qobiliyatlarini namoyon qilishga odatlanib boradilar. Ta’limiy ishlarni hamkorlikda tashkil etishda quyidagi asosiy holatlar mujassamlashadi:

- 1) ta’limiy muammoning o‘quvchi muhokamasiga dastlabki ko‘rinishda qo‘yilishi;
- 2) o‘quvchida ta’limiy muammoning tahlili va buning uchun zarur bilimlar haqida tasavvur uyg‘otish;
- 3) ta’limiy muammoni yechish imkoniyatlarini aniqlash va chegaralash;
- 4) o‘quvchi ongida uning shaxsiy dunyoqarashi va ilmiy-amaliy tushunchasi doirasida muammoni qayta shakllantirishga erishish;
- 5) qayta shakllantirilgan muammo variantlaridan qulayini tanlay olish;
- 6) hamkorlik uchun asosiy bo‘lgan bosqichlardan o‘tish;
- 7) qo‘yilgan muammo yechimi talablariga asoslangan holda yondashuvlar yoki tayyor javoblarni bayon qilish.

Hamkorlik asosida o‘rganishda e’tibor subyekt sifatida muayyan o‘quvchi emas, balki o‘quvchilar guruhiga qaratiladi. Bunday jarayonning xarakterli jihati izlanuvchanlik faoliyatining birgalikda amalga oshirilishidadir. Hissiy-obrazli muhokama va tanlov natijasida shaxslararo mustahkam birgalikdagi harakat vujudga keladi, hamkorlikka oid ishlab chiqilgan qat’iy talablar uni o‘quv jarayonida to‘g‘ri amalga oshirilishiga asos bo‘ladi. Mazkur murakkab va serqirra texnologiyadan ko‘zlangan maqsad yo‘lida foydalanish o‘qituvchidan yuksak darajadagi bilim, pedagogik-psixologik tayyorgarlik, mahorat va fidoyilikni talab qiladi. Agar ta’lim beruvchida shu jihatlarning birortasi yetishmasa yoki qaysidir jihatida «kemtik»lik sezilsa, mazkur jarayon o‘rganish faoliyatiga aks ta’sir ko‘rsatishi ham hech gap emas. Pedagogik hamkorlikning o‘ziga xos jihatlardan yana biri har xil ta’limiy sharoitlarda turlicha tabiatga, dunyoqarashga ega bo‘lgan subyektlar imkoniyatlarini ro‘yobga chiqara olishidadir. Bu sohadagi dastlabki yondashuvlar shuni ko‘rsatadiki, pedagogik hamkorlikka oid konsepsiyalar murakkab, muntazam bo‘lmagan ochiq



didaktik vaziyatlar, uning tarkibiy qismlari va tarbiya jarayonini qamrab oladi. Bugungi kunga kelib, ta'lim jarayonidagi hamkorlik ta'limni rivojlantiruvchi ilg'or g'oya sifatida namoyon bo'lmoqda. Zero, pedagogik hamkorlik tushunchasi ostida mustahkam nuqtai nazarga ega bo'lgan pedagogik yondashuvlar, nazariyalar, qonuniyatlar, pedagogik tizimlar birlashadi, mushtaraklik kasb etadi. O'quv-tarbiya jarayoniga pedagogik hamkorlik g'oyasining tatbiq etilishi, an'anaviy pedagogik tafakkurda bir tomonlama qotib qolishga barham beradi. Bu nazariyani milliy tarbiyashunoslik amaliyotiga joriy etish alohida dolzarblik kasb etmoqda. Maktab o'quvchisida pedagogik hamkorlik asosida faoliyat ko'rsatish ko'nikma, malakalarini shakllantirish va rivojlantirishni boshlang'ich ta'lim jarayonidayoq tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Chunki ta'limning mazkur bosqichida o'quvchida ijodiy faoliyat ko'rsatishning ilk ko'rinishlari shakllanadi va o'zining rivojlanish bosqichiga kiradi. Bolada ijodkorlik imkoniyatlarini yuzaga chiqarish va o'z-o'zini namoyon qilish ko'nikmalari tarkib topadi. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, o'qituvchi bilan muloqotga kirishish, hamkorlik, hamjihatlik ko'nikmalarini ta'limning ushbu bosqichida shakllantirish nihoyatda zarurligini amaliy tajribalar yaqqol ko'rsatmoqda. Hamkorlikda o'qitish har bir o'quvchini kundalik qizg'in aqliy mehnatga, ijodiy va mustaqil fikr yuritishga o'rgatish, shaxs sifatida onglilik, mustaqillikni tarbiyalash, har bir o'quvchida shaxsiy qadr-qimmat tuyg'usini vujudga keltirish, o'z kuchi va qobiliyatiga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, tahsil olishda mas'uliyat hissini shakllantirishni ko'zda tutadi.

Adabiyotlar:

1. Tojiyev A. Adabiyot darslarida suhbat. – Toshkent. « O'qituvchi», 1997.
2. H.Omonov. M. Xattabov. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.-T..2016
3. Ishmuhammedov M, Yo'ldashev Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. T-1998



BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARI UCHUN DARSLARINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA – METODIK TAVSIYALAR

Parpiyeva Saodatxon Ikromovna

Farg'ona viloyati Farg'ona tumani 40-sonli umumiy
o'rta ta'lim maktabining Boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Telefon: +998 99 645 69 86

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun darslarini samarali tashkil etishda – metodik tavsiyalar haqida ya'ni - boshlang'ich sinflarda o'qish darslarini olib borishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish, yangi interfaol uslublardan foydalanishning ijobiy ahamiyatini yoritilishi hamda interfaol metodlardan namunalar, tavsiyalar bo'yicha qisqacha ma'lumotlar berishga harakat qilingan.

Kalit so'zlar: O'qish, badiiy o'qish, interfaol, boshlang'ich, izohli o'qish, metod, ta'lim, sinf, ifodali o'qish.

Boshlang'ich sinflarda o'tiladigan ona tili, matematika, o'qish, odobnoma, tabiatshunoslik darslari o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra ta'lim tizimida alohida o'rin tutadi. Negaki ularning zaminida savodxonlik va axloqiy-ta'limiy tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boshlang'ich ta'lim darslariga o'quvchilar qiziqishini oshirishga alohida e'tibor berish lozim. Interfaol metod – ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi faollikni oshirish orqali ularning o'zaro harakati ta'sir ostida bilimlarni o'zlashtirishni kafolatlash, shaxsiy sifatlarni rivojlanishiga xizmat qiladi. Ushbu usullarni qo'llash dars sifati va samaradorligini oshirishga yordam beradi.

O'qish metodikasi – inson xayotida muhim ahamiyatga ega. O'qish orqali inson borliq, jamiyat haqida bilimga ega bo'ladi, o'qishni bilmagan odamning ko'zi ojiz kishidan farqi yo'q. Boshlang'ich sinfda o'qish faoliyati barcha predmet darslarida amalga oshiriladi. Lekin o'qishga o'rgatishning yo'l-yo'riqlarini oqish metodikasi ishlab chiqadi. O'qish metodikasining kichik yoshdagi o'quvchilarning umumiy rivojlanishi, psixologiyasi, xususiy metodika sohasidagi yutuqlar borliq fanlar yutug'i asosida shakllanib boradi. Masalan, eski maktablarda o'qish quruq yod olish metodida o'rganilgan bo'lsa, hozirgi maktablarda o'qish izohli o'qish metodida olib boriladi.

Bilim berish bilan o'quvchi shaxsi tarbiyalanib boradi. V.A.Suxomlinskiy bu haqida shunday deydi: “Bolalar dunyoni va o'z-o'zini bila borish bilan birga katta avlodlar yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklar uchun o'zining mas'ulligini oz-ozdan bila borishlari kerak. Bolaga yaxshilik va yomonlikni to'g'ri ko'rish imkonini berish kerak.

Izohli o'qish nima? Izohli o'qishga XIX asrning 60 – 70-yillarida rus pedagogi K.D.Ushinskiy asos solgan, u o'qishda o'quvchilarni “ongli, tushunib, o'ylab o'qishga” o'rgatishni alohida ta'kidlaydi va uni “Izohli o'qish” deb nomlaydi. Izohli o'qish metodiga K.D.Ushinskiy ishining davomchilari yangiliklar kiritdilar. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida asosan she'rlar, masallar, ertaklar, hikoyalar, afsonalar, maqol va topishmoqlar, ilmiy-ommabop asarlar o'qib o'rganiladi. Tabiiyki, ularning har biri o'ziga xos shakl, uslub va mazmunda yaratiladi. Shuning uchun ham har bir janrga mansub asarlarni o'ziga xos usulda o'qib o'rganish taqozo qilinadi.

Boshlang'ich ta'lim tizimida mantiqiy o'qish (matnni to'g'ri, tushunib, tez (me'yorida) o'qish) va adabiy o'qish mukammal o'zlashtirilganidan so'ng ifodali o'qishga o'tiladi. U yod olingan she'riy asarlarni ifodali o'qishni ham o'z ichiga oladi. Ifodali o'qishning muvaffaqiyati o'quvchilarning asar mazmuni, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari haqida muayyan tushunchaga ega bo'lishi bilan bog'liq. Ohang va intonatsiya she'riy asarlarni ifodali o'qishda qay darajada muhim bo'lsa, nasriy asarlarni o'qishda ham muhim talablardan biridir.

Badiiy o'qish, badiiy o'qish ifodali o'qishning yuksak bosqichi hisoblanadi. Unda so'z san'atining barcha komponentlari ishtirok etadi. Badiiy o'qishda asar qahramonlarining ruhiy holati, kechinmalari to'la anglab etilgandagina ta'sirchanlikka erishish mumkin. Badiiy o'qishga tayyorgarlik ko'rishda aktyorlarning audio-video tasmlarga yozilgan ijrolaridan foydalanish yaxshi samara beradi. Badiiy o'qishning muvaffaqiyatini ta'minlaydigan omillardan biri tanlab o'qishdir. Masalan, 3-sinfda X.To'xtaboyevning “Hassa” hikoyasi bilan tanishish jarayonida Qobil boboning savollariga Shavkatning javoblari yoki S.Anorboyevning “Babs” hikoyasidagi



bolalarning bahslashish epizodi yuzasidan o‘qituvchi topshirig‘iga ko‘ra mazkur o‘rinlarni tanlab qayta o‘qilishi natijasida ushbu asarlarning badiiy-estetik qimmatini chuqurroq o‘zlashtirishga erishiladi. O‘qish darslarida reproduktiv metod keng qo‘llaniladi. Masalan, o‘qituvchi dastlabki darslarda o‘zi asar matnini qismlarga bo‘ladi, yozuvchi yoki shoirning aytmoqchi bo‘lgan muhim fikriga o‘quvchilar diqqatini jalb qiladi, uni aniqlab ko‘rsatadi, o‘quvchilar bilan birga tasvir vositalariga yuklatilgan ma‘noni ochib, o‘quvchilarga ko‘maklashadi. Bularning bari o‘quvchilar uchun bir ko‘rsatma vazifasini o‘taydi. Shundan so‘ng o‘quvchilar o‘qituvchining ko‘rsatmalari yordamida yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan vazifalarni o‘zlari mustaqil ravishda bajaradilar. Yuqorida ta’kidlangan metodlardan tashqari, boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida zamonaviy pedagogik texnologiya usullaridan “Aqliy hujum”, “Tarmoqlash”, “Guruhlar bilan ishlash”, “Blis texnologiyasi” kabilardan ham foydalanish yaxshi samara beradi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, har bir darsda qanday metoddan foydalanish yoki metodik tavsiyalardan, darsda qanday usullarni qo‘llashni o‘qituvchi tomonidan oldindan belgilab olinishi va puxta ishlab chiqilishi kerak. O‘qish malakalari va ularni takomillashtirish usullari, dastur talablarini to‘liq bajarish va amalga oshirish uchun, birinchi navbatda, o‘qish ko‘nikmalarini to‘g‘ri va puxta egallash va takomillashtirib borish zarur. Xulosa so‘ngida shuni aytishim mumkinki, ulug‘ donishmandlardan biri “... kelajak tashvishi bilan yashasang, farzandlaringga yaxshi bilim ber, o‘qit”, degan ekan. O‘qish ko‘nikmalari savod o‘rgatish jarayonida shakllanadi, o‘qitishning keyingi bosqichlarida esa takomillashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Boshlang‘ich sinflarda dars o‘tish usullari// boshlang-ich-sinf-o-qish-darsida-interfaol-uslublardan-foydalanishning-ta-limiy-ahamiyati.pdf
2. Boshlang‘ich sinflarda dars o‘tish usullari//boshlangich-sinfda-oqitishning-zamonaviy-texnologiyalaridan-foydalanish-usullari



KVAZIPROFESSIONAL FAOLIYAT SOHASIDAGI ILMIY-AMALIY TADQIQOTLAR

Raupova Mehrinigor Haydarovna

Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi

Телефон: +998(97) 308 35 88

m.h.raupova94@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada kvaziprofessional faoliyatning mohiyati, mazmuni haqida so'z boradi. Buxoro davlat universiteti Biologiya kafedrasida qoshida tashkil etilgan “Kvaziprofessional faoliyat” to'garak asosida olib borilayotgan ilmiy-amaliy faoliyat va uning yutuqlari to'g'risida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar. Kvaziprofessional faoliyat, loyihalash va rolli o'yinlar usuli, kommunikativ nutq, psixologik yondashuv.

Bo'lajak mutaxassislarni kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlashning ustuvor yo'nalishlaridan biri-barcha kompetensiyalarni o'zida mujassamlashtirgan raqobatbardosh kadr sifatida shakllantirishdan iborat. Bilim mutaxassisi o'z-o'zidan kasbiy faoliyatga tayyorlash, ta'lim jarayoni maqsad, vazifalarini belgilash, o'z faoliyatini loyihalashtirish, mavzu bo'yicha tadqiqot ishlarini yo'lga qo'yish, ijodiy fikrlash vakutilgan natijaga erishish uchun xizmat qilmaydi. Bilimlar hajmini o'rnatish bilan bog'liq tashkil etilgan o'quv jarayoni bo'lajak mutaxassisning mustaqil kasbiy faoliyatini rejalashtirish va tashkil etish uchun yetarli emas. Mazkur kamchiliklar bo'lajak biologiya o'qituvchilarining o'z kasbiy faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yish, rivojlantirishda qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Shu nuqtayi nazardan bo'lajak biologiya o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda o'z faoliyatini to'g'ri tashkil etish, loyihalash, maqsad va vazifalarni mustaqil belgilash, ta'lim jarayonini boshqarish bilan bog'liq qarorlarni ishlab chiqish va qabul qilish qobiliyatiga ega bo'lishni taqozo etadi. [4]

Kvaziprofessional faoliyat- bu bo'lajak o'qituvchining kasbiy-professional muhitga o'tishidagi oraliq boshqich. Ya'ni talaba o'qituvchi lavozimida ish boshlaganda duch kelishi mumkin bo'lgan muammolarni oldini olish uchun zarur bo'lgan faoliyatdir. Ish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarga darsni sifatli tashkil qilolmaslik, kommunikativ nutqning shakllanmaganligi, o'z fikrini tinglovchiga yetkazib berolmasligi va hokazo. Bu holatlarga yuzaga kelganda o'qituvchi sifatida faoliyat olib bormoqchi bo'lgan bo'lajak mutaxassis ham o'zini, ham o'quvchilarini hurmatini yo'qotadi, unib kelayotgan yosh avlodga yetuk shaxs sifatida ta'lim-tarbiya berolmaydi. Bu esa o'z navbatida jamiyatda ilmning sayozlashuviga va o'z sohasini tushunmaydigan kadrlarni ko'payishiga olib keladi. Dars jarayonlari shu muammolarga duch kelmaslik uchun bo'lajak mutaxassisning kvaziprofessional faoliyati takomillashgan bo'lishi zarur.

Buxoro davlat universiteti Biologiya kafedrasida qoshida tashkil etilgan “Kvaziprofessional faoliyat” to'garagi bo'lajak biologiya fani o'qituvchilari o'z professional faoliyatlarida yuqorida keltirilgan holatlarga duch kelmasliklari uchun tashkil qilingan. To'garak rus va o'zbek tillarida olib boriladi. To'garak a'zolari asosan birinchi, ikkinchi kurs talabalaridir.

To'garak faoliyatini talabalarga psixologik yondashuv asosida boshladi. Chunki muallifning fikriga ko'ra inson o'zini shaxs sifatida tanimasa u o'zining kelajagini qurolmaydi. Shuning uchun talabalarni o'zlarini psixologik anglash o'rgatilgan holda, oldilarida turgan o'quvchilarini ham tushunishlari o'rgatib borilmoqda. “Shaxsning tashqi ko'rinishi, yozuvi bilan xarakterni aniqlash”, “Ong osti va uning mo'jizalari”, “Do'stlik”, “Oila”, “Ota-ona va farzandlar o'rtasidagi munosabat”, “O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabat”, “Bolalikda olingan psixologik jarohatlarning ta'siri va ularni bartaraf etish usullari” kabi mavzularga davra suhbatlari tashkil qilinmoqda. Bu suhbatlar orqali talabalarni qiynab kelayotgan holatlar o'z yechimini topmoqda.

Suhbat jarayonida ularning kommunikativ nutqini shakllantirish uchun to'garak a'zolariga har kuni o'zlari qiziqqan fan doirasida bir mavzuni o'rganib kelib dars o'tib berish topshirig'i berilgan. Buning uchun yuqoridagi psixologik mavzular bilan birgalikda o'tilgan “Dars jarayoni va uni sifatli tashkil etish”, “O'qituvchi etikasi va estetikasi”, “So'zlashuv madaniyati”, “Yangi pedagogik texnologiya va vositalar”, “Jamoada oldida o'zini tutish san'ati” kabi mashg'ulotlar asosida o'rgangan bilimlariga yondashgan holda darslar tashkil qilishmoqda. Ularning olib borgan darslari asosida talabalarga dars tahlili ham o'rgatib borilmoqda. To'garak a'zolaridan Abduganiyev Saidabbosxon tarix fanidan “Османская династия и их культура”, Adizov Rahimqulihon kimyo



fanidan “Atom tuzilishi. Elektron konfiguratsiya”, Nurboyev Solohiddin botanika fanidan “Gul va uning tuzilishi”, Zagirova Karina sitologiya fanidan “Клеточное ядро”, Talmaxonova Uljan Zoologiya fanidan “Инфузория туфелька-строение, размножение, питание ” mavzularidan qiziqarli darslar o'tkazishdi.

To'g'arakning keyingi rejalari: Buxoro shahrida joylashgan maktablar bilan shartnoma asosida talabalarimiz dars o'tib berishadi. Bundan ko'zlangan maqsadimiz shundaki, bo'lajak o'qituvchilar o'z sohalarini tushuntirib beradigan, qiziqarli va sifatli dars tashkil qiladigan, ravon nutq egasi, jamoa oldida qo'rquvga tushmasliklari va eng asosiysi yetuk bilimga ega kadrlar tayyorlashga o'zlarining munosib hissalarini qo'shadigan mutaxassis bo'lishlariga erishishdir. Bundan tashqari bo'lajak o'qituvchilarni o'z kasblarini yaxshi ko'radigan, mutaxassisliklarini chuqur o'zlashtirishgan shaxs sifatida tarbiyalashdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Толипова Ж.О. Биологияни ўқитишда педагогик технологиялар. Педагогика олий ўқув юртлари 5140400-Биология ва инсон ҳаётий фаолияти муҳофазаси мутахассислиги талабалари учун дарслик. Тошкент, 2007, 164 б.
2. Даутова,О.Б. Профессиональная компетентность педагога-воспитателя. -Санкт-Петербург: Изд-во РГПУ им. А. И. Герцена, 2005-С. 8-20.
3. Вербицкий, А.А. Компетентностный подход и теория контекстного обучения.-Материалы к четвертому заседанию “РОССИЯ в Болонском процессе: проблемы, задачи, перспективы” методологического семинара—М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004. С. 5.
4. Raupova, M. (2021). Bo'lajak biologiya o'qituvchisi kvazi-professional faoliyatini loyihalash usullari. Центр научных публикаций (buxdu.Uz), 1(1). извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/27.



UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA INGLIZ TILI DARSLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHGA XIZMAT QILADIGAN INTERFAOL METODLAR VA ULARNING AHAMIYATI

Saidaxmedova Gulnora Sharipdjanovna
Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek tumanidagi
50-maktabning ingliz tili fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada umumta'lim maktablarida ingliz tili darslarida o'quvchilarning tafakkurini rivojlantiradigan metodlar va ularning qo'llanilishi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Interfaol, ingliz tili, tafakkur, metod, usul, ko'nikma, malaka, ko'nikma.

Mamlakatimizda axborot jamiyatini shakllantirish, barcha sohalarda eng ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirilyapti. Xususan, bu jarayonda interfaol xizmatlarning imkoniyatlari yuqori baholanmoqda. Interfaol metod – ta'lim jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasidagi faollikni oshirish orqali o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni qo'llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Hozirda ta'lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo'nalishlardan biri interfaol ta'lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Barcha fan o'qituvchilari singari ingliz tili o'qituvchilari ham dars mashg'ulotlari jarayonida interfaol usullardan kengroq foydalanmoqdalar. Interfaol usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z fikrini bayon qilish, uni asoslagan holda himoya qila bilish, sog'lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko'nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi.

Zamonaviy texnologiyalar orqali chet tili o'qitilar ekan, unda o'quvchi o'zi dars jarayonini rejalashtiradi, o'zi belgilagan o'quv rejasi asosida shug'ullanadi, o'qitish metodlarini o'quvchi va o'qituvchi hamkorlikda tanlaydi, o'quv materialini muhokamasida ishtirok etadilar. Bunda o'quvchilar bir-birlariga yordam beradilar. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda ingliz tili darslarida samarali hisoblangan interfaol metodlardan bir nechtasini ko'rib chiqamiz.

“Tirsaklaringiz bilan salom ayting” metodi. Dars boshida norasmiy muhit yaratish va o'quvchilar o'rtasida aloqa o'rnatish uchun ismingizni ingliz tilida aytib, bir-biringizga tirsagingiz bilan tekkizish orqali imkon qadar ko'proq guruh a'zolariga salom ayting. Ushbu usul bugungi kunda pandemiyada yashayotganimizda juda muhimdir.

“Parvoz qiladigan so'zlar” metodi. O'quvchilarga so'zlar yozilgan kartochkalar beriladi. Shunda ba'zilar so'zning boshini boshqalari oxirini olishadi. O'quvchilar birlashishlari va so'zlarning ayrim qismlariga mos kelishlari kerak. Ushbu usul leksik, so'zlarni talaffuz qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga imkon beradi.

“Sizning yangi kompyuteringiz metodi”. Har bir ishtirokchiga har xil rangdagi to'rtta stiker beriladi. O'quvchilar yangi ko'rganlarini, nimalarni o'rganganlarini, nimalarni tushunganlarini va qanday his-tuyg'ularni boshdan kechirganlarini yozadilar. Keyin ushbu so'zlar taxtadagi ramziy kompyuterga yopishtiriladi: monitorga – men nimani ko'rdim, klaviaturaga – nimani o'rgandim, tizim blokiga – nimani tushundim, sichqonchaga – nimani his qildim. Mazkur metodni asosan ingliz tili darslari yakunida ya'ni ingliz tili darsi yakunida natijalarni tahlil qilish uchun qo'llasa bo'ladi.

“Pantomima” (pantomime) bu usul juda qiyin mavzular tushuntirilishi kerak bo'lgan darsda yoki yozma mashqlar bajarilib, o'quvchilar charchagan paytda foydalanilsa bo'ladi. Sinf to'rt guruhga ajratiladi. Har bir guruh O'zbekistonda ishlab chiqariladigan elektr asboblari yoki mashinalarini harakatda ko'rsatadilar, boshqa guruh a'zolari buni nima ekanligini inglizcha aytadilar. Masalan, (televizor, muzlatgich, Neksiya avtomobili va h. k.)

“Hikoya zanjiri” (a chain story). O'qituvchi doskaga birinchi gapni yozadi. O'quvchilarga raqamlangan kartochkalarni beradi. Raqamlar bo'yicha har bir o'quvchi bittadan gap aytadi. Oxirgi raqamdagi o'quvchi hikoyani tugatishi lozim. Bu usul o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirishda yordam beradi.

“Topishmoqlar kaliti”. Bu usulda bir o'quvchi sinfdan tashqariga chiqib ketadi, qolgan o'quvchilar sinfdan biror narsani “yashirishadi”. Tashqaridagi o'quvchi xonaga kirgach “yashirilgan” narsani topishi kerak. Buning uchun kimdir unga yordam beradi. Qaysi o'quvchi javobga to'g'riroq ishora



qilsa, shu o'quvchi o'yinni davom ettiradi. Masalan o'qituvchi stoli ustidagi kartochka yashirilsa o'quvchi shunday ta'rif berishi mumkin: Cards-a set of small rectangular pieces of stiff paper that have special designs on numbers on them that are used for such things as playing games.(o'yinlar o'ynash uchun mo'ljallangan, ustida maxsus rasmlari va raqamlari bo'ladigan, qattiq to'rtburchak qog'ozlar yoki plastik bo'laklar to'plami).

“Tez aytishlar va harfli kartalar”. Bu usulni tovushlarni tushuntirmoqchi bo'lganimizda qo'llasak foydali bo'ladi: O'qituvchi o'quvchilarni juftliklarga ajratib, ularga harflar yozilgan kartochkalarni beradi. O'quvchilar har bir harf bilan boshlanadigan so'z va gaplar tuzadilar. (M: Betty Botta bought a bit of butter, Silly sally sang a song). Boshqa juftliklar bu tez aytishlarni takrorlashlari lozim.

Yuqoridagi kabi interfaol metodlarni ingliz tili darslarida qo'llash orqali o'quvchilarning o'qishga, bilim olishga nisbatan ko'nikmalarini kuchaytirib boramiz. Xulosa qilib aytganda, dars samaradorlini ta'minlashni maqsad qilib olgan o'qituvchi interfaol dars usullaridan o'z o'rnida mohirona foydalansagina o'z maqsadiga erishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Daminova N.R. Umumta'lim maktablarining ingliz tili darslarida interfaol metodlardan foydalanib darslarni tashkil etishning samaralari. “Science and education” scientific journal. November 2020/Volume 1 Issue 8
2. N.Q.Xatamova, M.N.Mirzayeva. Ingliz tili darslarida qo'llaniladigan interfaol metodlar. (Uslubiy qo'llanma) Navoiy-2007
3. Sh.Xudoyqulov Ingliz tili darslarida interfaol o'qitish metodlari. “Maktab va hayot ” jurnali. 8/2020, 22-23-bet.



МАКТАБДА О'QUVCHILARNI FRANSUZ TILI FANIGA QIZIQISHINI OSHRISHDA «RUCHKA STOL O'RTASIDA» INNOVATION TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH

Urunova Maylipashsha Allaberganovna

Xorazm viloyati Hazorasp tumani

33-son maktabining fransuz tili fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol uslublardan foydalaniladi.

Kalit so'z: integratsiya, sintez, stol, ruchka, pedagogik, Beruniy, yodgor.

Integratsiya–tarqoq, bo‘lak–bo‘lak, ayrim–ayrim xoldagi narsalarni bir butun, yaxlit, tizimlashgan holatga keltirish. Integratsiya–turli fanlarga oid bilimlarni yagona maqsadni hal etishga yo‘naltirishdan iboratligini anglash S.L.Rubinshteyn integratsiya masalasini yechishda fikrlash xodisani bog‘liqlik yo‘llarini analiz qilishdan va keyingi bosqichda sintezlashdan iborat deb ko‘rsatadi. shaxs sifatida shakllanishi, uzoq umr ko‘rishining sabablari inson psixikasining rivojlanishiga bog‘liq. Bu borada buyuk ajdodlarimiz Abu Rayhon Beruniy “O‘tmishdan qolgan yodgorliklar” asarida odamning uzoq umr ko‘rishini biologik va irsiy omillar bilan bog‘laydi.

«Ruchka stol o‘rtasida» metodi. Butun guruhga topshiriq beriladi (masalan, o‘quvchi shaxsining rivojlanishi va shakllanishiga ta’sir etuvchi, shaxs rivojlanishi va shakllanishining asosiy omillarini birma-bir ko‘rsatib o‘tilsin). Har bir o‘quvchi bitta javob variantini bir varaq qog‘ozga yozib, uni qo‘shnisiga beradi, o‘z ruchkasini esa stolning o‘rtasiga surib qo‘yadi.

Topshiriqqa misol: O‘qituvchining guruhga beradigan topshirig‘i shaxs rivojlanishi va shakllanishiga ta’sir etuvchi asosiy omillarni hayotiy misollar bilan sharhlab berish. Ajratilgan 10-15 daqiqa vaqt ichida guruh mumkin qadar ko‘proq sonda javob variantlari berishi kerak. Bir varaq qog‘ozga yozilgan topshiriq bir o‘quvchidan ikkinchisiga uzatiladi. O‘quvchi javobni yozib, qog‘ozni keying o‘quvchiga uzatadi, ruchkasini esa, o‘ziga ro‘baro‘ qilib, stolga qo‘yib qo‘yadi. Javobni bilmaydigan o‘quvchi qog‘ozni keyingi o‘quvchiga uzatadi-yu, lekin ruchkasini qo‘lida olib qoladi. Bu metodikaning yana bir sharti: bitta variantni ikki qayta berish mumkin emas, boshqacha aytganda, qaytariqlar bo‘lishiga bu o‘rinda yo‘l qo‘yilmaydi. Topshiriq bajarildi. Javob variantlari yozilgan qog‘oz o‘qituvchida. U o‘sha variantlarni sanab o‘tadi. Variantlar sanab o‘tilar ekan, ularning biri muhokama qilib boriladi: Insondagi tug‘ma qobiliyatni qanday izohlaysiz? Bolani o‘rab turgan ijtimoiy muhit deganda nimani tushunasiz? Va hokazo.

«Ruchka stol o‘rtasida» metodi bir qancha afzalliklarga ega. Jumladan, o‘qituvchi mashg‘ulotga kim tayyor, kim tayyor emasligini ko‘rib turadi:

– mashg‘ulotga tayyorlanmagan o‘quvchi og‘zaki muhokama paytida ko‘rib chiqilayotgan mavzu yuzasidan anchagina foydali bilimlar olishi mumkin;

– bu guruhda olib boriladigan ish bo‘lib, o‘quvchilar intizomini mustahkamlaydi va ularni jipslashtiradi, chunki o‘z variant ustida juda uzoq o‘ylab o‘tiradigan o‘quvchi butun guruhga ajratilgan vaqtni sarflaydi. Shuningdek, o‘quvchi mashg‘ulotga tayyor bo‘lmasa, bunda ham u guruhga pand beradi, chunki guruh uning uchun ishlashi kerak bo‘ladi;

– o‘quvchilar o‘z javoblarini ikki marta: yozma ish paytida va og‘zaki muhokama vaqtida tahlil qilib borishadi.

Shunday qilib, ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan mazkur interfaol usullar o‘quvchi-o‘quvchilarning mustaqilligi, ishchanligi, uyushqoqligi, xushmuomalaligi, ijodiy fazilatlarini kamol toptirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rustambek Q. O. L. Birinchi sinf chapaqay o‘quvchilarining maktabga moslashishi, maktabga moslashishi davridagi pedagogik yordamning mazmuni //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – T. 1. – №. 1.

2. Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P. Satbayeva «Mehnat va uni o‘qitish metodikasi». Darslik. T.: TDPU. 2015-yil.

3. Sh.Mirziyoyev Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent – “O‘zbekiston” – 2016.56B.



БОШЛАНҒИЧ СИНФЛАРДА ТАБИАТШУНОСЛИК ФАНИНИ ЗАМОНАВИЙ ПЕДТЕХНОЛОГИЯЛАР АСОСИДА ЎҚИТИШ

Матназарова Озода Шомуротовна
Янгиариқ тумани 20-сон мактаб
бошланғич фани мутахассис ўқитувчиси
Тўраева Замира Қуранбоевна
20-сон мактаб бошланғич фани
мутахассис ўқитувчиси

Аннотация: Ушбу мақолада бошланғич синфларда табиатшунослик фанини ўқитиш ва болаларда табиатга қизиқишни уйғотиш масалаларига бағишланган.

Калит сўзлар: технология, интерактив, психология, педагогика.

Табиатшуносликни ўқитиш методикаси ва болаларни ҳар тамонлама тарбиялашнинг мазмуни ва методларини очиб берувчи педагогик фандир.

Ўқувчиларга табиатшуносликни ўргатиб бориш билан ўқитувчи уларни давом эттириш ва амалий фаолият учун зарур бўлган билим, қуролланибгина қолмай, балки уларнинг дунёқараши, иродаси, характери шакллантиради. Шунга кўра табиатшуносликни ўқитишнинг шакл ва методларини ишлаб чиқади.

Ўқитиш жараёни ўзаро боғлиқ бўлган қисимларни: предмет мазмуни, ўқитувчи ва ўқувчилар фаолиятини, яъни предметнинг ўзини, уни ўқитишнинг билим ва кўникмаларни ўз ичига олади. Табиатшуносликни ўқитиш методикаси ўқитувчининг таёрланишидан тортиб, то ўқув материалларини ўзлаштириш натижаларини, жумладан синфдаги, уйдаги, синфдан ва мактабдан ташқари ишларни ҳисобга олишгача барча ўқитиш и жараёнларини ўз ичига олади. Болаларда нарсаларни (ўсимлик ва ҳайвонларни) ва шу тўғрида тасаввур ҳосил бўлишни таъминлайдиган қонуниятларни ишлаб чиқиш.

Табиатшунослик методикаси ўрганадиган ва ишлаб чиқадиغان масалалар доирасига қуйидагилар қиради:

1. Табиатшуносликнинг таълим ва тарбиявий аҳамияти, унинг тарбия системасидаги ўрни
2. Ўқув материалларининг мазмуни ва уни тақсимланиш системаси.
3. Ўқитиш методлари ва ўқувчиларни ташкил этиш шакллари
4. Ўқувчиларнинг ўзлаштириш жараёнини ва ўқитиш натижаларини ҳисобга олиш.
5. Жихозлаш ва ўқув қуролларидан фойдаланиш.
6. Ўқитишнинг моддий базаси

Табиатшуносликни ўқитиш методикаси табиат ҳодисаларини ўзаро баҳланишда ва ривожланишда ўрганишга имкон беради. Бошланғич синфларда табиатшунослик фанини жонли ва жонсиз табиатни ҳар хил объектлар ўртамидаги, жонли табиат билан одамлар ўртасида ўзаро алоқаларни кичик ёшдаги ўқувчиларга тушунарли шаклда очиб бериш, жонажон табиатга муҳаббатни, унинг бойлигини қўриқлаш ва эҳтиётлик билан фойдаланиш истакларини тарбиялаш керак. Бошланғич мактаб табиатшунослик курси табиат ҳодисаларининг кенг доирасини қамраб олади, шу муносабат билан баъзан ўрганилаётган ҳодисалар билан ўзаро боғлиқ ҳолда кузатишлар олиб бориш қийин бўлади.

Табиатшуносликнинг ўқитиш методикасининг муҳим вазифаси ҳар бир синф учун яқка тартибда дастур ишлаб чиқишдир. Табиатдаги мустақил кузатишларсиз ичик ёшдаги ўқувчиларда кузатувчанликни ривожлантириб бўлмайди, тирик организмларни бевосита ўрганмасдан туриб ўсимлик ва ҳайвонлар ҳаётини тушунтириб бўлмайди, ўсимликларни ўстириш ва ҳайвонларни парвариш қилиш бўйича амалий ишлар бажарилмасдан қишлоқ хўжалик меҳнатининг амалий ўқув, ҳамда кўникмаларини ҳосил қилиб бўлмайди.

Табиатшунослик методикаси, шунингдек ўқитишнинг моддий баҳоси – табиатшунослик кабинети, тирик табиат бурчаги, ўқув тажриба участкаси, география майдончаси, ўқитишнинг техника воситаларини ташкил этиш ва фойдаланиш масалаларини ҳам қамраб олади. Ёш болаларда табиатшунослик фанини ўқитишда кўпроқ қурғазмалар қуроллардан фойдаланиб ўтиш кўпроқ самарали бўлади. Айниқса атроф муҳитга доир видео лавҳалар курсатиб борилса ёки атроф муҳитни асрайлик каби мавзуларни кўрсатиб борилса болаларда



экологияга нисбатан меҳр оқибат кучая боради. Хайвонларни кўрсатиб дарс давомида унинг номларини айтиб ўтиш янада қизиқарли булади. Қоинот фалакиётларни ўтиш жараёнида албатта қомусий олимимиз Мирзо Улуғбекнинг фаолияти ҳақида маълумот бериб бориш болаларда Ватанимизга меҳр ва болаларда ватанпарвар руҳини шакллантириш кучаяди. Кун ва тун йил фасллари каби мавзуларда эса болаларга фасллар туғрисида вазифалар бериб бориш ёки расм чиздириш уларда эстетик тарбияни ривожлантиради.

Ўзбекистонда адирлар табиати мавзусини интерактив ўйинлар билан олиб бориш мумкин. Болаларга ҳар бир зона ҳақида маълумот берилиб интерактив доскада эса табиат манзаралари кўрсатиб борилади. Ҳар бир ўқувчи эгаллаган билими орқали қайси зонага тегили эканлигини айтиб боради. Бунда болада ҳам кўриш ҳам эслаб қолиш қобилияти янада кучаяди.

Ҳар бир дарсни интерактив фаол кургазмали қуроллар билан олиб бориш даркор. Табиатшунослик фани бошланғичдан бошлаб ўтилиши бу бежизга эмас чунки болада илк қадамдан бошлаб уз она юртимиз табиатига меҳр билан тарбиялай олишимиз керак.

Фойдаланилган адабиётлар

- 1) Григорянц Е.М. Абдуллаева А.И. Табиатшунослик (3 синф учун дарслик) Т., “Ўқитувчи”, 1998г
- 2) Икромов Х.З. Ахборот ва коммуникация технологиялари Т., ЮНЕСКО, 2004.
- 3) Азизхўжаева Н.Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат .Т., 2003



PSIXOLOGIYA TARAWÍNDAGÍ INNOVATSIYALAR: MEKTEP OQÍWSHÍLARÍN KÁSIPKE BAĞDAELAWDÍN AYÍRÍM TÁREPLERI HAQQÍNDA

Alibekova Dilafruz

Qaraqalpaqstan Respublikası

Qanlıkól rayonu 5-mektep psixolog.

Tel: +998(93)0990889

Annotatsiya: oqıwshılardı kásip tańlaw, kásipke jóneltiriw boyınsha alıp barılıp atırğan jumıslar, ósip kiyatırğan jetkinshekti sanalı kásip tańlawğa járdem beredi. Bul bolsa balalardı jasliginan kásip-ónerge úyretiw jámiyettiń tiykarǵı wazıypalardan biri esaplanadı. Sonıń menen birge, olarda kásibine tán túsiniq, oyda sawlelendiriw hám bilimlerin bayıwına xızmet etedi.

Gilt sózler: sezib-anǵarıw, psixomotor, emotsional aqıl, dıqqat, yad, applikatsiya, isbilermenlik,

Jaslardı jumıs menen támiyinlew, kásipke baǵdarlaw mámleketimiz siyasatınıń eń aldı wazıypalarinan biri bolıp turıptı. Buǵan baylanıslı mektep pitkeriwshilerin kásipke baǵdarlaw, qabiletinen kelip shıǵıp tuwrı kásip tańlawı úlken áhmiyetke iye.

Hár qanday jámiyettiń gúlleniwi, social, siyasiy, ekonomikalıq turaqlılıǵın, puqaralarına intellektual hám etikalıq potencialın joqarı dárejede rawajlanganlıǵına baylanıslı. Jámiyetimizdiń ruwxıy jańalanıwında, social jóneltirilgen bazar ekonomikasın qalıplestiriwde jáhán jámiyetshiligine qosılıwın támiyinleytuǵın demokratiyalıq xuquqiy mámleket qurıw kadrlar tayarlawdın milliy máselesi ústin turatuǵın kriteriya retinde zárúrli rol oynaydı. İnsan balası kamalǵa jetken sayın ilmge talpinadı. Daslepki sabaqtı ol mektepten aladı.

Kásiplik qalıplesiw procesiniń daslepki hám usı waqıtta oǵada zárúrli basqıshı bolajaq kásipti tańlaw, yaǵnıy anıq bir kásiplik sheshimge keliwine bolǵan dáwirdi óz ishine aladı. Jaslardıń kásip tańlawğa tayarlıq dárejesi, tek ǵana jas qásiyetlerine baylanıslı emes, ol málim jasqa kelip óz ózinen qalıplesip qalmaydı. Jaslardıń kásip tańlawğa pedagogikalıq -psixologiyalıq bilim, kónlikpe, ilmiy tájriyebeler, sonıń menen birge, jámiyettiń tásiri arqalı tayarlaw hám tárbiyalaw kerek. Usı processda shaxstan kásibi tiyisli bilimlerge iyelew talap etiledi. Sol sebepli ham oqıwshılardı kásipler álemine tiyisli bilimler menen qurallandıırıw hám de ámeliy kónlikpe hám ilmiy tájriyebelerdi payda etiw kerek. Onıń ushın kásiplerge tiyisli qóllanbalar, tarqatpa materiallar menen támiyinlew kerek. Sondaǵana kásip tańlaw processinde júzege keletuǵın túrli qıyınshılıq, qarama-qarsılıq, tosqınlıqlardı aldın alǵan halda oqıwshı -jaslardı sanalı túrde kásipke baǵdarlaw múmkinshiligine iye bolamız.

Texnologiya pání oqıtıwshı texnologiyalıq tálim processinde kásip hám miynet túrleri haqqındaǵı maǵlıwmatlardı arnawlı bir temalargá baylanıstırǵan halda oqıwshılargá jetkiziwi kerek. Oqıwshılardıń qızıǵıwshılıqlarına tiykarlangan halda ótkeriletuǵın shınıǵıwlar arasında arnawlı bir kásiplerge tiyisli dógerekler bólek orın iyeleydi. Bunday dógerekler kóbinese miynet hám kásip tálimi oqıtıwshıları tárepinen alıp barıladı. Bulardıń qatarına texnikalıq-dóretiwshilik, jas súwretshiler, jas texnologlar, jas fizikler sıyaqlı dógereklerdi kirgiziw múmkin. Texnologiya pání oqıtıwshı óziniń oqıwshılardı kásipke baǵdarlawğa tiyisli iskerligin klass basshıları, pán oqıtıwshıları, mektep administraciyası hám psixologı, ata-analar, máhelle aktivleri, aymaqtaǵı kásip-óner kolledjleri administraciyası iskerligi menen sawlelengen halda ámelge asırıwı kerek. Oqıwshılardı kásip-ónerge tuwrı baǵdarlawda miynet xanasi, laboratoriya hám ustaxanalar da bólek áhmiyetke iye. Miynet pání oqıtıwshı olardı zamanagóy talaplar tiykarında úskenelewge bólek itibar qaratuwı kerek, sebebi oqıwshılarda arnawlı bir miynet hám kásip túri haqqındaǵı bilim, túsiniq hám qıyallar olardıń jámiyet turmısında tutqan ornı haqqındaǵı maǵlıwmatlar daslep usı jerde payda boladı.

Miynet oqıtıwshınıń oqıwshılardı kásip-ónerge jibesh arqalı sociallastırıwǵa tiyisli iskerligin túrli oqıw pánleri oqıtıwshıları hám klass basshılarınıń bul tarawdaǵı jumısları menen uyqaslastırıw zárúrli pedagogikalıq áhmiyetke iye. Onıń ushın :

- túrli oqıw pánleri, pán dógerekleri hám klasstan tıs hám de mektepden tısqarı ilajlardıń múmkinshiliklerinen ónimli paydalanıw ;
- texnologiyalıq bilimler hám kásiplik kónlikpeler járdeminde oqıwshılardı kásipke baǵdarlaw arqalı sociallastırıwǵa erisiw;
- oqıwshılardıń arnawlı bir maqsetke jóneltirilgen social áhmiyetlilik dárejesi joqarı bolǵan



oqıw tapsırmaların orınlawın támiyinlew;

- jámiyet turmısı ushın áhmiyetli bolğan miynet hám kásip-ónerdiń túrli tarawlarına oqıwshılardıń qızıǵıwshılıqların siyasiy gruppalaştırılğan jantasıw tiykarında qalıplestiriwge erisiw;

- oqıwshılardı múnásip kásip-ónerge jóneltiriw maqsetinde, mektep oqıtıwshıları, firmalar, islep shıǵarıw kárxanaları, dóretiwshilik jámáátler, kásip-óner kolledjleri hám de kesellikti anıqlaw orayları sherikligin jolǵa qoyıw. Bunday sheriklik nátiyjesinde oqıwshılar arasında social áhmiyetlilik dárejesi joqarı bolğan kásipler úgit-násiyatlawın ámelge asırıw múmkinshiligi payda boladı.

Juwmaq ornında sonı aytıp ótiwimiz kerek jaslarımızdı tuwrı kásipke baǵdarlaw, bul eń zárúrli wazıypalardan biri ekenligin taǵı bir márte aytıp ótpekshimen. İnsan tuwrı kásip tańlaw arqalı óz shańaraǵına, jámiyetke júdá úlken payda keltiriwi dalil talap etpeytuǵın nızamlıq bolıp tabıladı.

Paydalanılğan ádebiyatlar:

1. O‘zbekiston Respublikasida o‘quvchi-yoshlarni kasb-hunarga yo‘naltirish tizimini rivojlantirish konsepsiyasi. –Toshkent: O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologikpedagogik Respublika tashxis markazi. 2002. 12 b.

2. G‘oziyev E., Mamedov K. Kasb psixologiyasi. - T.: O‘zMU, 2003. 156-b

3. Yusupova F. I. O‘quvchilar individual tayyorgarligini amalga oshirishning pedagogik-psixologik jihatlari. “Xalq ta’limi” jurnali. 2005. №5. 90-93-b.



BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING O‘ZIGA XOS USULLARI

Ametova Adolat

Atajanova Luiza

Xorazm viloyati Xonqa tumani
10-son maktabining boshlang‘ich
ta‘lim o‘qituvchilari

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich ta‘lim tizimida o‘quvchilarning dars jarayonidagi faolligini, so‘z boyligini oshirish va nutq ravonligini ta‘minlashga qaratilgan usullar haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, o‘quv predmetlarini o‘zlashtirishda yordam beruvchi bir necha o‘yin usullari keltirilgan.

Kalit so‘zlar. metod, boshlang‘ich ta‘lim, dars jarayoni, usullar, ta‘lim texnologiyalari, ko‘nikma, mustaqil fikrlash.

Zamonaviy ta‘limni tashkil etishga qo‘yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o‘quvchilarga yetkazib berish, ularda ma‘lum faoliyat yuzasidan ko‘nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, o‘quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko‘nikma va malakalar darajasini baholash o‘qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta‘lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi. Buning uchun muntazam tarzda boshlang‘ich ta‘lim tizimida qo‘llaniladigan innovatsion texnologiyalarni o‘zlashtirish, o‘quvchilarning kompetensiyalarni egallash jarayonlarini jadallashtirish hamda ularni rivojlanayotgan jamiyat talablariga moslashtirish taqozo etiladi. Shu ma‘noda, o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish, nutqini rivojlantirishda interfaol usullar, didaktik o‘yinlar, metodlardan dars mobaynida unumli foydalanish samarali natija beradi.

Shunga muvofiq darslarimiz jarayonida o‘quvchilar bilimni kengaytirish va darslarda faolligini oshirish maqsadida turli xil o‘yinlardan foydalanishga harakat qilamiz. Misol uchun:

“Kim ko‘p so‘z biladi?” o‘yini

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan ushbu o‘yin o‘quvchilarni nafaqat fikrlashi, balki so‘z boyligini oshirishga hamda nutqining ravonligiga ham yordam beradi.

O‘yin qoidasiga ko‘ra, o‘quvchi bir so‘z aytsa, keyingi ishtirokchi shu so‘zning oxirgi harfi bilan boshlangan boshqa so‘zni aytadi va shu tariqa o‘yin davom etadi.

Masalan: gul, lola, alla, anor, rubob, bog‘bon, non, ninachi, ilon va hokazo. Qaysi o‘quvchi to‘xtab qolsa, safdan chiqadi. O‘quvchilarni guruhlariga bo‘lib, alohida mavzular berilsa, yanada yaxshi samara beradi. Misol uchun ba‘zi guruhlariga mevalar haqida, ba‘zi guruhlariga esa, hayvonlar haqida ham topshiriqlar berilishi mumkin.

“Gap tuz” o‘yini.

Ushbu o‘yinni boshlang‘ich 1 va 2sinflarda qo‘llash maqsadga muvofiq. Dastlab o‘quvchilarni guruhlariga yoki qatorlarga bo‘linishi talab qilinadi.

Birinchi qator bitta so‘z aytadi.

Ikkinchi qator shu so‘zdan gap tuzadi.

Uchinchi qator esa ana shu gapdan matn yoki hikoya yaratadi.

Masalan: birinchi qator “non” so‘zini aytsa, ikkinchi qator “Mening onam non yopdi” deb gap tuzadi. Uchinchi qator “Mening onam har doim shirmoy non yopadi. Men ham onam yonida turib ularga yordam beraman” deya davom ettirishadi. So‘ngra har bir aytilgan so‘z, gap, matn va hikoya o‘quvchilar tomonidan tahlil qilinadi:

So‘z nechta harfdan tuzilgan?, Gapda nechta so‘z bor?, Matnda nechta gap bor?

Bunda so‘zni unli va undoshlarga ajratish, o‘quvchilarning tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilishi, kichik matnli hikoyani o‘qib, gapirib berish hamda ularning so‘z boyligini oshirish, fikrlash doirasini o‘stirish kabi bir qator muhim ko‘nikma va malakalarini oshirish ko‘zda tutiladi.

“Qadamba qadam” metodi.

Ushbu metodni barcha fanlarda qo‘llash mumkin. Ayniqsa, takrorlash va mustahkamlash darslarida qo‘l keladi. Tezkor savollar tuzilib, yakka tartibda yoki guruhlar bilan o‘yin o‘tkaziladi. O‘qituvchi savollarni o‘qiydi. Birinchi bo‘lib javob bergan o‘quvchi bir qadam oldinga yuradi.



Barcha savollarga to'g'ri javob bergan o'quvchi marraga birinchi bo'lib yetib boradi. O'yin so'ngida ishtirokchilarning vazifani "a'lo", "yaxshi", "o'rta" bajargani aniqlanadi. Ushbu usul orqali o'quvchilarning nutqi, ziyraklik va chaqqonligi hamda tafakkur doirasi rivojlantirilib boriladi.

Keltirilgan didaktik o'yinlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining fanlarga qiziqishini oshirishga, aqliy qobiliyatini o'stirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Eng asosiysi, boshlang'ich sinf o'qituvchilari ushbu usullarni qo'llash orqali sinfda o'quvchilar faolligini oshirib, darslarni passiv, bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar sonining kamayishiga erishadilar.

Xullas, o'quvchilarimizni erkin, mustaqil va mantiqiy fikrlovchi, o'z ustida topqir bilimdon va ma'naviy yetuk qilib tarbiyalash bizning sharaflı burchimizdir. Bunda esa biz pedagoglarga yuqoridagidek didaktik o'yinlar yordamga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tolipov O', Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari. -T.: 2005.2.
2. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A. "Ta'limda innovatsion texnologiyalar.-T.:2008"
3. Xalq ta'limi jurnali.T. 2016.y
4. www.tadqiqot.uz
5. www.ziynet.uz



BOSHLANG‘ICH TA‘LIM O‘QITUVCHISI ZAMONAVIY FAN VA TEXNIKA DARAJALARINI IFODALAY OLISHI

Atakuziyeva Muazzam Nemadjanovna
Norin tumani 32- maktab boshlangich
ta‘lim o‘qituvchisi

***Annatatsiya.** Boshlang‘ich sinfda o‘quvchi xotirasida ham o‘zgarishlar ro‘y beradi. O‘quvchi birinchi sinfdan boshlab, ta‘lim jarayonida o‘quv materialining ko‘p qismini ixtiyoriy ravishda eslab qoladi.*

***Kalit so‘zlar:** Boshlang‘ich ta‘lim, o‘yin, faoliyat.*

Boshlang‘ich ta‘lim davrida o‘yin faoliyatining o‘rnini endi o‘qish faoliyati egallaydi. O‘qib-o‘rganish bolaning vazifasi, ijtimoiy burchi bo‘lib qoladi. O‘qish jarayonida u darsliklarini va o‘quv qurollarini saranjom saqlash, o‘z vaqtida o‘rnidan turish, maktabga belgilangan vaqtda borish, uyga berilgan vazifalarni bajarish yuzasidan ko‘nikmalarni o‘zlashtiradi. O‘quvchi tobora mas‘uliyatli bo‘lib boradi. Bilimlar bolaning saviyasini o‘stiradi, aqliy rivojlanishini ta‘minlaydi, sezgilari va irodasining o‘sishiga ta‘sir ko‘rsatadi.

Biroq, bu davrda ham bolaning diqqati hali beqaror bo‘ladi. Boshlang‘ich sinfda o‘quvchi xotirasida ham o‘zgarishlar ro‘y beradi. O‘quvchi birinchi sinfdan boshlab, ta‘lim jarayonida o‘quv materialining ko‘p qismini ixtiyoriy ravishda eslab qoladi. Shu bilan birga o‘z-o‘zini doimo nazorat qilib borishi lozim. Buning natijasida o‘quvchining xotirasi takomillashadi, tafakkuri o‘sadi.

7-8 yoshli bolalarda ham tafakkur hali konkret xarakterda bo‘ladi. Ular o‘zlari idrok etgan yoki tasavvur qilgan narsalar haqidagina fikr yuritadilar. Mantiqiy tafakkurning dastlabki ko‘rinishlari shakllana boshlaydi. Uchinchi va to‘rtinchi sinflarda o‘quvchilar ilmiy bilimlarga oid ayrim tushunchalarni ham o‘zlashtirib oladilar. Bu davrda o‘quvchilarning ruhiyatida hissiy kechinmalar yuz beradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida biror fanga, darsga nisbatan qiziqish yuzaga keladi. Ular ta‘lim olishni burch ekanligini anglab yetadilar. Dars vaqtida o‘quvchi faoliyatiga qo‘yilgan yuqori baho o‘quvchilarda ruhiy tetiklik, shodlik, iftixor kabi hissiy kechinmalarni tug‘diradi. Shunday ekan boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchisi har tomonlama yetuk, o‘tkir diplomat, o‘z kasbini ustasi, intellektual salohiyatga ega shaxs bo‘lishi shart.

Boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchi (pedagog)ning texnik-texnologik malakalarga egaligi quyidagilarda aks etadi:

- ta‘lim jarayoniga zamonaviy texnik vositalarini tatbiq etish;
- dars jarayoni mazmunini texnologik pasport va texnologiya xarita yordamida yoritish;
- o‘quv materiali mazmunini yorituvchi slaydlarni tayyorlash;
- o‘quv mashg‘ulotlarini axborot texnologiyalari, interfaol metodlar yordamida tashkil etish;
- ixtisoslik fani xususiyatidan kelib chiqqan holda turli texnik vositalardan foydalanish;
- darslarda proyektni qo‘llay olish;
- o‘quv materiallarini audio va video yozuvlari, taqdimot asosida bayon qilish;
- o‘quvchilarda o‘quv materialini mustahkamlash va o‘quv topshiriqlarini berishda axborot texnologiyalarini qo‘llash;
- kompyuter imkoniyatlaridan foydalanishga doir o‘quv topshiriqlarini ishlab chiqish;
- o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini baholashni kompyuter asosida tashkil etish;
- o‘quvchilarning bilim olganlik va tarbiyalanganlik darajalarini tashxis qilishda kompyuter yordamiga tayanish va boshqalar.

O‘quv jarayonining innovatsion holatlari. O‘quv tarbiyaviy ishlarni takomillashtirishning asosiy yo‘llaridan – o‘quv jarayonini insonpar-varlashtirish, demokratlashtirish, liberilizatsiya etishni innovatsiya holat deb qaraladi.

Innovatsion faoliyatning tuzilishi: ta‘limga ijodiy yondashuv; ijodiy faollik; yangilikni kiritishga texnologik-metodologik yondashuv; yangicha tafakkur asosida yangicha fikrlash; muloqat madaniyati; faollikning reproduktiv, evristik, kreativ darajalari; texnologik jarayonda yangicha loyiha, konseptual tizimli yondashuv asosida yangi ixtirolar; jarayonni yangicha boshqaruv asosida tayyorgarlik, rejalashtirish, amaliyotga joriy etish.



Kreativlik (ijodkorlik) modeli: tezkorlik; egiluvchanlik; originallik; yangicha yechim topa olish; maxsuldorlik; qiziquvchanlik; topqir, ziyrak; yaratuvchanlik; ixtiroga moyil; keng doirada o'ylovchi eruditsiali; kasbiy mahoratli, kompetentlik; o'ziga xoslik, keng fikr yuritishga moyil.

“O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi”da ko'rsatilishicha, innovatsiya quyidagicha mazmun va tushunchalarga ega: “Innovatsiya (ingl. “innovationas” – kiritilgan yangilik, ixtiro) – 1) texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta'minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag'lar; 2) ilmiy-texnika yutuqlari va ilg'or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalaridagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va faoliyat doiralari qo'llanishi”. Amerikalik psixolog E.Rodgers o'z tadqiqotlarida innovatsiya xarakterga ega ijtimoiy munosabatlarning ijtimoiy-psixologik jihatlari, ijtimoiy munosabatlarga yangilik kiritish, bu jarayonda ishtirok etuvchi shaxslarning toifalari, ularning yangilikka bo'lgan munosabatlari, yangilikni qabul qilish, mohiyatini anglashga bo'lgan tayyorlik darajasi hamda muayyan shaxslar toifalari o'rtasidagi innovatsiya xarakterga ega ijtimoiy munosabatlarning tasnifi masalalarini o'rgangan.

Ta'lim tizimida yoki o'quv faoliyatida innovatsiyalarni qo'llashda sarflangan mablag' va kuchdan imkon qadar eng yuqori natijani olish maqsadi ko'zlanadi. Innovatsiyalarning har qanday yangilikdan farqi shundaki, u boshqarish va nazorat qilishga imkon beradigan o'zgaruvchan mexanizmga ega bo'lishi zarur hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Innovatsiya ta'lim texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfu-rov D.M., To'rayev A.B. – T.: “Sano standart” nashriyoti, 2015. – 150 b.
2. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat – T., 2006.
3. Tolipov O., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari – T.: 2006. – 260 b.



BOSHLANG'ICH SINFLARDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA QO'LLANADIGAN USULLAR

Atoeva Zarifa

Navoiy viloyati, Qiziltepa tumani
15-umumiy o'rta ta'lim maktabi
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda ta'lim sifatini oshiruvchi usullar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Zukko hisobchi, mustaqillik, innovatsion, sirli qalamchalar...

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, ta'lim sohasida ham katta islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, „Ta'lim to'g'risida“gi Qonun, „Kadrlar tayyorlash milliy dasturi“ qabul qilindi, „Davlat tili to'g'risida“gi Qonun qaytadan ko'rib chiqildi, Davlat ta'lim standartlari ishlab chiqildi, dasturlar va darsliklar yangilandi. Ta'lim maskanlarida o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda yangicha yondashuv, innovatsion texnologiyalar asosida darslarni tashkil etish eng muhim vazifalardan biriga aylandi. Ayniqsa, o'quvchilarning mustaqil fikrlashini, og'zaki nutqilarini rivojlantirishga e'tibor berish eng dolzarb vazifaga aylandi. Har bir predmetda bo'lgani kabi o'qish darslarida ham ta'lim-tarbiya birligiga e'tibor beriladi.



Innovatsion jarayonlarda ta'lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotni o'zlashtira oladigan, o'zlashtirgan bilimlarini baholay oladigan, zarur qarorlar qabul qiladigan, mustaqil va erkin fikrlaydigan o'quvchilarkerak. Bu borada yangi pedagogik texnologiyalarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. „Muammoli vaziyat“, „Jonli hikoya“, „Topag'on“, „Kim tez manzilga yetadi?“, „O'z oilangni top“, „Yo'lakcha“, „To'lqin“, „Magistr“ kabi usullarni qo'llash orqali o'quvchilarni topqirlik, zukkolik, epchillik qobiliyatlarini shakllantiradi.



“Sehrli qalmchalar” o'yini Bu sehrli qalamchalar yordamida aziz Vatanimiz siymosini 5 daqiqa davomida chizishingiz kerak bo'ladi.



Qadimiy shaharlarimizdan Buxoriy sharif, Xiva va Termizning 2500 yilligi, Samarqand, Shahrisabz va Qarshining 2700 yilligi tantanali o'tkazildi. Xorazm Ma'mun akademiyasi 1000 yilligi nishonlandi

“Davom ettiring “usuli. Bu usulni 4-sinf o'qish darslarida o'quvchilarining og'zaki nutqini o'stirish uchun mustahkamlash darslarida qo'llash mumkin. Ushbu usulda oxirgi harfdan boshlanuvchi terminlar bilan davom ettiriladi.

Namuna :**Maqol**- hayotiy tajriba asosida xalq tomonidan yaratilgan gap;

L – Lapar to'y va yig'irlarda, xalq sayillarida yigitlar bilan qizlar orasida tarafma-taraf aytiladigan qo'shiq ;

R – Rivoyat avlod-dan-avlodga o'tib kelayotgan, voqea-hodisalarni inson faoliyatini ba'zan uydirma, ba'zan real tasvirlovchi og'zaki hikoya.

“So'zlar charxpalagi” ning ochqichi:
Quyidagi “So'zlar charxpalagi” ostida yashirinib yotgan leksik birliklarni topib, ular tarkibida kelayotgan tovushlarni izohlang.

1	Yordam nomi.
2	Kichkina uycha.
3	Bug'doy chiqindisi.
4	“Darkor” so'zining ma'nodoshi.
5	Tuproq qotishmasi.
6	Teshikcha.
7	Xom paxta.

“Muammo”usuli.

Bu usulda mavzuga tegishli biror narsa, hodisa muammo qo'yib qo'yiladi. Bunda masalan, “Meva solgan daraxt” misolidagi ko'rgazmali qurollardan foydalanish mumkin. Bunda oldindan rasmi daraxt va uning mevalari tayyorlab qo'yiladi. Dars jarayonida javob beradigan o'quvchi ushbu mevalardan birini olishga muayassar bo'lishi uchun uning orqa tomonidagi savolga javob bera olishi shart.

O'z fikrini erkin bayon qila oladigan, bilimli, zakovatli va barkamol shaxsni tarbiyalash bizning eng oliy maqsadimizdir. Dars o'tishda bir xillikdan qochib, yangilikka intilsak, albatta, maqsadimizga erishamiz

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M. Jumaboyev. Bolalar adabiyoti. T.: O'qituvchi, 2004. 119-125-bet.
2. Internet saytlari.



O'ZBEKISTON VA XORIJIY MAMLAKATLARDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TARBİYALASHDA OILA VA MAKTABGACHA TA'LIMNING O'RNI

Baqoyeva Ma'mura Bahriddinovna

Zarafshon shahar 7-sonli

“Bilag'on” nomli davlat MTM uslubchisi

Har qaysi millatning o'ziga xos ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirish, bolalarni tarbiyalashda oilaning va maktabgacha ta'lim muassasasining o'ri va ta'siri beqiyosdir. Chunki insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk hayotiy tushuncha va ta'savvurlari birinchi galda oila bag'rida shakllanadi. Bolaning xarakterini, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan ma'naviy mezon va qarashlar: yaxshilik va ezgulik, ahloqiylik, oliyanoblik va mehr oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila va MTM sharoitida qaror topishi tabiiydir. Biz bolalarni ota-ona, bobo-buvilarimizdan qolgan milliy qadriyatlarga tayanib tarbiyalaymiz.

Maktabgacha ta'lim muassasalari, maktab, oliygoh-bularning barchasi o'zbek bolasini tarbiyalashda ota-onaga yordamchi hisoblanadi. Ajdodlarimiz hayoti va or-nomus yo'lida o'z jonini ham ayamaganlik bilan bog'liq buyuk jasoratlar bizga tarix in'om etgan tarbiya usulining ulkan ko'rinishidir. Yer yuzidagi har bir millat farzandlarini o'zgacha tarbiyalashadi va bu albatta, avlodlar davomiyligiga ta'sir etmasdan qolmaydi.

Germaniyada qashshoqlikda yashamasligini ta'minlash maqsadida ota-ona 30 yoshdan oshgandagina farzand ko'rishni rejalashtiradi. Bolalarni 3 yoshgacha enaga tarbiyalaydi, 4 yoshga to'lgandan keyin uni o'yin guruhiga olib boradi. Buning sababi bola maktabgacha ta'lim muassasasiga moslashish uchun tengqurlari bilan munosabat qurishi lozim. Maktabgacha ta'lim tizimi Germaniya ta'lim tizimida muhim bosqich hisoblanadi.

Germaniyada 3 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan bolalarning 80% bog'chalarga qatnaydilar. Rivojlanishdan orqada qolgan yoki yoshi mos bosqichga yetmagan bolalar maktabgacha sinflarda (nem. UogMazzepp) va maktablar qoshidagi bolalar bog'chasida (nem. ZsiShpbegdayep) tahsil oladilar. Maktabgacha ta'lim majburiy emas, lekin rivojlanishda orqada qolgan bolalar uchun majburiy hisoblanadi. Bolalar bog'chalari ta'limning quyi bosqichi hisoblansada, lekin u davlat tizimi tarkibiga kirmaydi. Bog'chalarni mablag' bilan ta'minlash turli jamoat tashkilotlari, xayriya birlashmalari, korxonalari, xususiy shaxslar, diniy muassasalar zimmasida.

Fransiyada bolalar bog'chaga juda erta borishadi, chunki fransuz ona malakasi va ishxonadagi o'rnini yo'qotishdan qo'rqadi. Shuning uchun go'dak tug'ilganidanoq bog'chaning kichik guruhlariga qatnay boshlaydi. Aynan shu sababli fransiyalik bolalar juda erta yoshdan boshlab o'z-o'zlarini boshqara oladi. Ya'ni o'zlari maktabga borishadi, kerakli narsalarni xarid qilishadi va hatto ovqat tayyorlashni ham bilishadi.

Fransiya ta'limida bolalarning go'daklik chog'idanoq maktabda o'qitish uchun tayyor holda olib kelish g'oyat muhim masala hisoblanadi. Bu bosqichda 20 tarbiyalanuvchilar quyidagicha tabaqalashtirilgan: kichik guruh (2- 4 yosh), o'rta guruh (4-5 yosh), katta guruh (5-6 yosh). Maktabga tayyorlov guruhi (5-6 yosh) bo'lib, ularga Fransiyada 100% shu yoshdagi bolalar qamrab olingan. Bolalarni maktabga tayyorlash uchun alohida dastur va darsliklar mavjud.

Fransiyada ta'limning asosiy maqsadi shaxsni har tomonlama kamol topishini ta'minlash, uni mustaqil faoliyatga tayyorlash, bozor munosabatlari sharoitida bolalarni tadbirkorlikka, ishbiarmonlik va omilkorlikka o'rgatish, shunga yarasha kasb-hunarga ega qilishdan iboratdir.

Yaponiya juda tez rivojlanayotgan davlat bo'lib, bu hol asosan yaponlarning tabiatan mehnatsevarlik va ishbiarmonligi bilan bog'liqdir. Yaponiyada juda qadimdan xalqning aqliy imkoniyatlaridan foydalanuvchi fan va texnikani qo'llash siyosati eng muhim o'rin tutadi.

Maktabgacha ta'limga Yaponiyada katta e'tibor beriladi, chunki psixologlarning ta'kidlashicha 7 yoshgacha inson bilimlarni 70% ni, qolgan 30% ni butun qolgan umri davomida o'zlashtirar ekan. Maktabgacha tarbiya odatda oiladan boshlanadi. Yapon ayollari uchun onalik birinchi o'rinda turadi. Ko'pgina yapon ayollarining aytishlaricha, bola tarbiyasi-ularning hayotlarining maqsadlaridir.

Yaponlar bolaning erta voyaga yetishi tarafdoridirlar. Turli yoshlarda tarbiyaning turli muammolariga urg'u beradi. Masalan, 1 yoshda-o'ziga ishonch hissini uyg'otish, 2 yoshda-amaliy san'at qo'l mehnatini ko'rsatish, 3 yoshda- burch hissini tarbiyalash, 4 yoshda-yaxshilik



va yovuzlikni farqlashga o'rgatish, 5 yoshda-liderlik hislatlarini tarbiyalash, mustaqillikka, reja tuzish va ularni bajarishga o'rgatish. Bolalar va qizlar turlicha tarbiyalanadilar. O'g'ilga oilaning bo'lajak tayanchi sifatida qaraydilar va qiyinchiliklarni yengishga o'rgatadilar. Qizlarni esa uy ishlariga tayyorlaydilar. Yaponiya bog'chalarida bolalarni 8 kishilik kichik guruhlar "xan"larga bo'ladi. Bu bolalarga bog'chada "o'z o'zni" ajratiladi, ular o'z xanlariga nom tanlaydilar. Shu tariqa eng kichik yoshdan jamoada ishlashni o'rgatadilar. Bu guruhdagi har bir o'quvchi guruhda o'z o'rniga ega bo'lishi lozim. Yaponiya bogchalariga 3-5 yoshdagi bolalar qabul qilinadi.

Belgiyada maktabgacha ta'lim 2,5 yoshdan boshlanadi. Ushbu belgilangan yoshga yetganda bolalarni maktabgacha ta'lim muassasasiga berishadi, shu sababli guruhdagi bolalar soni yil davomida o'zgarib boradi. Maktabgacha ta'lim guruhlarining asosiy maqsadi: bolalarning bilish, bilim o'rttirish (kognitiv), kommunikativ va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish hisoblanadi. Mashg'ulotlar o'yin shaklida olib boriladi.

Maktabgacha ta'lim majburiy ta'lim dasturiga kiritilmagan bo'lsada, Belgiyada taxminan 90% gacha bo'lgan bolalar unga qatnashadi. Ko'p hollarda maktabgacha ta'lim muassasalari boshlang'ich maktablarga uyg'unlashgan bo'ladi.

Xulosa qilganda barcha dunyo mamlakatlarida bola tarbiyasi, bolani voyaga yetkazish borasidagi qadriyat va odatlarning jamlanmasi mavjud. Sog'lom oila, sog'lom muhit va sog'lom tarbiya- asrlardan asrlarga o'tib keluvchi odat, qadriyat. Bola ham ma'nan, ham ruhan sog'lom o'ssa, sog'lom voyaga yetsagina, avlodlar, nasl va yurtning davomiyligi ham SOG'LOM, BARKAMOL, YETUK bo'ladi. O'zbek adabiyoti yetakchilaridan biri G'afur G'ulomning e'tirofiga ko'ra, bolaning qanday o'sishi va jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishi, avvalo, ota-onaga, so'ng esa Maktabgacha ta'lim muassasasi, yetti mahalla, maktab va butun jamiyatga bog'liq jarayon. Bola Yer yuzi aholisining uchdan bir qismini tashkil etsa-da, butun dunyo xalqlari kelajagidir. Shunday ekan, ertamizni yorituvchi yosh avlodga sog'lom muhitda sog'lom tarbiya berish bizning vazifamiz hisoblanadi.



MATEMATIK TUSHUNCHA VA MATIQIY XULOSALASH

**Bekchanova Nazokat, Qabulova Manzura,
Shermetova Nozakat**

Xorazm viloyati Xonqa tumani 10-umumiy
o'rta ta'lim maktabining matematika o'qituvchilari

Annotatsiya: Ushbu maqolada matematik tushuncha va misollarni ishlashda mantiqiy fikrlash haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: matematika, o'quvchi, tushuncha, induktiv metod, matematik bilim.

Ta'lim deganda o'qituvchi bilan o'quvchilar orasidagi ongli va maqsadga tomon yo'naltirilgan bilishga doir faoliyat tushuniladi. Har qanday ta'lim o'z oldiga ikkita maqsadni qo'yadi: 1) o'quvchilarga dastur asosida o'rganilishi lozim bo'lgan zarur bilimlar sistemasini berish; 2) matematik bilimlarni berish orqali o'quvchi laming mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish. Ta'lim jarayonidagi ana shu ikki maqsad amalga oshishi uchun o'qituvchi har bir o'rgatilayotgan tushunchani psixologik, pedagogik va didaktik qonuniyatlar asosida tushuntirishi kerak. Buning natijasida o'quvchilar ongida bilish deb ataluvchi psixologik jarayon hosil bo'ladi.

Har bir fanda bo'lgani kabi matematika fanida ham ta'riflanadigan va ta'riflanmaydigan tushunchalar mavjud. Maktab matematika kursida, shartli ravishda, ta'riflanmaydigan eng sodda tushunchalar qabul qilinadi. Jumladan, arifmetika kursida son tushunchasi va qo'shish amali, geometriya kursida esa tekislik, nuqta, masofa va to'g'ri chiziqli tushunchalari ta'riflanmaydigan tushunchalardir. Bu tushunchalar yordamida boshqa matematik tushunchalar ta'riflanadi. Ta'rif degan so'zning ma'nosi shundan iboratki, bunda qaralayotgan tushunchalarni boshqalaridan farqlashga, fanga kiritilgan yangi atama mazmunini oydinlashtirishga imkon beruvchi mantiqiy usul tushuniladi. Tushunchaning ta'rif ta'riflanuvchi tushuncha bilan ta'riflovchi tushunchalar orasidagi munosabatdan hosil bo'ladi.

Maktab matematika kursida matematik tushunchalar ikki xil usulda kiritiladi.

1) Aniq induktiv metod. Bunda o'quvchilar avval o'qituvchining topshiriqlarini bajargan holda o'rganilayotgan tushunchaning umumiy xossalasini aniqlaydilar, so'ngra o'qituvchi rahbarligida ta'rifni mustaqil holda tushunishga harakat qiladilar. Yangi tushuncha kiritishning bu yo'li ayniqsa quyi sinflarda o'z samarasini beradi. Bundan tashqari, aniq induktiv yo'l orqali tushunchalarni kiritish jarayonida muammoli vaziyatlar hosil bo'ladi, buning natijasida o'quvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyatlari shakllanadi.

Matematik xulosa ham mantiqiy tafakkur qilish shakllaridan biri hisoblanadi. Matematik xulosaga bunday ta'rif berilgan: «Ikkita qat'iy hukmdan hosil qilingan uchinchi natijaviy hukmga xulosa deyiladi».

Misol. 1-hukm: to'rtburchakning diagonali uni ikkita uchburchakka ajratadi. 2 -hukm: har bir uchburchak ichki burchaklarining yig'indisi 180° ga teng. 3-hukm: demak, to'rtburchak ichki burchaklarining yig'indisi 360° ga teng (xulosa bo'ladi).

Maktab matematika kursida xulosalarning uchta turi, ya'ni induktiv, deduktiv va analogik xulosalar o'rganiladi.

Ta'rif. Ayrim yoki xususiy ma'lumotlarga tayanib umumiy xulosa chiqamhni induksiya deyiladi. Induksiya uch xil bo'ladi: chala induksiya, to'la induksiya va matematik induksiya. Chala induksiya metodi orqali chiqarilgan xulosa ko'pgina hollarda to'g'ri, ammo ayrim hollarda noto'g'ri bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Столяр А.А. «Методы обучения математике* Минск, «Вершая школа» 1993
2. Кларин М.В. «Инновационные модели обучения в забужных педагогических поисках», М., «Просвещение», 1994.



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA O'YIN TA'LIM TEXNOLOGIYASI ASOSIDA REFLEKSIV KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

**Bekmetova Iroda Karimovna,
Ro'zmetova Fazilat O'ktamboyevna,
Raxmonova Xurshida Baxtiyorovna**
Xorazm viloyati Xonqa tumanidagi
10-son umumiy o'rta ta'lim maktabning
boshlang'ich sinf o'qituvchilari

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda o'quvchilar bilan ishlash bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: globallashuv, ta'lim-tarbiya, o'quvchi, islohotlar, metodika.

Bugungi kunda butun dunyoda ro'y berayotgan globallashuv sharoitida mamlakatimiz barqaror taraqqiy etib borish uchun har tomonlama modernizasiyalashgan tizimli yondashuvni taqozo qilayotganligi munosabati bilan olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizasiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'limni tizimli islox qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berildi.

Ilmiy jarayonda innovatsion ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish va loyihalashtirish, integratsion ta'limni rivojlantirishda boshlang'ich ta'limning o'zni, global ilmiy jarayonda filologik ta'limni rivojlantirish hamda tabiiy va aniq fanlarni o'qitishda integratsion ta'lim yo'nalishlar bo'yicha talaygina ishlarni amalga oshirish rejalashtirilgan. Xulosa qilib aytganda, ta'lim sifat va samaradorligini oshirishda integratsion ta'limni rivojlantirish borasidagi ishlarni amalga oshirishda barcha fanlarning o'zni muhim ahamiyatga ega bo'lib, o'sib kelayotgan yosh avlodni hamda mahoratli pedagoglarni har tomonlama barkamol inson sifatida ko'rish, ularga o'z qiziqishlarini inobatga olgan holda qo'shimcha bilimlar berish hamda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda jamiyat ravnaqi uchun xizmat qilishlariga shart-sharoitlar yaratib berish maqsad qilib olingan. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'yin ta'lim texnologiyasi asosida refleksiv ko'nikmalarini shakllantirish, o'yin – ta'limiy faoliyat sifatida, bola shaxsini rivojlantirishda didaktik o'yinlar mavzulari doirasida refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish masalalari haqida fikr yuritilgan.

Ma'lumki, o'quvchilarning bilish faoliyati o'yin faoliyati bilan uyg'unlashgan darslar didaktik o'yinli darslar deyiladi. Didaktik o'yinli texnologiyalar o'quvchilarning bilim olish faoliyatini o'yin faoliyati bilan qo'shib olib borishdan iborat. Didaktik o'yinlar musobaqa, raqobat, o'zaro yordam, hamkorlik tarzida olib boriladi. Buning uchun o'qituvchi didaktik o'yindan ko'zda tutilgan maqsad, uni amalga oshirish yo'llari, o'yin mazmuni va ishtirokchilari faoliyatini aniqlab oladi. Didaktik o'yin darslari ta'lim va tarbiya berish, o'quvchilar faoliyatini yo'naltirish, kasbga yo'naltirish, o'quvchilarning muloqot va nutq madaniyatini rivojlantirish, ular bilimlarini chuqurlashtirish va shaxsni rivojlantirish vazifasini bajaradi. Didaktik o'yinli darslarni mazmuniga ko'ra sahnalashtirilgan rolli o'yinlar, ijodiy ishbilarmonlik o'yinlari, konferentsiya va o'yin mashqli darslarga ajratish mumkin. Mazkur darsga hamma o'quvchilar ular qaysi rol ni bajarishidan qat'iy nazar qizg'in tayyorgarlik ko'rishi lozim.

Boshlang'ich sinfda olingan bilim keyingi bosqich uchun poydevor vazifasini o'taganligi sababli ta'lim sifatini oshirish pedagoglar oldida turgan eng dolzarb masaladir. Shu maqsadda ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan pedagoglar, xususan boshlang'ich sinf o'qituvchilari darslarda yangi zamon ruhini, yangi nafasni olib kirish orqali o'quvchilar bilimini rivojlantirish, ular dunyoqarashini o'stirishga katta e'tibor qaratishlari talab etiladi. Chunki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining diqqati beqaror bo'lib, bir soat uchun mo'ljallangan saboqni sabr-toqat bilan tinglay olmaydi. Bilim olishda avval o'zlashtirilgan bilimlarni takrorlash, ayniqsa, muhim vosita hisoblansa-da, bolalar uchun zerikarli jarayondir. Ayniqsa, boshlang'ich sinflarda ona tili, matematika darslarida yozish natijasida qo'llarni toliqishi, o'qish darslarida bir mavzuni takrorlab o'qish bolalarni zeriktiradi. O'quvchilarni kayfiyatini ko'tarish, toliqqan qo'llarini chigalini yozish



maqsadida, turli didaktik vositalar hamda o'yinlar o'tkazish o'quvchilarda refleksiv ko'nikmalarni shakllantirishda yaxshi samara beradi. Didaktik vositalarga boshqotirma, krossvord, rebus, topishmoq, topshiriq va boshqalar kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Og'ayev S. Yangi pedagogik texnologiya-hayotiy ehtiyoj. “Xalq ta'limi” jurnali, 2001, № 3.
2. Yo'ldoshev J.G., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. Toshkent: O'qituvchi, 2004.



BOSHLANG‘ICH TA’LIM DARSLARIDA ILG‘OR TA’LIM VOSITALARI

Bobomurodova Munira

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani
15-umumiy o‘rta ta’lim maktabi
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’lim darslarida ilg‘or ta’lim vositalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: muammoli savol-javob, xira oyna, bu kim? O‘ylang, metodika...

Bugungi kunda O‘zbekistonning jahon miqyosida munosib o‘rin egallashi uchun ma’naviy, siyosiy, iqtisodiy yo‘nalishlarda g‘oyat muhim va murakkab ishlar amalga oshirilmoqda. Bugun biz tarixiy bir davrda -xalqimiz o‘z oldiga ezgu va ulug‘ maqsadlar qo‘yib, tinch-osoyishta hayot kechirayotgan, avvalombor o‘z kuch va imkoniyatlariga tayanib, demokratik davlat va fuqorolik jamiyati qurish yo‘lida ulkan natijalarni qo‘lga kiritayotgan bir zamonda yashamoqdamiz.

Ma’lumki, metodika o‘qituvchining bilimi, ko‘nikmasi mahorati, shaxsiy sifatлари, temperamentiga bog‘liq bo‘lib, ma’lum shaxs o‘qituvchi uchun qulay bo‘lgan o‘qitish usullari va yo‘llari majmuadir. U alohida metodikalarga ajratiladi. Pedagogika fani ma’lum o‘quv fanlarini o‘qitish qonuniyatlarini tadqiq qiladi.

Boshlang‘ich ta’lim darslarini tashkil etishda quyidagi vositalar muhim ahamiyat kasb etadi.

“Bu kim?” ta’limiy usuli. O‘quvchilar hikoya va she’rlarning mualliflari haqida ma’lumot beradilar.



“MUAMMOII SAVOL-JAVOB” usuli. Bunda o‘quvchilarga ma’lum bir mavzu bo‘yicha savol beriladi. O‘quvchilar o‘z fikrlarini erkin bayon etadilar.

O‘quvchi nutqiga qanday talablar qo‘yiladi?

-O‘quvchi nutqini yaxshilash, boyitish uchun nimalarga e’tibor kuchaytirilishi kerak?

-Qanday nutqni yaxshi nutq deyish mumkin?

Tasavvur qiling, bugungi insonlar taqdiri haqida kelajakda qanday mavzularda asarlar yoziladi deb o‘ylaysiz?

-Hozirgi o‘qigan asar qahramonini siz qanday ta’riflar edingiz?



-Hayotingizda asardagi kabi ziddiyatlarni kuzatganmisiz?



O'ylang, qaysi harflar tushib qolgan?

A	R	R	A
I	K	K	I
	K	K	I

A	V	V	A	L
T	I			A
H	A	M	M	a



“Xira oyna” usuli.

Dastlab guruh a'zolariga “Xira oyna” tarqatmalari tarqatiladi. Guruh a'zolari kelishgan holda dars davomida tushunmagan va bilmoqchi bo'lgan ma'lumotlarini tarqatmaning xira tomoniga, oynaning tiniq tomoniga tushungan va bilgan ma'lumotlarini yozib boradilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G'oziyev E., Mamedov K. Kasb psixologiyasi. - T.: O'zMU, 2003. 156-b
2. Yusupova F. I. O'quvchilar individual tayyorgarligini amalga oshirishning pedagogik-psixologik jihatlari. “Xalq ta'limi” jurnali. 2005. №5. 90-93-b..
3. Internet saytlari



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARNI INTELLEKTUAL RIVOJLANTIRISHDA INNOVASION YONDASHUV

Botirova Feruza Salaydinovna

Norin tumani 32- maktab oliy toifali
boshlangich ta'lim o'qituvchisi

Annatatsiya. Boshlang'ich sinf o'quvchilari yosh bo'lgani uchun ularga sodda tilda tushunarli holda bilim berish va darslarda o'yin elementlaridan foydalanish lozim. Bola hayotining asosiy qismi o'yin bilan o'tadi.

Kalit so'zlar: intellektual, o'yinlar, bola.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari yosh bo'lgani uchun ularga sodda tilda tushunarli holda bilim berish va darslarda o'yin elementlaridan foydalanish lozim. Bola hayotining asosiy qismi o'yin bilan o'tadi. O'yinlar faqat didaktik vosita bo'lmay, bola hayotining asosiy shaklidir. Shuning uchun biz o'yinning nozik tomonlarini egallamay turib, o'yin faoliyatini boshqarishini o'rganmay turib oldimizda turgan mas'uliyatli vositalarni hal qila olmaymiz. “Baxtli tasodif”, “Zakovot” va boshqa shu kabi intellektual o'yinlar o'quvchilarni aqlini charxlaydi va ularda aqliy rivojlanish xosil bo'ladi. Ma'lumotlar – o'quv ishlarida bilish tavsifiga ega, lekin, eng avvalo darsdan tashqaridagi ishlarda u muhim tarkibiy qismdir. Qoidaga ko'ra, ular o'quvchidan jumboqni yechishni, topishmoqni topishni, eng asosiysi – predmetni bilishni talab qiladi. Didaktik o'yin qanchalik mahoratli tuzilgan bo'lsa, didaktik maqsad shunchalik mohirona yashiringan bo'ladi. O'yinda joylashtirilgan bilimlarni o'quvchi o'zi bilmagan holda, beixtiyoriy ravishda, o'ynab turib o'zlashtiradi. Intellektual iqtidor odatda maxsus testlar yordamida intellektual ko'rsatkich (IQ) ko'rinishda aniqlanadi. Zehn-zakovat saviyasi yuqori darajada rivojlangan kishilar faoliyatni o'ta nozik did, donolik bilan bajaradilar, fanda qilingan yangiliklari bilan nom qozonadilar. Ijodiy qobiliyatlarga nisbatan esa ikki xil, bir-birini inkor etmaydigan yondashuvlar bor. Birinchi yondashuvda ijodiylik qobiliyat deb tasavvur qilinsa, ikkinchi bir yondashuvda ijodiylik shaxs xislati sifatida qaraladi va shu sababli har qanday yoshda, har qanday kasb-korda namoyon bo'ladi. Akademik qobiliyatga ega bo'lganlar esa ta'limda ko'proq natijalarga erisha oladilar. Ular nazariy bilimlarni keng doirada, yengil o'zlashtira oladilar, o'ziga xos tafakkur va mustahkam xotiraga ega bo'ladilar. Akademik qobiliyatlarni aniqlash uchun odatda, maxsus standartlashtirilgan bilim testlaridan foydalaniladi.

Yangi davlat ta'lim standartlari va umumiy o'rta ta'lim o'quv dasturlarini, shu jumladan STEAM (S - fan, T - texnologiya, E - muhandislik, A - san'at, M - matematika) - ilm-fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematikani birlashtiruvchi zamonaviy yondashuv) usulini bosqichma-bosqich joriy etish va takomillashtirish ko'zlangan.

Xalq ta'limi muassasalari ilg'or jahon tajribasiga tayanib, ta'lim sifatini takomillashtiradilar. Respublikaning quyidagilarda ishtirok etishi bunda yordam beradi:

- PISA o'quvchilarning o'qishdagi yutuqlarini baholash bo'yicha xalqaro dasturda (15–16 yashar o'quvchilarning matematik savodxonligi, o'qish va tabiatshunoslik sohasidagi savodxonligini baholash);

- TIMSS maktabdagi matematika va tabiiy fanlar sohasidagi ta'lim sifatining xalqaro tadqiqotida (4 va 8-sinflar o'quvchilarining matematika va tabiiy fanlar sohasidagi savodxonligini baholash);

- PIRLS matnni o'qish va tushunish sifatining xalqaro tadqiqotida (boshlang'ich maktab o'quvchilarining matnni o'qish hamda tushunish darajasi va sifatini baholash).

Bundan tashqari, mamlakatimiz TALIS o'qitish va o'qish tizimining xalqaro tadqiqotida (o'qituvchilarning mehnat sharoiti va maktablardagi ta'lim muhitini baholash) qatnashadi. Didaktik o'yinlarning boshlang'ich sinf o'quvchilari fikrlash qobiliyatini rivojlantirishdagi imkoniyatlari. Ta'lim jarayonida uyushtiriladigan didaktik o'yinlar ham o'quvchilar tafakkurini rivojlantirish vositasi sanaladi. Didaktik o'yinlarga dam olish yoki vaqt o'tkazish vositasi deb qaramay, unga ta'lim beruvchi faoliyat deb qarash lozimdir. O'yinlar mazmuni va amalga oshirish shakliga ko'ra sinflarga ajratiladi. Quyida boshlang'ich sinf ona tili darslarida uyush-tiriladigan didaktik o'yinlar va ularning mustaqil fikrlash bilan bog'liq o'ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritamiz. Muvaffaqiyatga erishish uchun, o'z faoliyat sohasida har doim yangiliklarni izlash kerak. Yangi bilimlarga intilish, yangi malakalarga ega bo'lish. Qancha ko'proq o'rgansangiz, strategiya ishlab



chiqishingiz va muhim qarorlar qabul qilishingiz shuncha osonroq bo‘ladi. Bilim olish o‘zingizga bo‘lgan ishonchni oshiradi, jarayonga aql bilan yondashishga yordam beradi. Buning uchun boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchisi o‘quvchilarni intellektual salohiyatini o‘stirishda turli didaktik o‘yinlar bilan o‘quvchilarni darsga qiziqitira olish kerak.

«O‘zim tekshiraman». Bunday o‘yinlarni o‘tkazishda kichik hajmdagi diktant matni tanlanadi va u darsning kirish qismida uyushtiriladi. O‘qituvchi o‘quvchilarga kichik hajmdagi diktant yozdiradi. Barcha o‘quvchilar yozib bo‘lishgach, o‘qituvchi xattaxtaga diktantni yozib ko‘rsatadi. Mabodo diktant oldin xattaxtaga yozilib, usti yopib qo‘yilgan bo‘lsa, o‘qituvchi pardani ochadi. O‘quvchilar esa unga qarab o‘zlari yozgan diktantni tekshiradilar. Bunday diktantlarni hatto alifbe davrida ham qo‘llash mumkin bo‘lib, o‘qituvchi avvaliga faqat harflardan, so‘ngra (undosh harflar bilan tanishtirilgach) bo‘g‘inlardan iborat quyidagicha turli variantlarda diktant yozdirsa, o‘quvchilarning o‘quv-biluv malakalari shakllana boradi.

1-variant: O,o, I,i, U,u, A,a, o‘,o‘ . 2-variant: -Lo, -no, -to, -mi, -un, -in.

3-variant: Bola, lola, ona, zar, par.

4-variant: Bugun havo issiq.

«Topag‘on». O‘qituvchi biror belgi asosida savol beradi. O‘quvchilar shu belgini o‘zida aks ettirgan predmetlar nomlarini aytadilar. Eng ko‘p to‘g‘ri javob topgan o‘quvchilar g‘olib sanaladi. Bu o‘yinni o‘tkazish o‘quvchilarga so‘z turkumlari haqidagi dastlabki ma‘lumotlar berish jarayonini yengillashtiradi. Bundan tashqari, hozirjavoblik, mustaqillik, ziyraklik, ijodkorlik kabi sifatlarni shakllantiradi. Savol: Nima oq rangda? Javob: qog‘oz, daftar, bulut, parda, qor, buvimning sochlari.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat – T., 2006.
2. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari – T.: 2006. – 260 b.



MATEMATIKANI O'QITISHNING INNOVATSION VOSITALARI

Egamberdiyeva Muqaddas, Aminova Ilmira

Xorazm viloyati Xonqa tumani
10-umumiy o'rta ta'lim maktabining
matematika o'qituvchilari

Annoatsiya: Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida matematika fanini o'qitishning ayrim metodik jihatlar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: metodika, matematika, dars, tenglama, jihatlari, EHM.

Shiddatli axboratlashuv jarayoni amalga oshib borayotgan hozirgi davrda har bir soha kishisi zamon bilan hamnafas ravishda innovatsion texnologiyalarga, innovatsion vositalarga murojaat qilishiga to'g'ri kelmoqda shu jumladan matematika fani ham bunday oqimdan chetda qolayotgani yo'q. O'zbekiston Respublikasi taraqqiyotida xalqning boy ma'naviy salohiyati va umuminsoniy qadriyatlarga hamda hozirgi zamon madaniyati, iqtisodiyoti, ilmi, texnikasi va texnologiyasining so'nggi yutuqlariga asoslangan mukammal ta'lim tizimini barpo etish dolzarb ahamiyatga ega. Ma'lumki, kadrlar tayyorlash milliy dasturida ilg'or pedagogic texnologiyalarni joriy qilish va o'zlashtirish zarurligi ko'p marta takrorlanib yangi pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanib, talabalarni o'qitishni jadallashtirish ko'zda tutilgan.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonini EHM siz tasavvur qilish qiyin. Allaqachon kompyuter o'qituvchi uchun ham talaba uchun ham asosiy vositaga aylanib ulgurgan. Kompyuterning afzallik taraflari anchagina. Uning yordamida elektron darslik va juda katta hajmli ma'lumotlarni ihcham holatda saqlash va foydalanish imkoniyati mavjud. Kamchiligi nurlanish tufayli inson salomatligi uchun zararlidir.

Doska-stend — mashg'ulotlarda o'quv munozaralari, aqliy hujum, guruh ishlari va boshqa muhokamalar natijalarini xujjatlashtirishda foydalaniladigan o'qitishning texnik vositasidir. Bunda stendga o'sha kattalikdagi qog'oz qo'yiladi va unga turli rangdagi hamda shakldagi kartochkalar yopishtiriladi. Mashg'ulot vaqtida stendda mazkur kartochkalar yordamida sxemalar, tuzilmalar, sharhlar va shu kabilarni tuzish mumkin. Shuningdek doska-stend bilan ishlaganda qisqa vaqt ichida barcha tinglovchilarning fikr-mulohazalari va g'oyalarini qamrab olish va qayd etish imkoniyatiga ega bo'linadi.

Hozirgi vaqtda ilmiy-texnika taraqqiyoti asrida matematika muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun keyingi o'n yilliklarda maktab matematikasini bir necha marta dasturiga o'zgarishlar kiritildi. Yangi DTS va dastur bo'yicha matematikadan yangi metodik sistema ishlab chiqildi. Matematika o'qitish metodikasi eng avvalo kichik yoshdagi o'quvchilarni umumiy sistemada o'qitish va tarbiyalash vazifasini qo'yadi. Umumiy metodika boshlang'ich sinf matematikasining mazmunini va tuzilishini ochib beradi, har bir bo'limni o'qitishning o'ziga xos xususiy metodlarini o'rgatadi. Xususiy metodika matematika o'qitishning asoslangan metodlarini va o'qitish formalarini, shuningdek, o'quv faoliyatlarini tashkil qilish yo'llarini ko'rsatadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarda matematika o'qitishning maqsadi quyidagi uch omil bilan belgilanadi:

1. Matematika o'qitishning umum ta'limiy maqsadi.
2. Matematika o'qitishning tarbiyaviy maqsadi.
3. Matematika o'qitishning amaliy maqsadi.

1. Matematika o'qitishning umumta'limiy maqsadi o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi:

a) o'quvchilarga ma'lum bir dastur asosida matematik bilimlar tizimini berish. Bu bilimlar tizimi matematika fani to'g'risida o'quvchilarga yetarli darajada ma'lumot berishi, ularni matematika fanining yuqori bo'limlarini o'rganishga tayyorlashi kerak. Bundan tashqari, dastur asosida o'quvchilar o'qish jarayonida olgan bilimlarining ishonchli ekanligini tekshira bilishga o'rganishlari, ya'ni isbotlash va nazorat qilishning asosiy metodlarini egallashlari kerak;

b) o'quvchilarning og'zaki va yozma matematik bilimlarini tarkib toptirish. Matematikani o'rganish o'quvchilarning o'z ona tillarida xatosiz so'zlash, o'z fikrini aniq, ravshan va lo'nda qilib bayon eta bilish malakalarini o'zlashtirishlariga yordam berishi kerak. Bu degan so'z o'quvchilarning har bir matematik qoidani o'z ona tillarida to'g'ri gapira olishlariga erishish hamda ularni ana shu qoidaning matematik ifodasini formulalar yordamida to'g'ri yoza olish



qobiliyatlarini atroflicha shakllantirish demakdir;

d) o‘quvchilarni matematik qonuniyatlar asosida real haqiqatlamini bilishga o‘rgatish. Bu yerda o‘quvchilarga real olamda yuz beradigan eng sodda hodisalardan tortib to murakkab hodisalargacha hammasining fazoviy formalari va ular orasidagi miqdoriy munosabatlarni tushunishga imkon beradigan hajmda bilimlar berish ko‘zda tutiladi.

Matematika darslarida boshqa fanlardan foydalanish masalasini dasturda aniq ko‘rsatish qiyin, buni o‘qituvchining o‘zi amalga oshiradi, ya’ni o‘quv materialini rejalashtirishda va darsga tayyorlanish vaqtida e’tiborga olishi kerak. Masalan, tenglamalarni o‘rganish davrida fizik miqdorlar orasidagi bog‘lanishlarni aks ettiradigan tenglamalarni, ya’ni issiqlik balansi tenglamasi, issiqlikdan chiziqli kengayish tenglamalarni ham yechtirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jumayev.M.E. Matematika o‘qitish metodikasidan praktikum. Toshkent. 2004.
2. www. Ziyonet. uz



BOSHLANG'ICH SINFD A O'QISH DARSLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI

Egamova Kamalat Baxtiyarovna

Xorazm viloyati Bog'ot tumani
28-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda o'qish metodikasi adabiy ta'lim metodikasi sifatida ish ko'rishi lozimligi, boshlang'ich sinfd a o'qish adabiyot o'qitish sistematik kursiga tayyorlovchi predmet sifatida o'qitilishi, metodika bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisini adabiy ta'limning mazmuniga va uni o'qitishga mustaqil ongli yondasha oladigan, o'zgalarning tajribasini nafaqat o'rganib olmasdan, balki ular faoliyatining natijalarini ongli ravishda tahlil qilib, to'g'ri xulosa chiqara biladigan bo'lishlari xususida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: adabiy ta'lim, adabiy tahlil va talqin, didaktik qoida, deduksiya, induksiya, metodik sistema, pedagogic texnologiy, “Bumerang texnologiyasi”, “Arra” metodi.

Hozirgi kunda metodikadan boshlang'ich sinf o'qituvchilari aniq dalillangan, ilmiy asoslangan ko'rsatmalarni kutmoqda. Metodika bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisini adabiy ta'limning mazmuniga va uni o'qitishga mustaqil ongli yondasha oladigan, o'zgalarning tajribasini na faqat o'rganib olmasgan, balki ular faoliyatining natijalarini ongli ravishda tahlil qilib, to'g'ri xulosa chiqara biladigan bo'lishlarini ta'minlaydi.

M. A. Ribnikova metodikaning asosi sifatida 4ta didaktik qoidani keltiradi:

1. Ta'lim o'quvchilarning anglashlariga har tomonlama ta'sir etuvchi xarakterda bo'lishi.
2. O'quvchilar oldilariga qo'yilgan masalani aniq tushunishlari.
3. Metodist yangi murakkab hodisalarni tanish hodisalardek oson ko'rsata olishi mahoratiga ega bo'lishi.
4. Deduksiyani induksiya bilan bog'lashi.

M. A. Ribnikova bu metodik sistemaga jonli jarayon sifatida qaraydi va asosiy diqqatni metodik sistemaga qaratish lozimligini ta'kidlaydi.

Bu qarashlar boshlang'ich sinf o'qish darslarida o'rganilayotgan adabiy-badiiy asarlar tahlili va talqiniga yangicha yondashish lozimligini taqozo etmoqmoda. Asar tahlilini bosqichli izchillik asosida olib borish o'quvchilarning o'quv faoliyatini aniq vaqsadga yo'naltirish imkonini beradi.

“Arra” metodida o'rganilayotgan badiiy matn tarkibiy qismlarga ajratiladi. Bu texnologiya 4-sinfd a “O'qish kitobi” darsligiga kiritilgan barcha asarlarni o'rganishga tadbiiq etilishi mimkin. Masalan, **“Shaxzodaning bolaligi”** hikoyasi o'rganiladigan darsda asar dastlab audiodan eshittiriladi. Asar 4 qismga bo'linadi. Sinf o'quvchilari ham 4ta kichik guruhga bo'linadi. Har bir guruhga o'qiydagin qismi belgilab ko'rsatiladi. Har bir guruh uchun bir xil topshiriq beriladi:

1-topshiriq. *O'qigan qismlarining mazmunini to'liq gapirib berishga tayyorlanish.* (Guruhning har bir o'quvchisi bu topshiriqni bajarishga tayyorlanadi)

So'ngra guruhlar qayta tashkil qilinadi. Har bir guruhda oldingi guruhdagi bitta mutaxassis o'quvchi bo'ladi. Ular arra tishlari ketma-ketligida mavzuni - asar mazmuni mantiqiy ketma-ketlikda o'rtoqlariga hikoyalab beradi.

2-topshiriq: Har bir guruh asar yuzasidan berilgan quyidagi savollarga javob beradi:

1. Malika Kuzbor Malikka nima uchun o'g'li Jaloliddinni ayamadan tarbiya qilishni topshirdi?
2. Kuzbor Malikning Jaloloddinga chavandozlik sirlarini o'rgatishining sababini izohlang.
3. Kuzbor Malikning Jaloloddinga o'q otish sirlarini o'rgatishining sababini izohlang.
4. Asar nima uchun to'rt qismga bo'lindi?

3-topshiriq. Asar qahramonlariga baho berish yuzasidan berilgan quyidagi topshiriqlarni bajaradilar va taqdimotga chiqadilar:

1. Malika Oychechak qanday ayol ekan? Unga malika va ona sifatida baho bering.
2. Kuzbor Malik qanday chavadoz va mergan ekan? Malikning malika Oychechakka munosabatida qanday xususiyatlarini payqadingiz?
3. Jaloloddin Kuzbordan nimalarni o'rgandi? U qanday shahzoda bo'lib yetishdi? Siz Jaloliddin haqida yana nimalarni bilasiz?

4-topshiriq. Nutq madaniyatini egallashga qaratilgan topshiriqlar:

1. Kuzbor Malikning Malika Oychechakka ko'rsatgan ehtiromlarini ifodalagan so'z va



iboralarni aniqlab, lugʻat daftaringizga yozing va taqdimotga chiqing (*ehtirom ila bosh egdi, tiz choʻkdi, buyuring, sadoqat ila, “Siz buyuk Xorazmshoh rafiqasi, men qulingizman, eʼtirozga ogʻiz juftlamochi boʻldi, bosh ustiga, taʼzim ila*).

2. Malika Oychechakning Kuzborga koʻrsatgan ehtiromini ifodalovchi soʻz va iboralarni aniqlab, lugʻat daftaringizga yozing va taqdimotga chiqing (*yonidan joy koʻrsatdi, ogʻa, oʻtiring, minnatdorchilik bilan unga qaradi, uni yuz-xotir qilmang*).

3. Malika Oychechakning onalik tilaklarini ifodalovchi soʻz va iboralarni aniqlab, lugʻat daftaringizga yozing va taqdimotga chiqing (*injiq-tantiq shahzoda boʻlmasin, chinakam bahodir yigit boʻlsin, alpyigit boʻlsin, zehni oʻtkir, Jaloliddin valiahd, bugundan shogirdingiz, oʻquvchingiz*).

Oʻquvchilar bu topshiriqlarni bajarish uchun asarni bir necha marta oʻqiydi, oʻqish koʻnikmalari takomillashadi. Asar mazmunini qayta hikoyalashda yuqorida aniqlagan soʻz va iboralarni nutqida qoʻllaydi, nutqi rivojlanadi.

Matn ustida ishlash tarbiyaviy xulosa chiqarish bilan yakunlanadi. Bunda asar qahramonlariga tavsif beriladi, bu orqali oʻquvchilar oʻzlariga hozirgi davr nuqtai nazari bilan yondashib tegishlicha xulosa chiqaradilar: har bir yigit ajdodlari kabi alp yigitlar, bahodir yigitlar boʻlib yetishishlari uchun harbiy bilimlarni egalamoqliklari kerak degan xulosaga keladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. K. Qosimova va b. Ona tili oʻqitish metodikasi. –T.: Noshir. 2009.
2. Matchonov S., Shojalilov A., Gʻulomova X. va b. Oʻqish kitobi. 4- sinf uchun darslik. –T.: Yangiyoʻl poligraf servis. 2020.
3. Bakiyeva H. Boshlsngʻich sinflarda soʻz ustida ishlash metodikasi. –T.: Istiqolol. 2013.



BOSHLANG'ICH TA'LIMDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Fayzullayeva Gulnoza

Navoiy viloyati, Qiziltepa tumani
15-umumiy o'rta ta'lim maktabi
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati yoritilgan bo'lib, unda pedagogik texnologiya atamasi va bir qancha usullar haqida so'z boradi.

Kalit so'z: Pedagogik texnologiya, ijodiy mashq, tovushli diktant, “O'ylab top”...

Barchamizga ma'lumki, ilmiy texnik taraqqiyot XX asr oxiriga kelib faqatgina ko'plab ishlab chiqarish sohalarini texnologiyalashtirishga sabab bo'lib qolmay, balki madaniyat sohasiga, bilimlar gumanitar sohalariga ham kirib keldi. Bugungi kunda biz endi axborot, tibbiyot texnologiyalari haqida gapiramiz, shu jumladan ta'lim sohasida ham.

“Pedagogik texnologiya” so'z birligi – bu inglizcha *“an educational technology”* – “ta'lim texnologiyasi” iborasining aniq bo'lmagan tarjimasidir. “Pedagogik texnologiya” tushunchasi oxirgi paytlarda o'qitish nazariyasida yanada kengroq qo'llanilmoqda.

“Pedagogik texnologiya” termini birinchi bor pedagogika bo'yicha ishlarda XX asrning 20-yillarida tilga olingan. Hozirgi kunda pedagogik texnologiya tushunchasida turlicha ifodalashlar mavjud.

1. Texnologiya – bu bir ishda, mahoratda, san'atda qo'llaniladigan uslublar to'plamidir (izohli lug'at).

2. Pedagogik texnologiya – bu o'qitish, tarbiyaviy vositalar, shakllari, metodlari, usul, uslublarining maxsus to'plami va tuzilishini belgilovchi psixologik-pedagogik ko'rsatmalar yig'indisi, u pedagogik jarayonning tashkiliy metodik quroli demakdir

3. Texnologiya – bu san'at, mahorat, moxirlik, ishlab chiqish metodlari to'plami, holatini o'zgartirishdir.


4. O'qitish texnologiyasi - bu o'quvchilar va o'qituvchilar uchun so'zsiz qulay sharoitlar yaratib berish uchun o'quv jarayonini loyihalashtirish, tashkil etish va olib borish bo'yicha har tomonlama o'ylab chiqilgan hamkorlikdagi pedagogik faoliyat modelidir.

Boshlang'ich ta'limda ham pedagogik texnologiyalar asosida darslarni tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi, Quyida boshlang'ich ta'lim darslarida qo'llash tavsiya etiladigan usullardan taqdim etmoqchiman.

“Ijodiy mashq” usuli. Ushbu usul o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, o'ziga xoslik masalaning mohiyatini chuqur anglash, uni bajarishga nisbatan yondashish, dalillarni saralash va o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni ijodiy bajarish jarayonida bilimlarni qo'llash va kengaytirish kabi holatlar bilan tavsiflanadi. Bunda o'qituvchi tomonidan turli vositalar yordamida yangi bilimlarni izlab topish, bilimlarning bir qismini tinglovchilarga, ma'lum qiladi qolganini esa o'quvchilar topshiriqlarni yechish jarayonida savollarga javoblar topish asosida o'zlashtiradi o'zlari bilimlarni mustaqil egallashadi.

O'qituvchi: O'quvchilarni masalaning mohiyatini o'rganishga jalb etadi; Masalani yechish rejasini aniqlashda mulohaza yuritishga yo'naltiradi; masalan bosqichlarga ajratadi; evristik suhbat ajratadi.

“O'ylab toping” usuli. Bu usul mustaqil ishlashda qo'llanadi. O'qituvchi tomonidan topshiriq beriladi va o'quvchilar mustaqil bajaradilar.




“Xatolarni topamiz” usuli

Tashkil etish tartibi. O'qituvchi bolalarga kartochkalarni yozilgan matnlarni o'qib beradi. O'quvchilar matnlarni diqqat bilan tinglab, qanday xatolar topganliklarini, to'g'ri yechimi qanday bo'lishi lozimligini tushuntirib berishlari lozim.

Masalan”Kuzda dehqonlar polizlarda olma, qovun, anor, behi kabi o'simliklarni yig'ib oladilar” O'quvchilar matnda yo'l qo'yilgan xatolarni topadilar, uni izohlab berishlari lozim.

“Bo'sh o'tirma, bosh qotir” usuli.
Qaysi juftlikda sonlar yig'indisi o'zaro teng

• 27	3
• 48	2
• 6	54
• 4	46
• 81	9



“Tovushli diktant” usuli.

O'tkazish tartibi. O'quvchilar daftarlariga so'zlarni yozib, yodlab olishlari kerak (*tovushlar orasidagi intervall-2 soniya*).

(Z), (I), (N), (A). (Z), (A), (N), (J), (I), (R). (I), (Ch), (A), (M), (I), (Z).

(B), (A), (N), (A), (N). (B), (A), (L), (A), (N), (D). (Z), (A), (N), (J), (I), (R).

(Yo), (Z), (A), (M), (I), (Z).

Xullas, ertangi kun mustaqil fikrleydigan kadrlarni talab etar ekan, bugungi kunda ustoz-shogirdlar zamon talabiga mos ravishda ilg'or pedagogik texnologiyalarni o'zining ish uslubiga qo'llashi, bu boradagi ishlarni davom ettirishi uchun muntazam o'z ishini nazorat qilib borishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shayakubov Sh.K., Ayupov R.X. Interfaol ta'lim usullari. – T., 2010-yil
2. MUHOFAZA+ jurnali. 2012-yil, 10-son
3. Internet saytlari.



О‘QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISHDA YANGI PEDAGOGIK TEXNALOGIYALARDAN FOYDALANISH

Haydarova Zarnigor

Navoiy viloyati Zarafshon shahridagi
3-maktab amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: O‘sib kelayotgan yosh avlodni kasbga yo‘naltirish hamisha davlatimiz, siyosatimiz oldida turgan ustuvor masalalardan sanalib kelingan. Maskur jarayonni amalga oshirish uchun farzandlarimizning ota-onalari hamda ta‘lim muassasalarining o‘rni va u yerda faoliyat olib borayotgan o‘qituvchilar hamda amaliyotchi psixologlarining faoliyati katta ahamiyatga ega. Kasb-hunarga yo‘naltirishdan maqsad o‘sib kelayotgan yosh avlodni ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlashdir. Ularni kasb-hunarga yo‘naltirish orqali bo‘lajak kasbiy qarorlarni shakllantirishdan iborat.

Kalit so‘zlar: shaxs, qobiliyat, qiziqish, o‘zini ifoda etish, kasb, maqsad, tajriba, yangi pedagogik texnologiya, improvizatsiya, to‘g‘ri kasb tanlash.

Har bir inson o‘z hayotida hurmat va shuhrat qozonishni, atrofda gilarining e‘tibori va e‘tirofida bo‘lishni, ularning qo‘llab-quvvatlashini, barchaning sevgisiga, muhabbatiga erishishni, shu bilan birga mustaqil hayot kechirishni xohlaydi. Sanab o‘tilganlarning barchasiga birvarakayiga erishishning yo‘li bor, u ham bo‘lsa qiziqishingiz va qobiliyatingizga mos bo‘lgan “qadrdon” kasbni tanlashdir. Kasbni tanlash, ayniqsa, qiziqish va qobiliyatga mos kasbni tanlash atrofda gilar ko‘z o‘ngida o‘zini ifoda etishni va hayotga o‘z o‘rni, qadr-qimmatini topishni xohlagan, imkoniyatlarini yuqori baholashga moyil bo‘lgan o‘quvchilarga xos jihaddir.

Kimki baliq tutish bilan shug‘ullangan bo‘lsa, bunday faoliyat uchun baliqchining o‘zi ham ma‘lum talablarga javob berishi zarurligi to‘g‘risida xabari bo‘ladi. Bu talablarga : baliq va uning fe‘l atvori haqidagi bilimlar; zarur uskuna va yaroqlar; ob-havo va muhitning holati haqidagi joriy axborotlar; paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan tasodiflarga tayyorgarlik; amaliy tajriba va boshqalar kiradi. Birgina baliq tutishga shuncha talab!

Kasb bizning yagona tiriklik manbaimiz ekan, unga qo‘yadigan talablarimizni qondirish uchun, biz ham qandaydir talablarga javob berishimiz zarur.

Bugungi kunda ta‘lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida asosiy bo‘g‘in hisoblangan umumiy o‘rta ta‘lim maktablari faoliyatida o‘quvchilarni hayotga tayyorlash va kasb tanlashga yo‘naltirish muhim vazifalardan hisoblanadi. Kasbga yo‘naltirishdan asosiy maqsad o‘sib kelayotgan yosh avlodni ongli va mustaqil ravishda kasb tanlashga tayyorlashdan iborat bo‘lib, bu jarayon shaxsning bo‘lg‘usi kasbiy faoliyat subekti sifatida shakllanishini nazarda tutadi hamda uning bozor iqtisodiyoti munosabatlari moslashib borishiga ko‘maklashadi.

Respublikamizda ta‘lim islohatlari bosqichma-bosqich amalga oshirib borilayotgan hozirgi davrda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablaridan va islohotning bosh maqsadidan kelib chiqqan holda, kasb-hunarga yo‘naltirish sohasida mavjud bo‘lgan ilmiy xulosalar va tavsiyalar hamda umumiy o‘rta ta‘lim maktablari o‘quvchilarini kasb-hunarga yo‘naltirish, xususan ulkan ummon bo‘lgan kasblar olami bilan tanishtirish usullarini yangilash zarurati yuzaga kelmoqda. Zero, umumta‘lim muassasalari o‘quvchilarini kasb-hunarga yo‘naltirish, ularning kasb-hunarni ongli ravishga va to‘g‘ri tanlashiga ko‘maklashish masalasi ta‘lim sohasida davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

Uzluksiz ta‘lim tizimi rivojlanishining hozirgi sharoitida o‘quvchilar bilan olib boriladigan kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarini takomillashtirish, ularni ongli kasb tanlashga kelgusidagi kasbini o‘zi belgilashga tayyorlash umumta‘lim maktablarining muhim vazifalaridan sanaladi.

Bugungi kunda o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish samarali natijalar beradi. Jumladan “Aqliy hujum”, “Bumerang”, “Tarozi”, “Yelpig‘ich”, “Kichik guruhlarda ishlash”, “Venn diagrammasi” “Sinkven” kabi pedagogik texnologiyalardan foydalanish tavsiya etiladi.

Skarabey texnologiyasi interaktiv texnologiya bo‘lib, u o‘quvchilarda fikriy bog‘liqlik, mantiq, xotiraning rivojlanishiga imkoniyat yaratadi va har qanday muammoni hal qilishda o‘z fikrini ochiq va erkin ifodalash mahoratini shakllantiradi. Ushbu texnologiya o‘quvchilarga mustaqil ravishda bilimning sifati va saviyasini xolis baholash, o‘rganilayotgan mavzu haqida tushuncha va



tasavvurlarni aniqlash imkonini beradi. Ushbu texnologiya o‘quvchilar tajribasidan foydalanishni ko‘zda tutadi va reaktiv kuzatishlarni amalga oshiradi, faol ijodiy izlash hamda fikriy tajriba o‘tkazish imkoniyatlariga ega bo‘ladi.

“Tarozi” texnologiyasini munozarali, murakkab mazmunli mavzularni o‘rganishda qo‘llash mumkin. U tanqidiy tafakkur, mantiq, ijodiy improvizatsiya, fikran tajribalarni rivojlanishga yo‘naltirilgan bo‘lib, o‘quvchini dalillash qobiliyatini rivojlantirish, o‘z dalillarini yozma va og‘zaki shaklda ishonchli va lo‘nda ifodalashni shakllantiradi, o‘z nuqtai nazarini himoya qilish, muxoliflarni ishonitirish munozara madaniyatini o‘rgatadi.

“Yelpig‘ich” texnologiyasi murakkab, ko‘p tarmoqli, mumkin qadar muammoli turidagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, uning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir yo‘la axborot beriladi. Ayni paytda, ularning har biri alohida nuqtalardan muhokama etiladi. Bu interaktiv texnologiya tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o‘z g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklini ixcham bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. Bu texnologiya umumiy mavzuning yarim tarmoqlarini muhokama qiluvchi kichik guruhlarining, har bir qatnashuvchining, guruhning faol ishlashiga qaratilgan.

O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish ishlari ta’lim-tarbiya bilan uzviy kechadigan, uning barcha qirralarini qamrab oladigan uzluksiz jarayondir.

Bunday hamkorlik o‘zib kelayotgan yosh avlodni ongli kasb tanlash, o‘z kasbiy istiqbolini belgilash hamda jamiyat ravnaqiga munosib hissa qo‘shish imkonini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Davletshin M.G. va boshqalar Yosh davrlari va pedagogik psixologiya: o‘quv metodik qo‘llanma. T.2004
2. Jalolov A. Kasb qanday tanlanadi T.2010
3. Anvarova D.M Kasbga yo‘naltirish va kasb tanlash asoslari T. 2016
4. Olimov Q.T Kasb ta’limi metodikasi T 2021



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARI ONGIGA MILLIY AN'ANALARNI SINGDIRISHNING AHAMIYATI

Hikmatova Gulobar

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani,
15-umumiy o'rta ta'lim maktabi
boshlan'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilari ongiga milliy an'analarni singdirishning ahamiyati haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: ilm, intellektual salohiyat, tadbirlar, tadbirkor, milliy qadriyat...



Mamlakatimiz kelajagi bo'lmish yoshlarni barkamol insonlar qilib tarbiyalashda ta'lim-tarbiyaning uzluksizligini ta'minlash va uni tizim shaklida tashkil etish asosiy masalalardan biridir. Shuningdek, boshlang'ich maktablarda tashkil etiladigan darsdan va sinfdan tashqari mashg'ulotlarga e'tiborni kuchaytirish bilan ham ta'lim va tarbiya jarayonining uzluksizligiga salmoqli hissa qo'shib boriladi. Darsdan va sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarning vazifasi faqat bolalarni band qilish emas, balki ancha murakkab, ya'ni ularning darslarda olgan bilimlarini mustahkamlash, milliy

qadriyatlarimizga nisbatan qiziqishini uyg'otish, qolaversa, ularning hayotini zavq va shavqqa to'ldirishdir. Xuddi dars jarayonida bo'lgani kabi tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda ham sinf o'qituvchisining vazifasi mas'uliyatli va ahamiyatlidir. Bu mas'uliyat ulardan doimiy ravishta o'z ustida ishlashni, ijodiy mehnatni talab qiladi.




O'quvchi kundalik ishlarining davomi sifatida sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarda bevosita ishtirok etadi, turli mazmundagi suhbatlar, savol-javoblarda qatnashadi, kechalarni tashkil qilishda ishtirok etadi, rollarni bajaradi, tinglaydi, qolaversa bular orqali ma'naviy dunyosi boyib boradi. Ayniqsa, ular bugungi kunda o'quvchilarning milliy merosimizga nisbatan qiziqishlarini o'stirish maqsadida tashkil qilinadi. Har qanday sinfdan tashqari mashg'ulot oldiga turli tarbiyaviy vazifalar qo'yiladi. Ularning har biri

o'zga xos belgilarni, bir-biridan farq qiluvchi shakllarni, vositalarni, ijodiy, mehnatni talab qiladi. Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar o'qituvchilarning yillik ish rejalarida aniq ko'rsatilgan, maqsad va vazifalari belgilangan bo'lishi lozim. Boshlang'ich sinflarda tashkil etiladigan tarbiyaviy tadbirlar o'quvchilar hayoti bilan ya'ni ularning maktab ostonasiga ilk qadam qo'ygan kunlaridan boshlanadi.






Mustaqillik bayrami, 2-sentabr, kuz bayrami, Konstitutsiya kuni, alifbo bayramlari, Yangi yil, harbiylar kuni, mashhur allomalarning tug‘ilgan kunlari, 8-mart, Navro‘z bayrami, gullar bayrami kabilar. Mana shunday tadbirlar bevosita o‘quvchilarda vatanga e’tiqodni tarbiyalash ishlari bilan bog‘liq holda olib boriladi. Bu tadbirlarga material tanlashda eng qimmatli manba bo‘lib milliy qadriyatlar namunalari hisoblanadi. Shuningdek, milliy o‘yinlar, turli usullar ham boshlang‘ich ta’limda muhim ahamiyat kasb etadi.




Krossvord yechish

1. Vatan. 2. Yurak. 3. Kerak. (Bunda shakl ham V ko‘rinishini oladi.)



“Qushlar-bizning do‘stimiz” usuli. Bunda qushlar nomi topiladi va tabiatga mehr tuhida tarbiyalanadi. Bu usul orqali o‘quvchilar ham qushlar nomini topadi va ular haqidagi bilimlarini ko‘rsatib beradi.



“Topag‘on” usuli.

Katakchalarni tepadan pastga qarab Bahor gullarining nomini ayting.



to‘g‘ri to‘ldirsangiz “ alla” so‘zi kelib chiqadi.

Xullas, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining faoliyatini tashkil qilishga yo‘naltirilgan sinfdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarning asosiy xususiyati - o‘quvchi kundalik hayotining namoyon bo‘lishidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M. Jumaboyev. Bolalar adabiyoti. T.: O‘qituvchi, 2004. 119-125-bet.
2. M. Jumaboyev. Bolalar adabiyoti va folklor. Toshkent. 2006-y.
3. Internet saytlari.



O'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISHDA OILA VA MAKTAB HAMKORLIGI

Ibragimova Gulchehra G'aybulloyevna

Buxoro viloyati, Vobkent tumani

23-IDUM amaliyotchi psixologi

e-mail: guliibragimova@inbox.uz

Annotatsiya: ushbu maqolada o'quvchilarni kasbga yo'naltirish va bu jarayonda maktab hamda ota-onaning roli xususidagi fikrlari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: kasb, ota-ona maqsadi, yo'naltirish usullari, pedagogika

Maktab, oila hamdo'stligi yosh avlodni yangi ruhda tarbiyalashning asosiy prinsipi hisoblanadi. O'quvchilarda professional qiziqishlarini rivojlantirish va tarkib toptirish, sanoat, qurilish, qishloq xo'jaligi xizmat ko'rsatish sohasi ishchi kasblariga ijtimoiy e'tiborning ortishi, xayot yo'lining ongli ravishda tanlash ishining muvaffaqiyati maktab, oila, mahalla va ishlab chiqarishning birgalikda olib borilgan samarali ishlariga bog'liq. Shaxsni tarbiyalash asoslari oiladan boshlanadi, ya'ni o'quvchilar ba'zi kasblar bilan, xususan o'z ota-onalari, akalari, opalari, qarindosh urug'larining kasblari bilan oilada tanisha boshlaydilar bu esa o'quvchilar professional qiziqishlarining rivojlanishiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilarning hamma ota-onalarini (ularni o'z bolalari bilan oilaviy kasb tanlashga yo'llash ishlarida aktiv ishtirok etish darajasiga qarab) taxminan 4 katigoriyaga bo'lish mumkin.

1. Ota-onalar bolalarining o'yinlari va mehnatini kuzatadilar, uyda bolalari qiziqqan har qanday ish bilan mashg'ul bo'lishlari uchun sharoit yaratib beradilar; bolalari bilan korxona, kallektivning mehnati haqida, o'z ishlab chiqarish muvoffaqiyatlari to'g'risida suhbatlashadilar; ularning qiziqishlari va qobiliyatlari va xalq xo'jaligi ehtiyojlarini hisobga olgan holda aniq maslahatlar beradilar.

2. Ota-onalar bolalari bilan kasb tanlash haqida suhbatlashadilar, lekin aktiv ta'sir ko'rsatmaydilar, o'z bolalarining individual hususiyatlarini har doim ham hisobga olavermaydilar.

3. Ota-onalar bolalarining rejalariga hadeb aralashaveradilar, ularning qiziqishlari, istak va imkoniyatlarini hisobga olmaydilar, kasbning moddiy va obroli tamonlaridan kelib chiqib o'zlari tanlagan ixtisosni egallashga majbur qiladilar.

4. Ota-onalar o'z balalarining kelajagiga passiv va sovuqqonlik bilan qaraydilar, ularga kasb tanlashga yordam bermaydilar, bu muammodan o'zlarining behabarligi va noto'g'ri maslahat berib qo'yishlaridan cho'chib, “o'zing ko'r”, “qaysi biri yaxshi bo'lsa shuni tanla” va hokazolar qabilida ish tutib, o'zlarni chetga tortadilar. Ko'pchilik ota-onalar kasb tanlashga yo'llash masalalari bo'yicha maslahatlariga muhtojdirlar. Ular bunday yordamni suhbat, konsultatsiya va boshqa tadbirlar formasida maktab pedagogika jamoasi, vrach, psixolog, korxona mutaxassislaridan olish mumkin. Maktab o'zining rejalashtirgan tadbirlariga muvofiq ravishda ota-onalar konferensiyasini uyushtirish va o'tkazish kerak. Bu konferensiyalarda korxona kadrlar bo'limlari, mehnat resurslaridan foydalanish bo'yicha bo'limlarning, viloyat xodimlari, turli xil kasblarning vakillari va o'quv yurtlarining rahbarlari hamda ota-onalar so'zga chiqishlari mumkin bo'ladi. Ular o'z kasblarining mazmuni haqida muvaffaqiyatli mehnat qilishi uchun qo'llaniladigan zarur bilim va malakalar hamda boshqa narsalar to'g'risida bu kasbni qayerda va qanday egallash va shu xususida qanday mahoratli bo'lish haqida; yoshlar duch keladigan qiyinchiliklar haqida va o'quvchilar bilan oilaviy suhbatlar uchun tavsiyalar haqida gapirib berishlari kerak. Buyuk mutafakkir olim Abu Ali Ibn Sino - Odamning yashashi uchun eng zarur narsa bu foydali mehnat jangi deb ta'kidlaydi. Uning fikricha, ota-onalar o'z bolalariga yoshligidan ma'lum bir kasb-hunar o'rgatishlari lozim. Bola kasb-hunarni ma'lum darajada o'zlashtirib bo'lgandan so'ng uni kasb-hunaridan foydalanishga, ya'ni halol mehnat bilan mustaqil hayot kechirishga o'rgatish kerak.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki o'quvchi yoshlarni mehnatga o'rgatmasdan turib jamiyat uchun barkamol shaxs etib tarbiyalash mumkin emas. Mehnat insonni barkamollikka va jamiyatda o'z o'rnini topishiga yordam beradi. Yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish va uning kasbiy qiziqishlarini aniqlash. Mehnat an'analari tayanchi sifatida yoshlarni hayotga ijtimoiy mehnat faoliyatida ishtirok etishga tayyorlash ham muhim ahamiyatga ega. Mehnat an'analari zamirida shaxsning axloqiy sifatleri mehnatsevarlik, yerga va tabiatga muxabbat, suvni isrof qilmaslik saxiylik,



o'zgalarning mehnatini qadrlash, mehnat baxt keltirishini anglashdir. Xalq tarbiyashunosligida mehnatsevarlik va kasb-hunarga doir g'oyalarni yosh avlodlarimiz ongiga singdirish xalq ommasining ilg'or mehnat, hunarmandchilik an'analariiga befarq qaramaslik zamon talablariga mos ma'lum tarbiya jarayonlarini tashkil etishdir. Psixolog olimlar esa kasb-hunarga yo'naltirishni o'sib kelayotgan har bir yosh avlod vakillarini o'z qarashlari va qiziqishlarini nazarda tutgan xolda kasb-hunar tanlashlariga yordam ko'rsatadigan psixologik-pedagogik va tibbiy chora-tadbirlar tizimini tushunishadi. Kasb-hunarga yo'naltirishning shaxsga nisbatan bo'lgan aspekti birinchi navbatda shaxs o'ziga ongli ravishda kasb-hunar tanlashi bilan bog'liqligida aks etadi. Shuning uchun, eng muxim vazifa, o'spirinda mustaqil qaror qabul qilish fazilatini shakllantirish va rivojlantirish, u o'zi uchun, uning qizishlari va kelajagini qanday tasavvur qila olishi va barcha jihatlarni inobatga olgan holda u yoki bu kasbni tanlashida o'z fikriga ega bo'lishini ta'minlashdan iborat.

Psixologlar tomonidan yuqorida keltirilgan gapga nisbatan shunday jumla keltiriladi: “Inson, avvalam bor, birinchi navbatda o'ziga quloq solmasa, u xech qachon hayotida muxim bo'lgan to'g'ri tanlovni amalga oshira olmaydi”, ya'ni inson, birinchi navbatda, biron bir, o'zi uchun muxim bo'lgan, shaxsiy tanloviga nisbatan bir qaror qabul qilishidan avval, o'ziga quloq solishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Boltaboyev S.A., Magdiyev O.SH., Sattorov V.N., Avazboyev O.I. “Mehnat va kasb ta'limi metodikasidan o'quv mashg'ulotlari”. Uslubiy qo'llanma. 2002.
2. Davlatov K. “Mehnat va kasb ta'limi, tarbiyasi hamda kasb tanlash nazariyasi va metodikasidan amaliy mashg'ulotlar”. Pedagogika instituti o'quvchilari uchun qo'llanma. – T.: «O'qituvchi», 1995.
3. Magzumov P.T., Antonov A.F. va boshqalar. “O'quvchilarni mehnat va kasb tanlashga tayyorlash”. - T.: «O'qituvchi», 1991.132-bet



TARBIYA FANINING NAZARIYASI

Jurayeva Nargiza Ibraximovna

Qo‘qon shahar 36-maktab

tarbiya fani o‘qituvchisi

e-mail: jurayevanargiz@inbox.uz

Annotatsiya: ushbu maqolada tarbiya fanining nazariyasi va uning o‘qitilishi, olimlarning tarbiya nazariyasini yaratishdagi roli, shakllanish tarixi xususidagi fikrlari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: tarbiya, fan maqsadi, o‘qitish usullari, pedagogika

Bizga ma‘lumki, xalq ta‘limi tizimida o‘quvchilarni kelajakka ishonch bilan ulg‘aytirish, barkamol inson etib tarbiyalash muhim masaladir. Shu ma‘noda hozirgi kunda tarbiya fani o‘quv dasturiga kiritilgan. Bu fanning asosiy maqsadi o‘quvchini to‘g‘ri yo‘naltirish va inson etib tarbiyalashdan iborat. Biz bugungi kunda o‘qitayotgan tarbiya fanining asoslari nimalardan iborat ekaniga e‘tiborimizni qaratamiz.

Tarbiya nazariyasi-pedagogika fanining bir qismi bo‘lib, tarbiyaviy jarayonning mazmuni, usuli va tashkil etish masalalarini o‘rganadi. Tarbiya nazariyasi markaziy Osiyo faylasuflarining va xalq pedagoglarining tarbiya borasida boy tajribalariga tayanadi. U o‘z qoidalarini asoslash uchun falsafa, sotsiologiya, etika, estetika, fiziologiya, psixologiya, fanlaridan foydalanadi. Tarbiya nazariyasi pedagogikaning tashqi bilimlari: pedagogikaning umumiy asoslari, ta‘lim nazariyasi, maktabshunoslik bilan uzviy bog‘langandir.

Tarbiya jarayonida kishining turli qobiliyatlari rivojlanadi, g‘oyaviy, ahloqiy, irodaviy estetik xislatlari shakllanadi, tabiatga, jamiyatga ilmiy qarashlar tizimi tarkib topadi, jismoniy rivojlanadi. Bola o‘sgan sari bu faoliyatlar takomillashadi, mutsaxkamlashadi. Tarbiya nazariyasi-pedagogika fanining bir qismi bo‘lib, tarbiyaviy jarayonning mazmuni, usuli va tashkil etish masalalarini o‘rganadi. Tarbiya nazariyasi markaziy Osiyo faylasuflarining va xalq pedagoglarining tarbiya borasida boy tajribalariga tayanadi. U o‘z qoidalarini asoslash uchun falsafa, sotsiologiya, etika, estetika, fiziologiya, psixologiya, fanlaridan foydalanadi. Tarbiya nazariyasi pedagogikaning tashqi bilimlari: pedagogikaning umumiy asoslari, ta‘lim nazariyasi, maktabshunoslik bilan uzviy bog‘langandir.

Tarbiya jarayonida kishining turli qobiliyatlari rivojlanadi, g‘oyaviy, ahloqiy, irodaviy estetik xislatlari shakllanadi, tabiatga, jamiyatga ilmiy qarashlar tizimi tarkib topadi, jismoniy rivojlanadi. Bola o‘sgan sari bu faoliyatlar takomillashadi, mutsaxkamlashadi. Tarbiya qoidalari pedagogik ta‘lim va tarbiya jarayonini yaxshiroq tashkil etish maqsadida foydalanaladigan boshlang‘ich holat, rahbarlik asosidir. Ta‘lim qoidalari o‘qituvchi, tarbiyachilarga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi qoidalar hisoblanadi, yangi kishini shakllantirish vazifalari bilan belgilanadi. Tarbiya qoidalari sharq va markaziy Osiyo faylasuf donishmandlarining fikrlari va milliy pedagogikada erishgan yutuqlarga asoslanadi. Tarbiyaning mazmuni, tashkil etishi, usullari va ularga qo‘yiladigan talablar shu qoidalarda o‘z ifodasini topadi. Tarbiya qoidalari pedagogik ta‘lim va tarbiya jarayonini yaxshiroq tashkil etish maqsadida foydalanaladigan boshlang‘ich holat, rahbarlik asosidir. Ta‘lim qoidalari o‘qituvchi, tarbiyachilarga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi qoidalar hisoblanadi, yangi kishini shakllantirish vazifalari bilan belgilanadi. Tarbiya qoidalari sharq va markaziy Osiyo faylasuf donishmandlarining fikrlari va milliy pedagogikada erishgan yutuqlarga asoslanadi. Tarbiyaning mazmuni, tashkil etishi, usullari va ularga qo‘yiladigan talablar shu qoidalarda o‘z ifodasini topadi. Tarbiya qoidalariga quyidagilarni kiritish mumkin: tarbiyaning ma‘lum maqsadga qaratilganligi -tarbiyaning insonparvarligi va demokratligi -tarbiyaning hayot va mehnat bilan bog‘liqligi -tarbiyada milliy madaniy va umuminsoniy qadriyatlarining utsivorligi –o‘qituvchining yoshini va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish -izchillik, tizimchilik, uzluksizligi. Tarbiya qoidalariga quyidagilarni kiritish mumkin: -tarbiyaning ma‘lum maqsadga qaratilganligi -tarbiyaning insonparvarligi va demokratligi -tarbiyaning hayot va mehnat bilan bog‘liqligi -tarbiyada milliy madaniy va umuminsoniy qadriyatlarining utsivorligi –o‘qituvchining yoshini va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish -izchillik, tizimchilik, uzluksizligi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. D.Kenjaev, N.Ismatova. Tarbiya. O‘zbekiston.2020.-118 b
2. arxiz.uz



BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QISH DARSLARIDA MATN USTIDA ISHLASH METODIKASI

Jumaboyeva Mohinur Maqsud qizi

Shovot tumani 31-son maktab o‘qituvchisi

Telefon: +998 (97) 790 23 61

jumaboyevamohinur_3131@inbox.uz

Yangiboyeva Madina Oybek qizi

Urganch tumani 27-son maktab o‘qituvchisi

Telefon: + 998 (97) 458 85 55

madina.yangiboyeva_8555@inbox.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolad boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida matn ustida ishlash metodikasi haqida.

Kalit so‘zlar: Boshlang‘ich sinf, o‘qish darsi, matn ustida ishlash, so‘z boyligi.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlari, islohotlar, mamlakatimiz iqtisodiy qudrati oshib borish natijasida jamiyat ijtimoiy sohasining markaziy bo‘g‘ini hisoblangan xalq ta‘limida ham tub islohotlar ro‘y bermoqda. Zero, “...Xalq ta‘limini tubdan isloh qilish, mazkur dasturni amalga oshirish bizdan nihoyatda katta kuch, mablag‘ va imkoniyat talab

qilmoqda. Lekin, istiqbolimiz, istiqbolimiz ko‘zi bilan qaraganda, ham iqtisod, ham siyosat, ham ma‘naviyat nuqtai nazaridan bu sarf-xarajatlarga nazar tashlasak, undan keladigan manfaat har qanday xarajatlarni qoplashi va oqlashi muqarrar”. Bunda boshlang‘ich sinflarda o‘tiladigan o‘qish fani muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘qish darslarida o‘quvchilar nutqini o‘stirish vositalaridan biri to‘g‘ri uyushtirilgan qayta hikoyalashdir va unung to‘liq, qisqartirib, tanlab va ijodiy qayta hikoya qilish turlari mavjud. O‘quvchi o‘qilgan asar mazmunini o‘qituvchi savoli yordamida aytib berishida faqat analizdan emas, sintezdan ham foydalanadi: ayrim faktlarni o‘zaro bog‘laydi (sintezlaydi), bir-biriga taqqoslaydi, ular yuzasidan muhokama yuritadi va xulosa chiqaradi.

O‘quvchi asarda qatnashuvchilarning xatti-harakatini qanchalik aniq ko‘z oldiga keltira olsa, u hikoyaning asosiy mazmunini shunchalik chuqur tushunadi, shunchalik mustaqil qayta hikoya qilib beradi. Sinfdan tashqari o‘qish mashg‘ulotlarida va unga ma‘lum bir o‘zgartirishlar kiritishda yangi pedagogik texno logiyalardan foydalanishning samarali usullarini shakllantirish bugungi kunda dolzarb hisoblanadi. O‘qish dasturlarida badiiy asarni tahlil qilishga ko‘proq ahamiyat berilib, matn ustida ishlash yuzasidan xilma-xil topshiriqlar turlaridan, texnika vositalaridan foydalanishga ko‘proq e‘tibor berildi. Badiiy asar quyidagi muhim metodik qoidalar asosida tahlil qilinadi: Asar mazmunini tahlil qilish va to‘g‘ri, tez, ongli, ifodali o‘qish malakasini shakllantirish bir jarayonda boradi. Asarning g‘oyaviy-tematik asoslarini uning obrazlari, sujet chizig‘i, qurilish va tasviriy vositalarini tushuntirish o‘quvchilarning shaxs sifatida umumiy kamol topishiga, bog‘lanishli nutqning o‘shirishini ta‘minlaydi. O‘quvchilarning hayotiy tajribasiga tayanish asar mazmunini ongli idrok etishning asosi va uni tahlil qilishning zaruriy sharti hisoblanadi.

O‘qish o‘quvchilarning bilish faoliyatini aktivlashtirish va atrof muhit haqidagi bilimlarni kengaytirish vositasi hisoblanadi. Turli janrdagi badiiy asarlar qurilishi, uslubi jihatidan o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ularning o‘quvchilarga ta‘siri ham har xil bo‘ladi. Tabiiyki, har bir janrga oid asar matni lingvistik jihatdan ham o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Masalan, she‘riy asarlar matni hikoya matnidan, ertak matni she‘r matnidan, ilmiy-ommabop maqola matni masal janriga taaluqli asarlar matnidan tubdan farq qiladi. Shunga ko‘ra, turli janrdagi badiiy asarlarni o‘qishda o‘qituvchidan unga mos usullar tanlash talab etiladi. Asarni tahlil qilishning metodik shartlaridan biri asar mazmunini uning tasviriy-ifodali vositalari bilan bog‘liq holda qarashdir. Yana bir asosiy qoida asar ustida ishlash jarayonida ta‘lim-tarbiyaviy vazifalarni umumiy ravishda amalga oshirish hisoblanadi. Bu qoidalar asar ustida ishlashning asosiy yo‘nalishini belgilaydi, shuningdek, matnni tahlil qilish jarayonida o‘quvchilar bajaradigan topshiriqlarni va muhokama qilish uchun ularga beriladigan savollarning harakterini aniqlab olishga yordam beradi. Asar tahlili jarayonida matn ustida ishlashning turli xil metodlaridan foydalaniladi: O‘qishdan oldin, o‘qish jarayonida va o‘qishdan keyin.

Shunday qilib, badiiy asar matnini tahlil qilishda, umuman, badiiy asarlarni o‘rganishda



o‘quvchi shaxsiga kuchli ta’sir qiluvchi, ularning saviyasiga mos, bilimlarning o‘zlashtirilishini ta’minlovchi metod va usullardan, tahlil turlaridan foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Karimov I. A. “Barkamol avlod - O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori”, T., 1998-yil.
2. Mardanov D. Maktabda kasbga yû’naltirish ishlari. -Nukus. 2013.



BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QUVCHILARI BILAN O'TKAZILADIGAN DARSLARDA DIDAKTIK O'YINLARNING AHAMIYATI

Jumaniyazova Moxira, Xayitboyeva Svetlona

Xorazm viloyati Xonqa tumani
10-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi
boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchilar bilan dars jarayonlarini o'yinlar asosida tashkil etishning ayrim jihatlarini haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: pedagogika, o'yin, didaktika, dars, o'quvchilar, topqirlik, zukkolik.

Pedagogikada bolalar o'yini o'zida kattalar harakati va ular o'rtasidagi munosabatlarni aks ettiruvchi tarixan tarkib topgan faoliyat turi sifatida baholanadi. O'yin buyumli va ijtimoiy voqelikda harakat qilish va uni anglash ishiga yo'naltirilgandir. U o'zining kelib chiqishiga ko'ra ham, yo'nalishi va mazmuniga ko'ra ham ijtimoiy voqelik hisoblanadi.

Bolalar o'yinlari o'zining rang-barangligi bilan ajralib turadi. Ular o'z mazmuni va tashkil etilishiga ko'ra, bolalarga ta'sir ko'rsatish darajasiga ko'ra, qo'llaniladigan buyumlarning turlariga, kelib chiqishiga ko'ra turlichadir. Bularning barchasi bolalar o'yinlarini turkumlashtirishni favqulodda qiyinlashtiradi, biroq, o'yinlarga to'g'ri rahbarlik qilish uchun ularni, albatta, guruhlash zarur. Pedagogikada o'yinlarni ikki katta guruhga bo'lish juda keng tarqalgan: ijodiy o'yinlar va qoidali o'yinlar. Qoidali o'yinlar kattalar tomonidan yaratiladi va bola hayotiga olib kiriladi. Mazmuni qoidalarining murakkabligiga qarab, ular turli yoshdagi bolalarga mo'ljallangan bo'ladi. Tayyor qoidali o'yinlarning katta guruhni xalq o'yinlari tashkil etadi, ularning ko'plari avloddan avlodga o'tib, bizga yetib kelgan.

O'yin - bu bola faoliyatining turi. Shunday ekan, barcha faoliyatda bo'lgani kabi unga ham qator hislatlar: maqsadning mavjudligi, sabablar, amalga oshirish vositalarining rejali harakatlar, natijaning mavjudligi kabilar xosdir. Har qanday ko'rinishdagi o'yin tushunib olingan va maqsadga qaratilgan faoliyat tarzida kechadi. Har bir o'yinda bola uchun ahamiyatli bo'lgan maqsad mavjud: qizchasini ovqatlantirish, kosmosga uchish, quvlashmachoq o'ynayotganda o'yin qatnashchisiga qo'l tekkizish, “qopqondan” qutulib chiqish va hokazolar.

Bola o'yin mavzusi va mazmunini kelisha oladigan, rollarni taqsimlaydigan, o'z o'yin faoliyatini muayyan darajada rejalashtiradi. Boshqa faoliyat turlarida bo'lgani kabi o'yin jarayoniga bolaning butun shaxsiyati, uning psixik bilish jarayonlari, irodasi, hissiyoti va ta'sirchanligi, ehtiyoj va qiziqishlari jalb etiladi. O'yinda bola faol harakat qiladi, gapiradi, o'z bilimlarini qo'llaydi. O'yin o'ziga xos xususiyatlarga ham ega. Ular orasida sabablarning o'ziga xosligi asosiy hisoblanadi. O'yin - bu bolaning shaxsiy tashabbusiga ko'ra vujudga keladigan, o'zining faol ijodiy yo'sindagi, yuksak ta'sirchanlik ruhi bilan ajralib turadigan erkin va mustaqil faoliyati sifatida bola shaxsining tarkib topish darajasiga ko'ra kechadi. Bolalarning o'yindagi erkinligi va mustaqilligi shundaki, o'yinda amaliy ehtiyojlarga qaram bo'lmaydi, u o'zining bevosita ehtiyoj va qiziqishlaridan kelib chiqadi. Bola o'yindan zavq olish maqsadida foydalanadi. Bola o'yinining asosiy sababi “voqelikning uning uchun ahamiyatli bo'lgan tomonlarini boshdan kechirish” hisoblanadi.

Haqiqiy o'yin doimo tashabbus, topqirlik, zukkolik bilan bog'liqdir. O'yinda bolaning tafakkuri va xayoloti faol ishlaydi. O'yin bola uchun ermak, quvonch manbaigina emas, uning diqqati, xotirasi, ijodiy tafakkuri va tasavvurini o'stirishga xizmat qiladigan vosita hamdir. Bola hayotida o'yin uning harakatga, ishga, atrofdagi hayot taassurotlarini tushunishga bo'lgan intilishini qondiradigan muhim faoliyat turidir. Talab darajasida rivojlanayotgan bola ko'p harakat qiladi va ishtiyoq bilan o'ynaydi. O'yinni bolalar hayotini tashkil etishning forma va ko'rinishlaridan biri deb bejizga aytishmaydi. O'yin bola hayotini qiziqarli mazmun bilan to'ldiradi, uning xulq - atvorini shakllantirib boradi. Ko'p va diqqat bilan o'ynaydigan bolalar kamroq sho'xlik qilishadi, barcha bilan muloqotga kirisha oladigan, tartibli va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lib ulg'ayadi. Jozibali o'yin ta'sirida bolaning qanchalik o'zgarib ketishiga bir nazar tashlang-a, kamgap bola ko'p gapiradigan, odamovi bola dilkash, qo'rs bola xushmuomila bo'lib qoladi. Tinib - tinchimas bola o'yinga berilganda boshqa hollarda bajara olmagan ishlarni o'yin jarayonida osonlik bilan amalga oshiradi. O'yin jarayonidagi muloqotlar bolalar uchun xulq - atvor normalarining amaliy maktabi bo'lishga erishishimiz kerak. Bunda ular o'yin harakatlarida nima yaxshi-yu nima yomonligini,



vijdonan, adolatli, o'rtoqlarcha ish tutish nima, u qanday ekanligini anglab yetishlariga yordam beradi. O'yinlarni shunday tashkil etish kerakki, bunda soddalikdan asta sekin murakkablikka o'tish qoidalariga rioya etish kerak. Vaqti-vaqti bilan o'yin turlarini yangilab turish kerak. O'yin jarayonida bolalarning hamkorlik kabi ijodiy harakatlarini rag'batlantirib borish kerak. O'yinlar bolalarni ham aqliy, ham ma'naviy, ham axloqiy tarbiyasidagi tutgan o'rni benihoya kattadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarida inovasion faoliyat ko'nikmalarini rivojlantirish yo'llari. //Uzluksiz ta'lim, 2010.
2. Ishmuhammedov R, Abduqodirov A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. T.: Iste'dod. 2008.
3. 7. Ishmuhammedov R. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. T.: Iste'dod. 2010.
4. Ishmuhammedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. – Toshkent 2004.



INGLIZ TILI DARSLARIDA QIZIQARLI O'YINLARDAN FOYDALANISH VA UNING AHAMIYATI

Komiljonova Nodirabonu Sobirovna

Andijon viloyati Andijon shahar

25-umumta'lim maktabi ingliz tili fani o'qituvchisi

Telefon: +998 97 983 25 21

Anotatsiya: ushbu maqolada yuqori sinf o'quvchilariga ingliz tili darslarini oson va samarali o'rganishga qaratilgan o'yinlarga to'xtalib o'tilgan va o'yinlarning darsdagi ahamiyati haqida ham ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: didaktik o'yinlar, “pictionary”, “20 objects”, “letter scramble”, “last man standing” o'yinlari.

Har qanday chet tilini o'rganishdan maqsad o'sha tilda bimalol muloqot qila olish hisoblanadi. Chet tillarni o'rgatish va o'rganish uzoq va mukammal jarayondir. U o'qituvchidan muntazam mehnatni va o'z ustida ishlashni talab qiladi. Og'zaki nutq malakalarini o'stirish uchun chet tillarni o'qitish jarayonida har xil interfaol va qiziqarli o'yinlardan foydalanish chet tilini o'rganishni zerikarli emas, balki qiziqarli va sevimli mashg'ulotga aylantiradi. Ammo bu o'yinlarni qo'llashdan oldin o'qituvchi o'quvchilarga o'yindan ko'zlangan maqsadni, o'yin qoidalarini aniq tushuntirishi va o'tilayotgan mavzu bilan chambarchas bog'lashi kerak. Dars davomida har xil qiziqarli o'ynatib turish sinfda fanni o'rganishga bo'lgan ishtiyoqni yanada oshiradi, past o'zlashtiruvchi o'quvchilarni ham darslarda yaxshiroq qatnashishga undaydi, sinfda o'quvchilar o'rtasida raqobat, ayni paytda jamoadoshlik muhitini hosil qiladi. Shuningdek, o'quvchilarning ustozlariga bo'lgan hurmatini oshiradi. Quyida ingliz tili darslari davomida o'qitish samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiluvchi o'yinlardan ko'rib chiqamiz.

Pictionary. Ko'pchilik ingliz tilida so'zlashuvchilar pictionary, ya'ni rasm chizish o'yini bilan yaxshi tanish. Rasm chizish uchun oddiy doska yoki oq magnit doskadan foydalanishimiz mumkin. Sinfni 2 guruhga bo'lib olinadi va har bir jamoa uchun doskaning bir tomonida jadval chiziladi. O'qituvchi jamoalarning ballarini shu yerga yozib boradi. 1-guruhdan bir kishi chiqadi va ko'pgina teskari o'girilgan so'zlardan bittasini tanlaydi va shu so'zni doskaga chizib beradi va boshqalar topishi kerak bo'ladi. So'zni birinchi topgan jamoaga 10 ball beriladi va o'yin shu tarzda davom etadi. Oxirida ballar hisoblanadi va yuqori ball to'plagan jamoa g'olib hisoblanadi.

20 objects (20 buyumlar). Bir vaqtning o'zida ushbu o'yin orqali o'quvchilarning xotirasini va so'z boyligini tekshirish mumkin. Buning uchun o'qituvchiga doska va 20 ta sinf xonada joylashgan buyumlar yoki o'quv qurollar kerak bo'ladi. O'qituvchi tomonidan buyumlarning hammasi stol ustiga qo'yib chiqiladi va o'quvchilarning hammasini chaqirib buyumlarga qarashlari aytiladi. Keyin hamma buyumlar bir daqiqadan keyin qog'oz (yoki shunga o'xshash biror narsa) bilan yopiladi. Hamma o'quvchilardan joylariga qaytib bir varoq qog'ozga eslab qolgan buyumlarini ingliz tilida yozishlari so'raladi. Hamma tugatganidan so'ng esa buyumlar ro'yxati doskaga yoziladi va o'quvchilar bir-biri bilan varoqlarini almashtirishadi va to'g'ri yozilgan so'zlarni tekshirishadi. Oxirida o'qituvchi varoqlarni ko'rib, natijalarni tekshiradi va yuqori topgan o'quvchilarni baholaydi.

Letter scramble (tartibsiz harflar). Bu o'yinda o'quvchilar oxirgi marta o'rgangan so'zlaridan o'qituvchi ro'yxat tuzishi kerak bo'ladi. Shu ro'yxatdagi so'zlarning harflarini chalkashtirib o'qituvchi doskaga yozadi. O'quvchilar harflarni to'g'ri tartibda qo'yib berilgan so'zni topishlariga biroz vaqt beriladi. Kim birinchi bo'lib so'zni topa olsa o'sha o'quvchi g'olib bo'ladi va shu tarzda davom etadi.

Last man standing (oxirgi qolgan odam). Bu o'yin tezkor o'yin hisoblanadi. O'quvchilarga o'ylash uchun biroz vaqt beriladi. Bu o'yin jamoa bilan birgalikda ishlashga undaydi, ya'ni boshqa o'quvchilar so'zlayotganida qolgan o'quvchilar o'zlari so'z o'ylayotgan bo'lishadi. O'yinni o'ynashda o'quvchilarga koptok kerak bo'ladi. Hamma o'quvchilar doira shaklida turib olishadi. O'qituvchi birorta mavzu tanlaydi. Masalan, Things found in a kitchen (oshxonada topiladigan buyumlar), food, profession va hokazo. Biror o'quvchiga to'pni uloqtirish orqali o'yin boshlanadi. O'sha o'quvchi mavzuga doir inglizcha so'z aytadi va to'pni keyingi o'quvchiga uloqtiradi. To'pni qabul qilgan har bir o'quvchi shu mavzuga doir biror so'z aytishi kerak bo'ladi. Agar ular aytilgan



so'zlarni qayta aytsa yoki bir necha soniya ichida so'z topa olmasa, ular o'yindan chiqadi va o'yinni o'tirgan holda kuzatadi. Qolgan o'quvchilar ham o'yinni shu tarzda davom ettirishadi. Oxirida qolgan 3ta o'quvchi g'olib bo'ladi va baholanadilar.

Bu o'yinni biroz boshqacharoq qilib o'zgartirsa ham bo'ladi. Biror mavzu o'rniga so'z aytish o'rniga, har bir o'quvchi keyingi o'quvchiga biror boshqa mavzu aytishi mumkin. Masalan, o'qituvchi “say something red” (biror qizil narsani ayting) deb o'yinni boshlaydi. Koptokni ushlab olgan birinchi o'quvchi “strawberry” deb keyin o'zi biror mavzu tanlab koptokni boshqasiga uloqtirishi mumkin. O'yin shu tarzda davom etadi va so'z topolmagan o'quvchi o'yindan chiqadi, oxirida qolgan 3 ta o'quvchi g'olib bo'ladi. Bu o'yinni biroz murakkablashtiradi, sababi o'quvchi biror so'z haqida o'ylashidan oldin qaysi mavzuga doir so'z o'ylashi kerakligini ham bilishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida keltirilgan o'yinlarni bolalarni saviyasi yoki yoshiga qara osonlashtirish yoki qiyinlashtirish ham mumkin. Ushbu interfaol o'yinlarning maqsadi o'quvchilar diqqatini jamlash, so'z boyligini oshirish, tezkorlik, aqllilik, ziyraklik, asosiysi esa darsni qiziqarli tarzda o'zlashtirib, yodda saqlashdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. D.Dehkanova. Ingliz tili darslarida interfaol o'yinlar. – Samarqand. 2013.
2. U.Bekmuratova. Ingliz tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish. – Toshkent. 2012.
3. N.Xatamova., M.Mirzayeva. Ingliz tili darslarida qo'llaniladigan interfaol usullar. – Navoiy. 2006.



BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA INNOVATSION TA'LIMNING DOLZARBLIGI

Mamatova Dildora Murodjonovna

Norin tumani 32-maktab ikkinchi toifali

biologiya fani o'qituvchisi

Annatsiya. *Axborot texnologiyalar o'qituvchilarning kasbiy o'sishi uchun ularga o'z fanlari bo'yicha o'qitishning yangi usullarini kiritishga, yangi yondashuvlarni qo'llashga, g'oyalarni ro'yobga chiqarish va yangi ko'nikmalarni rivojlantirishga imkoniyat yaratadi.*

Kalit so'zlar: *axborot texnologiya, innovatsiya, o'qituvchi.*

Hozirgi kunda o'quvchilar, talabalar, tinglovchilar aqliy ta'limini rivojlantirish uchun ta'lim va tarbiya birligiga beriladigan bilimning ilmiy bo'lishi, bilimning sistemali va izchil bo'lishi barobarida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishga erishilmoqda. Uzluksiz ta'lim tizimida tashkil etiladigan o'qitish jarayonining samaradorligini oshirish yuzasidan qabul qilingan me'yoriy hujjatlarda pedagogik va axborot texnologiyalaridan uyg'un foydalanish muhim vazifa sifatida belgilangan.

Mamlakatimizda ta'lim tizimini isloh qilish borasida amalga oshirilayotgan o'zgartirishlar va yangiliklar asosida pedagog xodimlarga qo'yilayotgan zamonaviy talablar ta'lim va yoshlar to'g'risidagi xukumat tomonidan qabul qilingan qarorlarning mazmun-mohiyati va ahamiyatini tushunib yetadigan hamda targ'ibot qiladigan; o'z fanini chuqur biladigan, pedagogik jarayonlarda o'quvchilarning sub'ektivligini va faolligini oshirishga alohida ahamiyat qaratadigan; o'zaro do'stona munosabatlarga asoslangan hamkorlikda faoliyat ko'rsatish ko'nikmalariga ega bo'lgan; pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish, o'quvchilar va pedagoglar hamkorligini shakllantirish va muvofiqlashtirish, pedagogik jarayonlarda motivlashtirish, refleksiv faoliyat jarayonlarini tashkil etish asosida refleksiv ta'limiy muhitni shakllantirish yo'nalishlarida zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lgan o'qituvchi shaxsini shakllantirishni taqozo etadi. Axborot texnologiyalar o'qituvchilarning kasbiy o'sishi uchun ularga o'z fanlari bo'yicha o'qitishning yangi usullarini kiritishga, yangi yondashuvlarni qo'llashga, g'oyalarni ro'yobga chiqarish va yangi ko'nikmalarni rivojlantirishga imkoniyat yaratadi. Biologiya fanini o'qitishda axborot texnologiyalarining yuqorida qayd etilgan vazifalarini e'tiborga olgan holda, ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish yo'llarini belgilash va amaliyotga joriy etish bugungi kunda dolzarb vazifa sanaladi. Uzluksiz ta'lim tizimida pedagogik faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchilarning oldidagi muhim vazifalardan biri o'quvchilarning fan asoslarini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishlarini orttirish, mustaqil va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish asnosida ularning barkamolligini ta'minlash sanaladi. Ushbu muammolarni hal etishda innovatsion texnologiyalari muhim ahamiyat kasb etadi. Innovatsion texnologiyalaridan foydalanilgan darslar axborotlarga boy, ko'rgazmali, interfaol bo'lib, vaqtdan unumli foydalanish, har bir o'quvchining o'z tempi bo'yicha bilim olish, o'qituvchida esa, o'quvchilar bilan tabaqalashtirilgan va individuallashtirilgan ta'limni amalga oshirish imkoniyati vujudga keladi, shu bilan bir qatorda o'qitishda natijalarini nazorat qilish va baholash uchun zamin yaratadi. O'quvchilarning axborot dasturlari bilan ishlashi natijasida o'quv va aqliy mehnat ko'nikmalari rivojlantiriladi; nazorat: biologiya ta'limining barcha shakllari: dars, darsdan tashqari ishlar, sinfdan tashqari darslarda, shuningdek, darsning barcha bosqichlarida o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish va baholash, nazoratning haqqoniyligi, muntazamliligi, keng qamrovliligi, takrorlanuvchanligini amalga oshiradi; rivojlantiruvchi: o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish dasturlaridagi o'quv topshiriqlarning qiyinlik darajasiga ko'ra: reproduktiv, produktiv, qisman-izlanishli va ijodiy xarakterda bo'lishi o'quvchilarning topshiriqlarni bilimi, ehtiyoji va qiziqishiga mos holda keyingi bosqich topshiriqlarini bajarishga bo'lgan intilishini orttiradi; ilmiy dunyoqarashni rivojlantirish: tabiat va undagi ob'ektlarni o'rganish ikkita olam (makro va mikroolam)ga ajratilib, biologiya fani o'zining mazmuniga ko'ra, aksar hollarda mikroolam: hujayrada boradigan jarayonlar, masalan, modda va energiya almashinuvi, fotosintez, oqsillar biosintezi, biotexnologiya va gen muhandisligiga doir o'quv materiallarini animatsiyalar orqali o'rgatib, o'quvchilarning abstrakt tafakkuri va ilmiy dunyoqarashini rivojlantiradi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi o'quvchilarning hujayra, to'qima, kimyoviy elementlar, atom, molekulaning tuzilishi, modda va energiya almashinuvi, fotosintez, oqsillar



biosintezi kabi jarayonlar haqida tasavvur qilishlari, abstraktsiyalash va xotirada saqlash imkonini kengaytiradi; o'quvchilarning motivlari va o'zlashtirish darajasi ehtiborga olingan holda zarur hollarda takroran o'rganish va o'quvchilarning bilimidagi bo'shliqlarni to'ldirish imkonini beradi; biologik jarayonlarni animatsiyalar tarzida virtuallashtirish o'quvchilarning ko'rgazmali-obrazli fikr yuritish va o'quv materialini to'liq o'zlashtirishga zamin tayyorlaydi; biologiya darsida animatsiyalardan foydalanish darsning barcha bosqichlarida o'quvchilarning bilish-faoliyatini faollashtirishga olib keladi. Biologiya fanini o'qitishda quyidagilardan foydalanish mumkin: har bir mavzu mazmuniga asosan ko'rgazmalilikni amalga oshirish, ya'ni multimediali taqdimot materiallari; biologik jarayonlarning animatsiyasi; virtual laboratoriya va amaliy ishlar; ishlab chiqarish korxonalariga virtual ekskursiya; biologik jarayonlarning modellashtirilgan dasturlari; biologik jarayonlarning ta'limiy dasturlari; o'quvchilarning mavzular bo'yicha o'zlashtirgan bilimlarini nazorat qilish va baholash uchun nazorat dasturlari; o'quvchilarning mustaqil ta'limi va ishi uchun o'quv-axborot saytlari; didaktik o'yinga asoslangan animatsiyalar; qiyinchilik darajasi turlicha bo'lgan ijodiy topshiriqlar dasturi; modul dasturlari orqali o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish-boshqarish; qo'shimcha materiallar to'plash va ular ustida mustaqil ishlash; didaktik o'yinlar, boshqotirmalarni yechish.

Demak, biologiya fanini o'qitishda innovasion texnologiyalaridan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirish, o'quvchilarning fan asoslarini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishlari va ehtiyojlarini rivojlantirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shaxmurova G.A., Azimov I.T., Raxmatov U.E. Biologiyadan masala va mashqlar yechish. O'quv qo'llanma. "Adabiyot uchqunlari" nashriyoti. Toshkent, 2017.
2. G'ofurov A.T., Tolipova J.O. va boshqalar. Biologiya o'qitish metodikasi. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. Toshkent, 2013.



FUNCTIONAL-SEMANTIC APPROACH TO THE STUDY OF THE CATEGORY OF NUMBER IN LINGUISTICS

Masharipova Nargiza Irkinova

Urganch shahar ixtisoslashtirilgan
san'at maktabi ingliz tili o'qituvchisi

Annotation. This article presents a structural-semantic approach to the study of the category of number in linguistic science. The conditions for the formation of various quantitative meanings within the framework of a sentence-statement are analyzed, which makes it possible to identify the content of the concept, the quantity, represented by a set of basic and particular characteristics.

Key words: language, thinking, language system, thought processes, functional-semantic approach, category of number, quantity.

It should be noted that a person's comprehension of objective reality is aimed, first of all, at identifying ontological premises and sociocultural foundations of human thinking, which subsequently initiates an analysis of his categorical structure. The category of quantity is one of the most important ontological categories that permeate all human existence, performing a methodological and ideological role. Various philosophical and linguistic schools have described the relationship between language and thinking, as well as their interaction. Numerous languages, radically different from each other in grammatical structure, features of morphology and vocabulary, freely express thought processes. The language system includes many linguistic elements that are in relationships and connections with each other, which forms unity and integrity [5, 452]. The system is an ordered and internally organized set of interconnected and interacting objects that form an integral complex and are subordinate to the relations of the hierarchy [2, 17].

It is known that the knowledge of the world (both scientific and everyday), realized in the processes of its conceptualization and categorization, leads to the design of various separate structures of knowledge, as well as their associations (integral unities) - formats of knowledge. The cognitive approach postulates the need to constantly correlate various formats of knowledge with the linguistic forms that objectify them. As a result, researchers focus on two fundamental questions: what structures of knowledge are behind certain linguistic forms (ie, what are the cognitive foundations of these forms) and with the help of what linguistic forms certain formats of knowledge are represented [7].

Problems related to the study of correlations between linguistic and cognitive structures are central to the study of the process of conceptualizing quantity in modern English. It is possible to identify the specifics of the formation of human knowledge about the quantitative aspects of reality, that is, to study with what means the quantity is conceptualized in modern English, it seems possible through the analysis of the semantics of different-level linguistic units, taking into account the interaction, on the one hand, the linguistic mechanisms of conceptualization and cognitive mechanisms of the formation of quantitative meanings and, on the other hand, additional linguistic factors.

The role of language in the formation of structures of knowledge, which have different significance for the functioning of the conceptual system, is different. It is known that the most important structures of knowledge are objectified and stored in linguistic form. Language still remains the best window to knowledge, since it is observable, amenable to analysis, and thus offers a good opportunity to analyze knowledge, acting as a means of access to the work of consciousness [1; nine; 10; 7]. The language not only ensures the flow of a large share of information into the conceptual system, but also helps to bring together and summarize all the information coming through other channels. Thus, "the language provides access to all concepts, regardless of how they are formed, itself, remaining only one of the possible ways of forming concepts in the human mind" [3, 27]. The basic provisions of the theory of conceptualization make it possible to explain the features of the conceptualization of quantity by means of the modern English language. The specificity of the conceptualization of quantity lies in the fact that this process takes place in two stages (concrete-sensory, complex) and is carried out at three levels (quantitative representation, the quantitative concept of non-discreteness / discreteness) [11; 6].



An analysis of the conditions for the formation of various quantitative meanings within the framework of a sentence-statement made it possible to identify the content of the concept of quantity, represented by a set of basic and particular characteristics. The revealed conceptual characteristics in their totality give only a general idea of the content of the concept of quantity in the minds of native speakers. In addition, since no concept can be fully expressed in speech, the linguistic means representing the concept of quantity reflect only part of its conceptual content.

Bibliography:

1. Chafe W. Meaning and the Structure of Language / W. Chafe. - Chicago, London, 1971. -406 p.
2. Melikova M. N. History of philosophy: textbook. DOI: http://doi.org/10.37057/M_13_1_Primedia_E-launch_Shawnee_USA_2021.187.
3. Арнольд И.В. Основы научных исследований в лингвистике. - М.: Высшая школа, 1991. - 140с.
4. Болдырев, Н.Н. Категориальное значение глагола: Системный и функциональный аспекты / Н.Н. Болдырев. - СПб., 1994а. - 171 с.
5. Болдырев, Н.Н. Функциональная категоризация английского глагола: Дис. ... д-ра филол. наук, 10.02.04: / Болдырев Николай Николаевич; Спб., 1995.-445 с.



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI HUSNIHATGA O'RGATISH

Mirzayeva Intizor Baxadirovna
Urganch shahar 22-sonli maktabning
boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinif o'quvchilarini husnixatga o'rgatishning ayrim jihatlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: husniyat, tekshiruv, ona tili, yozuv, Chiziqli uslub, Genetik usul.

O'quvchilarning husniyat bilan to'g'ri yozish ko'nikmalarini rivojlantirib borish, husnixatga o'rgatish ishlarini sistematik tarzda olib borish talab etiladi. Bunda yozuv materiallarini asta-sekin ko'paytirish va murakkablashtirib borish nazarda tutiladi. Buning uchun ham o'quvchilar to'g'ri yozuvning har kungi ko'nikmasi bilan cheklanib qolmay, uzluksiz ravishda nazorat tekshiruv ishlarini yoki yozuvning sifatini ko'rish ishlarini olib borishlari zarur bo'ladi. O'quvchilar nazorat vaqtini oldindan bilganlari ma'qul, chunki bungacha ruchkadagi kamchilikni va daftami tayyorlab qo'yishga vaqt ajratadilar. Yozib bo'lgach, bolalar o'z ishlarini o'rtoqlari bilan almashadilar va o'qituvchi bilan birgalikda tahlil qiladilar. Eng yaxshi ishlar (o'quvchi burchagiga ilib qo'yiladi. Nazorat paytida husnixat qoidalariga rioya etgan holda yozilganiga, harflaming to'g'ri yozilganligiga, matnning oson o'qilishiga, yozuv bir tekisligiga, matnni o'qish uchun va qog'ozni tejashni rejalay olishga va h. zolarga e'tibor berish lozim. Muntazam ravishda nafaqat ona tili darslaridagi yozma ishlarini, balki o'quvchining boshqa o'quv fanlaridagi yozuvini ham tekshirib borish lozim.

Nazorat-tekshiruv ishlarini bir-biri bilan solishtira olishi uchun o'quvchilarning ishlarini maxsus joyga ilib qo'yiladi. Buning uchun nazorat - tekshiruv ishlarini alohida qog'ozga yozish kerak va u uncha katta bo'lmagan matn asosida bo'lishi kerak. Yozuv malakasini yaxshilanganligini solishtirib borish uchun har bir o'quvchining nazorat - tekshiruv ishlarini saqlab qo'yish lozim.

Qaysidir harfni yozilishini o'rganish uchun o'quvchi bu harf qanday belgilarga ega ekanligini, harfdagi alohida elementlarning joylashish o'rnini, uning kattaligini va hokazolami o'rganib olishi kerak. O'quvchiga harfning yozilishini to'g'ri o'rgatish uchun uning qatordagi o'rnini to'g'ri joylashtirish va qatorni qog'oz varag'ida joylashish o'rnini bilish uchun qog'ozda gorizontol, yotiq chiziqlar chiziladi, shunda daftaming betida o'ziga xos setka paydo bo'ladi. O'quvchilar unga har bir alohida harfni yozib boradilar. Qatorning yo'nalishini ko'rsatib turuvchi chiziq va kataklar harflarning ayrim elementlarining proporsiyalarini aniqlashtirib olish va yozuvni o'rganish jarayonini anchagina osonlashtiradi. Shuning uchun ham yozuvga o'rgatishning asosiy uslubi hisoblanadi va o'quvchi maktabda to'g'ri yozish mashg'ulotlarida undan foydalanadi.

Chiziqli uslubning o'ziga hos ijobiy xususiyatlaridan tashqari, setkaning ichiga yozish bir qator kamchiliklarga ega:

1) tez-tez uchrab turadigan kataklarda yozish bolani bir muncha cheklab qo'yadi, uning diqqatini bo'ladi; bir tomondan o'quvchi kerakli harfni yozayotgan qo'lining harakatini kuzatib borsa, ikkinchi tomondan esa harflar chiziqdan tashqariga o'tmasligini kuzatib boradi.

2) kataklar orasiga yozishni o'rgangan bola aniq va tez yozish malakalarini egallay olmaydilar. Shuning uchun ham o'quvchi harfning elementlarini chizish asosiy proporsiyalarning asosini o'zlashtirib olgandan so'ng, kataklarga yozish ehtiyoji yo'qoladi. Ikkinchi sinfdayoq bolalar bir chiziqli daftarga yozishga o'rgadilar.

3) qo'l kaftlarining va panjalarining erkin harakatlanishini rivojlantirish uchun lozim bo'ladigan uslublar. Yozuvga o'rgatishda mashq harakteriga ega bo'lgan alohida mashg'ulotlarsiz ish bitmatdi.

Genetik usul. Genetik usul to'g'ri yozishga o'rgatishning asosiy uslubi hisoblanadi. Boshlang'ich maktabning dasturida ko'rsatilishicha, alifbeni o'rganish vaqtida bolalar alifbeda harflar qanday joylashgan bo'lsa shu tartibda yozilishida oson yoki qiyinligidan qat'iy nazar ketma-ket o'rganiladi. Genetik usul bilan yozuvga o'rgatish hozirgi kunda alifbeni o'rganib bo'lgandan so'ng to'g'ri yozuvga o'rgatishning butun borishida amalga oshiriladi. Bu uslubning afzalligi shundan iboratki, o'quvchi yozuvdagi harfni alifbedagi tartibda emas, balki uning yozilishidagi murakkab tomonlariga va yozuvdagi harf avvalgi yozuv mashqlariga mos kelishi kerak. Oldiniga o'quvchilar oddiyroq va yengil harflarni yoza boshlaydilar, keyinchalik esa birmuncha murakkabroq va oxirida qiyin mashqlarni yozadilar. Bunday ketma ketlikning afzallik tomoni shundaki, o'quvchi 1-2 ta



elementni o‘zlashtirib olib shakli jihatidan soddaroq bo‘lgan harfga o‘tadi.

Doskada yozib ko‘rsatilgan har bir harf barcha o‘quvchilarga aniq ko‘rinib turishi shart. Agar ayrim o‘quvchilar uni aniq ko‘rmagan bo‘lsalar, qaytadan takrorlab ko‘rsatiladi. O‘qituvchi har bir harflarning bog‘lanishi, og‘zaki yoki doskada tushuntirish orqali qo‘lni qayerga qo‘yish kerak, qayerda qo‘l harakati buriladi, harflarning baland-pastligi qay darajada bo‘lishi kerakligi orqali tushuntiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullayev.Q, Nazarov.Q, Yo‘ldoshev.Sh. Savod o‘rgatish.Toshkent. O‘qituvchi. 1996.
2. Safarova.R Nazarov.Q, Yo‘ldoshev.Sh. Alifbe. Toshkent. Sharq. 2005.



THE IMPORTANCE OF EDUCATION IN DEVELOPING STUDENTS PROFESSIONAL PROFECIENCY

Najmiddinova Sarafroz Najmiddinova,
English teacher, NavSPI

Аннотация. В данной статье, автор анализировал проблему формирования личностной и профессиональных качеств студентов в процессе профессионального обучения.

Annotation. In this article, the author analyzed the problem of the formation personality and professional qualities of students in process of vocational training.

Key words: Pedagogical activity, student identify, spiritual and moral education, professional skill, education functions, personal quality, pedagogical technology.

Today, the work is being done to improve the quality of education all around the world. Taking into account these aspects special attention is paid to improving the effectiveness of teaching in universities. One of the principal aims of this system is – attracting young people to scientific activity, giving a chance to demonstrate their intellectual potential. As a result of appearing the emergence of various risk factors in social life, the education is more important than past now. After the Independence of the Republic of Uzbekistan, if education of harmoniously developed generation is considered as a priority of state policy, now it is considered as a priority task to bring it to a new level of quality. In particular, on this subject president Sh. Mirziyoyev said “ It is very important to solve another problem ” in meeting of addressing the results of the country’s socio-economic modernization in 2016 and the most important directions of the economic program for 2017. These are the levels of professors and teachers and their special knowledge. On this subject, the need to create an environment that promotes the process of education, spiritual enlightenment and the formation of true values and special assignments given to the relevant ministers are evidenced that our government are paying special attention to the defections and problems in education. As well, we can say that improving the effectiveness of educational and training activities in 2017 is reflected in the Decree on the strategy for further development of the Republic of Uzbekistan in 2021.

Education in the system of education is an important stage of continuous education. On this subject, formation of a person’s vital world view is provided, and then it is transformed into conscious self discipline. So, there is a need for a complex approach to the educational process in educational institutions. We can see these actions in the greetings of the president of the Republic of Uzbekistan: We understand that today there are more important and current challenges. On this subject, to strengthen the material and technical base of science and education sphere, to use of advanced methods of training and retraining of pedagogical values, to cooperate with leading foreign centers, to attract modern technologies in the sphere, to encourage teachers difficult job and in shortly, all opportunities are created to build a new generation.

This task is reflected in the theoretical model of higher education graduates.

To give theoretical and practical information for youth for developing their moral, emotional, physical, psychological, ethical features, to create a chance for learning foreign languages, to be able to analyze processes and systems, to form flexibility in practical mobility and professionalism.

Upbringing of a person who meets the requirements of the reforms being implemented in society, adapting to the emerging competition, meeting the qualifications of specialists. To from the creative thinking and organizational qualities of caring, curiosity, discipline, enthusiasm. Mentally motivated mental and practical development, self-reliant and emotional self control. Future professionals need to cultivate such qualities as publicity, inter ethnic, friendship, humanity, understanding others, being aware of the issues of proper functioning.

These features, in turn, need to be able to analyze the individual’s ability to analyze the social and environmental phenomena of discipline and professionalism of the specialist and to work in the same relationship with all student’s. As a means of learning, the teacher’s personal example and reputation, the values of academic unions are very crucial. In fact, moral and emotional features make it possible for individuals to have positive influence, only a good connoisseur can be an example to student’s.

Therefore, the organization of educational work in the higher education system is firstly seen in



the quality of the teaching staff, compliance with the rules of conduct and internal procedures and the professional and scientific arrangements. The student's knowledge acquired during the lesson is the main source of their intellectual and spiritual development outside of the audience.

Used literature.

1. www.press-service.uz-Ўзбекистон Респу-бликаси Президенти Шавкат Мирзиёев-нинг “Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак” номли Мамлакатимизни 2016-йилда ижтимоий-иқтисодий ри-вожлантиришнинг асосий якунлари ва 2017-йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажли-сидаги маърузаси. 15.01.2017.

2. strategy.regulatoir.gov.uz- “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. 07.02.2017.

4. Самаров Р. Ахборотнинг психологик хавфсизлигини таъминлаш механиз-ми (услубий қўлланма). – Тошкент, 2015. – 91 б.

5. Самаров Р. Касбга психологик танлов ўтказишнинг методологик асослари // Ж. Замонавий таълим. 2013, 4 – сон. – Б. 49-53.



ZAMONAVIY INGLIZ TILI METODIKASI

Narimonova Munira, Qobulova Muhayyo

Xorazm viloyati Xonqa tumani 10 sonli
umumiy orta talim maktabi ingliz tili fani o'qituvchilari

Annotatsiya: Ushbu maqolada chet tilini umumta'lim maktablarida o'qitishning zamonaviy yondashuvlari haqida fikr yutilgan.

Kalit so'zlar: til, xorijiy, o'rgatish, dars, o'quvchi, metodika.

Til o'rganish kishilik jamiyatida bag'oyat muhim sohalardan biri hisoblanadi. Muloqot vositasi bo'lmish tilni tabiiy muhitda ya'ni oilada, jamoatchilik orasida yoki uyushgan holda amaliy egallash mumkin. Til hodisalariga oid bilimlar esa nazariy jihatdan o'rgatiladi. Xalqaro munosabatlar avj olgan zamonamizda tillarni bilish, ayniqsa ko'p tillilik ulkan ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda tahsil oladigan o'quvchilar odatda uch tilni o'rganadilar. Ushbu tillar maxsus nomlar bilan yuritiladi. Bular quyidagilar: ona tili, ikkinchi til, va chet til. Ona tili tafakkur shakllanishida alohida xizmat o'taydigan birinchi til hisoblanadi. Ikkinchi til haqida so'z yuritilganda, unga boshqa millat vakillaridan iborat qardoshlar, qo'shnilar tili sifatida qaraladi.

Chet til o'qitish metodikasi fan sifatida 200 yildan ortiq tarixga ega. Bu davr ichida chet til o'qitish metodikasiga turlicha munosabatlar bildirilganini kuzatish mumkin. Bunday qarashlardan biri akademik L.V.Shcherbaga mansub hisoblanadi. Uning fikricha, har qanday fanni o'qitish metodikasi fan bo'lishiga qaramasdan, nazariy fan hisoblanmaydi. U amaliy masalalarni hal qiladi. Jumladan, chet til o'qitish metodikasi ham faqat psixologiya dalillariga tayanmaydi, balki umumiy va xususiy tilshunoslik tadqiqotlariga asoslanadi. Agar tilshunoslik til hodisalarining kelib chiqishi va harakatlanish qonuniyatlari bilan shug'ullansa, metodika bu qonuniyatlarga asoslanib zarur til hodisasidan amalda foydalanish uchun nima qilish kerak degan savolga javob beradi.

Chet til o'qitishni intensivlashtirish masalasi yuzasidan mamlakatimizda va chet ellarda ancha ishlar qilindi va qilinmoqda. Bular yangi intensiv metodlarni yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Xo'sh, intensiv metod o'zi nima? Uni qanday tushinish mumkin? Intensiv o'qitish degan, so'zning birimch ma'nosi bu- qisqa vaqt ichida o'quvchilarni o'rganilayotgan chet tilida nutq faoliyatini amalga oshirishga, ya'ni gapirishga o'rgatishdir. Bu asosan o'quvchilarning ichki psixologik imkoniyatlariga va hotira zahirasiga tayangan holda amalga oshiriladi. (Leontev A. A. Kitaygorodskaya). Demak, intensiv metod (yoki intensiv) o'qitishning quyidagi ikki harakterli xususiyatini ko'rsatish mumkin: Qisqa vaqt ichida ma'lum hajmdagi o'quv materialini o'rganish va shunga mos chet tilidagi nutqiy faoliyatni amalga oshirish; Shaxs hotirasining barcha zahiralardan (psixologik imkoniyatlaridan) maksimal darajada foydalanish ya'ni o'quvchilarning faolligini oshirish. Keyingi yillarda dars jarayonida o'quvchilar faolligini oshirish yuzasidan ko'p ishlar qilish zarurligi taqozo etilmoqda.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ingliz tilidagi og'zaki nutqiy ko'nikmalarni shakllantirish va o'stirish hususida so'z yuritilganda, eng avvalo nutq faoliyati, inson nutqining hosil bo'lishi va o'quvchilarda nutqni shakllanish masalalariga bir oz to'htalib o'tish maqsadga muvofiqdir. Tilning eng asosiy vazifasi kishilar o'rtasida muloqot qilish vositasi bo'lishidadir. Inson butun xayoti davomida nutqini o'stirib boradi. Psixologik va metodik adabiyotlarda inson nutqining shakllanishi va rivojlanishi hususida bir qator kontsepsiyalar va ko'plab ilmiy maqolalar mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shokarimova, K. A. (2020). Pedagogik qobiliyat va pedagogik mahoratning talimtarbiya berishdagi ahamiyati. Science and Education, 1(Special Issue 2).
2. Jalolov J. Chet tili o'qitish metodikasi. – Toshkent., 2012.



BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA ONA TILI DARSLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Nazarova Nafisa Abdug‘afforovna
Farg‘ona viloyati O‘zbekiston tumani
29-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada boshlang‘ich ta‘limda ona tili darslarining samaradorligini oshirish omillari va usullari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar. Dars, kitobxonlik, nutq madaniyatini, fikr, nutqiy kompetensiya.

Ona tili fanini o‘qitishning asosiy vazifasi o‘quvchi shaxsini fikrlashga, o‘zgalar fikrini anglashga, o‘z fikrini og‘zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiyani rivojlantirish, o‘quvchilarda grammatikaga oid o‘zlashtiriladigan bilimlarni (fonetika, leksikologiya, so‘zning tarkibi, so‘z yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalarni) rivojlantirish hamda ona tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda to‘g‘ri va ravon bayon eta olishni rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat.

Boshlang‘ich sinflarda ona tili ta‘limi o‘quvchilarda nutqiy faoliyatning asosiy turlarini rivojlantirishni ko‘zda tutadi. Shuning uchun Ona tili o‘quv fani mazmunini nutq tovushlari, yozma nutqda tovushlarning ifodalanishi, so‘z turkumlari, ularning o‘zgarishi va gapda so‘zlarning bog‘lanishi, so‘zlarning morfemik tarkibi va so‘z yasalishi, so‘zlarning leksik-semantik guruhlari, imlo qoidalar va tinish belgilarining ishlatilishiga doir bilimlar tashkil etadi.

O‘qituvchi kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar bilan qaysi yo‘nalishda ish tutsa, ular tez shunga moslashadi. O‘quvchini fanga qiziqtirish, undagi qobiliyatni yuzaga chiqarish kichik sinf o‘qituvchisidan mohirlikni, o‘ziga xos uslubiya, bolajonlikni talab etadi. Shu sababli ona tili mashg‘ulotlarida o‘qituvchi nafaqat qayta xotirlashga asoslangan o‘quv topshiriqlardan, balki qisman ijodiy topshiriqlardan ham unumli foydalanishi lozim. Ijodiy topshiriqlar ustida ishlash bolalarning yoshi va bilim saviyasi oshgan sari asta-sekin murakkablashib boradi.

Ta‘limning samaradorligini ko‘p jihatdan tafakkurning rivojlanganlik darajasiga bog‘liq. “Tafakkur – deb qayd qiladi psixolog M.T. Davletshin, - kishi aqliy faoliyatining yuksak formasi bo‘lib, real borliqning bilvosita va umumlashgan intiqosi, borliqdagi buyumlar hamda hodisalar o‘rtasidagi aloqa – munosabatlar va ularning umumiy xossalari aks etish jarayonidir”.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar tafakkuri maktabga kelganga qadar ancha shakllangan bo‘lib, u maktabda o‘qish jarayonida takomillashib boradi. Boshlang‘ich ta‘lim davrida bolalarning idroki va xotirasi ustida ishlash tafakkurining rivojlanishi uchun muhim shart-sharoit yaratadi. Bu davrda bolalardagi idrok va xotira sifat jihatdan qayta o‘zgarishga uchraydi, ya‘ni ixtiyoriy va boshqariladigan jarayonga aylanadi. O‘qishning dastlabki paytlarida bolalar konkret tafakkur qilishadi. Ta‘lim ta‘siri bilan asta-sekin ular tahlil qilinayotgan yoki o‘rganilayotgan ma‘lumotlarning mohiyatini anglash muhim xususiyat va belgilarning tafakkurda aks etishi bilan boshlandi.

Ma‘lumki, psixologlar tafakkurining ikki darajada namoyon bo‘lishini qayd qiladilar:

- 1) reproduktiv (tasavvur etish) tafakkur;
- 2) ijodiy tafakkur.

Reproduktiv tafakkur o‘quvchining tayyor bilimlar olishi va ularni tushunib olib, og‘zaki yoki yozma ravishda eslab qolishi bilan xarakterlanadi. Ijodiy tafakkur jarayonida o‘quvchi bilimlarni tayyor holda qabul qilmaydi, balki uni mustaqil ravishda, aqliy faoliyat usullarini ishga solgan holda egallaydi. Bir soatlik dars mashg‘ulotida o‘qituvchi o‘rni kelganda reproduktiv tafakkurga, o‘rni kelganda esa ijodiy tafakkurga tayanib ish ko‘radi.

Ta‘limning samaradorligi o‘quvchilardan hukm va xulosalar chiqara olish qobiliyatini ham talab qiladi. Ona tili mashg‘ulotlarida hukm va xulosalar chiqarish; unli va undosh tovushlarni, so‘z va qo‘shimchalarni, gap qurilishlarini o‘zaro qiyoslash; ularning o‘xshash- farqli tomonlarini aniqlash; uyadosh so‘z va qo‘shimchalar ro‘yxatini tuzish; ularni muayyan belgilariga qarab guruhlash singarilar asosida amalga oshiriladi. Shuning uchun boshlang‘ich sinf oquvchilarini bu aqliy faoliyat usullarini bajarishga o‘rgatish muhim ahamiyat kasb etadi.

Aqliy faoliyat usullariga o‘rgatish, avvalo, o‘quvchini ta‘lim jarayonining sub‘ekti (faol



ishlovchisi) ga aylantirishni taqozo etadi. O'quvchi ta'lim jarayonining faol ishlovchisiga aylansagina, u til hodisalarini kuzatib, taqqoslab, ular o'rtasidagi o'xshash va farqli tomonlarni aniqlaydi, muayyan belgilariga qarab guruhlariga ajratadi. Har bir guruhni qanday qilib mustaqil davom ettirish mumkinligini anglab yetadi, shaxsiy kuzatishlarga asoslanib hukm va xulosalar chiqara oladi. O'quvchining ta'lim jarayonining sub'ektiga aylanishi, o'qituvchini bu jarayondan chetda qoldirilmaydi, aksincha, uning ta'sirini kuchaytiradi. Bu murakkab jarayonda o'qituvchi nafaqat nazoratchi, balki tashkilotchiga, bevosita o'quvchi faoliyatining boshqaruvchisiga aylanadi.

Ona tili ta'limining samaradorligi ko'p jihatdan bolalarning real o'quv imkoniyatlarini hisobga olish bilan chambarchas bog'langan. Bolalarning real o'quv imkoniyatini aniqlash, ularning o'zlashtirish darajasi, o'quv topshiriqlarini bajara olish qobiliyati, o'quv qiyinchiliklarini bartaraf eta olish imkoniyati kabilarini hisobga olish bilan uzviy bog'liqdir. Chunki, bolaning nimaga qodir ekanligini bilmay turib, uni o'qitib bo'lmaydi. Ona tili o'qituvchisi boshlang'ich sinf o'qituvchisi bilan hamkorlikda har bir bolaning real o'quv imkoniyatini aniqlash, shundan kelib chiqib, o'quv topshiriqlarining murakkablik darajasini belgilashi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayeva Q. Yangi pedagogik texnologiyalar // Boshlang'ich ta'lim. Toshkent. 1999. № 4.
2. Bekmurodov A. Ta'lim standartlari va tarbiyaviy jarayon samaradorligi // Xalq ta'limi. – Toshkent, 2000. № 5.
3. G'ulomova X., Yo'ldasheva Sh. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. Ma'ruza matnlari Toshkent, 2006.



IQTISODIY BILIM ASOSLARI FANINING MAQSADI VA VAZIFALARI

Nosirova Salomatxon Esonaliyevna

Qo‘qon shahar 36-maktab

Iqtisodiy bilim asoslari fani o‘qituvchisi

e-mail: salomatxon36@inbox.uz

Annotatsiya: ushbu maqolada iqtisodiy bilim asoslari fani va uning mazmuni, maqsadi hamda vazifalari yuzasidan fikrlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: iqtisod, inson ehtiyoji, faning maqsadi, barqarorlik

“Iqtisodiy bilim asoslari” fanini, uning qonun-qoidalarini bilish uchun, eng avvalo, iqtisodiyotning o‘zi nima, uning vazifasi nimalardan iborat, degan savolga javob berish lozimdir. Insoniyat hayoti va uning taraqqiyoti juda murakkab, ko‘p qirrali va g‘oyat chigal muammolarga boydir. Bu muammolar kishilarning moddiy ne‘matlar ishlab chiqarish, xizmatlar ko‘rsatish, fan, madaniyat, siyosat, mafkura, ahloq, davlatni boshqarish sohalaridagi va nihoyat boshqa faoliyat turlarining borgan sari ko‘payib, rivojlanib hamda ularning o‘zgarib borishi natijasida vujudga keladi. Uzoq davrlar davomida insoniyat fikrini band qilib kelgan ayrim masalalar bugungi kunda oddiy haqiqat va oson bilish mumkin bo‘lgan narsaga o‘xshab ko‘rinadi.

Masalan, bugun hammaga ma‘lumki, kishilar yashashlari va hayot kechirishlari uchun ehtiyojlarni qondirish siyosat, san‘at, adabiyot, fan, ma‘rifat, madaniyat, ta‘lim bilan shug‘ullanishlari uchun hayotiy ne‘matlarni iste‘mol qilishlari, kiyinishlari kerak. Buning uchun esa oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy va turli xizmatlardan iborat hayotiy vositalar zarur. Har bir kishi, o‘zining kundalik hayotida bir qancha muammolarga, ya‘ni hayotiy ehtiyojlari – kiyim-kechak, oziq-ovqat, uy-ro‘zg‘or buyumlari, bilim olish kabi ehtiyojlar uchun zarur bo‘lgan pul daromadlarini qayerdan, nima hisobiga topish kerak degan muammolarga duch keladi. Shu muammolarni yechish va o‘z talablarini qondirish maqsadida kishilar turli yo‘nalishlarda, sohalarda faoliyat ko‘rsatadilar. Demak, insonning turli faoliyatlari ichida eng asosiysi, insoniyatning yashashi va uning kamol topishini ta‘minlaydigani moddiy va ma‘naviy ne‘matlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatishdan iborat bo‘lgan iqtisodiy faoliyatdir.

Cheklangan iqtisodiy resurslardan unumli foydalanib, kishilarning yashashi, kamol topishi uchun zarur bo‘lgan hayotiy vositalarni ishlab chiqarish va iste‘molchilarga etkazib berishga qaratilgan, bir-biri bilan bog‘liqlikda amal qiladigan turli-tuman faoliyatlarni yaxlitligi bir so‘z bilan aytganda iqtisodiy faoliyat deyiladi.

Iqtisodiy faoliyatning asosiy shakli cheklangan resurslardan oqilona foydalanib, aholining to‘xtovsiz o‘sib boruvchi ehtiyojlarini qondirish, unga eng kam resurslar sarflab, ko‘p samaraga erishish, resurslar va mahsulotlarni to‘g‘ri taqsimlash yo‘llarini topish iqtisodiyotning asosiy mazmuni ekanligidir.

Iqtisodiyot o‘rganishi lozim bo‘lgan muhim yo‘nalishlardan biri cheklangan iqtisodiy resurslardan unumli foydalanish, ijtimoiy xo‘jalikni samarali yuritish va boshqarish, milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning omillari, qonuniyatlari va yo‘llarini o‘rganish va ko‘rsatib berishdan iboratdir. Bu esa fanning predmeti, uning maqsadi va vazifalarida yanada oydinroq ko‘rinadi.

“Iqtisodiy bilim asoslari” fanining maqsadi va vazifasini ikki tomonlama, ya‘ni ham amaliy va ham nazariy tomonlarini tushuntirish mumkin. Amaliy iqtisodiyotning asosiy maqsadi iqtisodiy o‘sishni ta‘minlash va shu asosda o‘sib boruvchi ehtiyojlarni qondira borishdan iborat. Uning vazifasi shu maqsaddan kelib chiqib, cheklangan turli xil resurslardan samarali foydalanib, uning har bir birligi evaziga ko‘proq tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatishni ta‘minlash, har bir faoliyat turi bo‘yicha xarajatlar miqdori bilan erishilgan samara, ya‘ni tovar va xizmatlar miqdorini taqqoslash, resurslardan unumliroq foydalanish yo‘llarini topishdan iboratdir. Bundan tashqari, iqtisodiyot aholini ish bilan ta‘minlash, pulning qadrsizlanishi oldini olish, aholini ijtimoiy himoya qilish yo‘llarini ko‘rsatib berishi lozim. Iqtisodiyot fani makroiqtisodiyot darajasida tahlil qilib, uning sohalari, ko‘rsatkichlari, omillari o‘rtasidagi bog‘lanishlarni, iqtisodiy ko‘rsatkichlari, omillari o‘rtasidagi bog‘lanishlarni, iqtisodiy o‘sish yo‘llarini aniqlab ko‘rsatadi va davlatning ichki va tashqi iqtisodiy siyosatida ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Iqtisodiyotning nazariy maqsadi esa, eng avvalo, ilmiy bilishdan iboratdir. Shundan kelib



chiqadiki, iqtisodiy jarayonlar va hodisalarni kuzatish, ulardagi shakl va mazmun o'zgarishlarini, ichki bog'lanish va aloqalarni, ziddiyatlarni, qonun-qoidalarni, tushunchalarni bilib, birinchi navbatda, o'quvchilarga, iqtisodchi mutaxassislariga va iqtisodiyot bilan qiziquvchi boshqa xodimlarga o'rgatishdan iboratdir.

Iqtisodiyotning biz qayd qilgan amaliy va nazariy tomonlari bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Amaliy iqtisodiyot nazariy bilimga ega bo'lishni, u bilan qurollanish zaruriyatini taqozo etadi. Nazariy bilim esa oldindan ko'ra bilish va amaliy harakat yo'lini to'g'ri belgilash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'lmasov A., Sharifxo'jaev M. Iqtisodiyot nazariyasi (darslik) T-«Mehnat» 1995y.
2. Mamarasulov U. Iqtisodiyot va bozor munosabatlari. T-1996 y.
3. Shoyusupova N.T. Mehnat sotsiologiyasi (o'quvqo'llanma) T.: «O'qituvchi» 2004 y.- 126 b.



BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING BOG‘LANISHLI NUTQINI O‘STIRISH ORQALI ULAR BILAN IJODIY ISHLAR O‘TKAZISH USULLARI

O‘ktamova Gulbahor Nu‘monovna

Farg‘ona viloyati O‘zbekiston tumani XTB metodisti,
Tel: +99891 688-02-88

Qodirova Muhayyo Vohidovna

Farg‘ona viloyati O‘zbekiston tumani
27-o‘rta ta‘lim maktabi
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bog‘lanishli nutqini o‘stirishda o‘quvchilar bilan ijodiy ishlar o‘tkazish ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: fikr, nutq o‘stirish, bog‘lanishli nutq, ijodiy ish.

Fikrni bayon etish ehtiyojini amalga oshirishga qaratilgan, tugallangan mavzuni ifodalaydigan, logik va grammatik qoidalar asosida tuzilgan, mustaqil, tugallangan va o‘zaro bog‘langan ma‘noli qismlarga bo‘linadigan nutq bog‘lanishli nutq deyiladi. Bog‘lanishli nutq birligi deb hikoya, maqola, roman, monografiya, doklad, hisobot kabilarni, maktab sharoitida esa o‘quvchi va o‘qituvchi bergan savollarga o‘quvchilarning keng, mukammal og‘zaki javobini, yozma bayon va inshoni hisoblash mumkin.

Boshlang‘ich sinflar metodikasida bog‘lanishli nutqdan mashq turlar iga quyidagilarni kiritish mumkin:

- 1) berilgan savolga keng, mukammal javob berish;
- 2) o‘qilgan asarni tahlil qilish, grammatik materialni o‘rganish; o‘quvchilar lug‘atini faollashtirish bilan bog‘liq holda har xil matnli mashqlar;
- 3) muntazam o‘tkaziladigan kuzatishlarni yozish, ob- havo kundaligini yuritish;
- 4) o‘qilgan matnni turli variantda og‘zaki qayta hikoyalash;
- 5) berilgan mavzu, rasm, hikoya, reja yoki syujet asosida o‘quvchilarning og‘zaki hikoyasi;
- 6) badiiy matnni hikoya qilish, yod olish, o‘quvchilar saviyasiga mos matnlarni yoddan yozish;
- 7) ertakni tayyorlanmasdan aytish, kichik she‘r, hikoya tuzish;
- 8) namunasi berilgan badiiy ilmiy- ommabop matn asosida bayon yozish;
- 9) o‘qituvchi bergan matnni og‘zaki va yozma qayta tuzish (tanlab qayta hikoya qilish va bayon, ijodiy qayta hikoyalash va bayon, hikoyani sahnalashtirish kabilar);
- 10) har xil turdagi yozma insho.

Bu mashqlarning hammasi amaliy tarzda beriladi. Bunday mashqlarni takroriy ishlatmaslik yoki asosiylarini tushirib qoldirmaslik uchun nutqiy mashqlarning aniq rejasi tuzib olinadi.

Bog‘lanishli nutqdan mashqlarni hillashda, avvalo, material manbaiga, mavzu ko‘lamiga, shuningdek, janriga, til xususiyatiga, mashq turiga rioya qilinadi. O‘quvchilar nutqini o‘stirish ularga aniq ko‘nikmalarni singdirish demakdir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari mustaqil mashq sifatida bog‘lanishli nutqini o‘stirish orqali ko‘nikmaga ega bo‘ladilar. Jumladan, mavzuni tushuntirish, chegarasini aniqlash va uni nisbatan to‘liq yoritish ko‘nikmasi. Masalan, “Biz paxta terimiga qanday yordamlashdik?” rejasi berilsa, o‘quvchilar aniq bajargan ishlari haqida hikoya qiladilar. Ular rejani yaxshi tushunishlari uchun bayon matnli qayta hikoya qildiriladi, inshoda esa berilgan reja yuzasidan mustaqil hikoyalash mashq qilinadi. O‘qituvchidan o‘quvchini navbatdagi inshoga tayyorlashga shu maqsadning pedagogik maqsadini, o‘quvchilarni nimaga o‘rgatishni, tafakkurini va nutqini qanday boyitishni, shuningdek, mashqlar izchillikda shu inshoning tutgan o‘rnini aniq ko‘z oldiga keltirish talab etiladi. Shuning uchun o‘quvchilarning bog‘lanishli nutqini o‘stirishga oid mashq turlarining bir yillik rejasini tuzib olish tavsiya etiladi. Rejada o‘quvchilar yoshiga mos bayon va inshoning barcha turlari hisobga olinishi lozim.

Bolalarni o‘z fikrini mustaqil yozishga (o‘qilgan matnni hikoya qilishga) o‘rgatishni, iloji boricha, erta boshlash ma‘qul. Buning uchun o‘quvchilar og‘zaki hikoya qilayotganda qo‘llangan alohida so‘zni yozishda gapni yozishga, so‘ng matn qismlarini yozishga va 1- sinfda o‘quv yilining ikkinchi yarmidan boshlab maxsus tanlangan kichik matn asosida bayon yozishga o‘rgatiladi. Ish quyidagi- cha yuritiladi: bayon uchun tanlangan matnni o‘quvchilar bir ikki marta o‘qiydilar



(o'qituvchi o'qib berishi ham mumkin); bolalar matn mazmunini to'g'ri tushunganliklarini aniqlash, o'qilgan matnni, uning g'oyaviy mazmunini to'g'ri tushunganliklarini aniqlash, o'qilgan matnni, uning g'oyaviy mazmunini qismlari orasidagi bog'lanishni to'liq bilib olishga qaratilgan suhbat o'tkaziladi; matn rejani tuzdiriladi (reja suhbat davomida ham tuzilishi mumkin); lug'at ishi o'tkaziladi (so'zning ma'nosi va yozilishi tahlil qilinadi); muhimroq sintaktik konstruksiyalangan va tilning tasviriy vositalariga diqqat jalb qilinadi. Ayrim gaplar hatto matn qismlari tuzdiriladi; o'quvchilar bayon matnni mustaqil yozadilar, o'qituvchi esa ular ishini kuzatadi, sinfdagi boshqa o'quvchilarga xalaqit bermaydi, ayrim bolalar yozgan bayonlarini o'zlari tekshiradilar, takomillashtiriladi va daftarni tekshirish uchun o'qituvchiga topshiradi.

Matn mazmunini qisqartirib qayta hikoyalash va bayon yozish murakkab logik priyomlardan foydalanishni talab qiladi, shuning uchun ham u to'liq yoki matnga yaqin qayta hikoyalash va nisbatan qiyin: bunda matndan ikkinchi darajali o'rinlarini tushirib qoldirib, asosiy, muhim o'rinlarini tanlab hikoya qilinadi. Buning uchun o'quvchining o'zi matnning asosiy mazmunini aniqlashi bog'lanishli, izchil qayta hikoya qilishi, uning hikoyasi matnni qisqartirish tarzida bo'lmasligi, o'zlashtirilgan matnning asosiy mazmunini o'z so'zlari bilan bera olishi zarur. Qisqartirib qayta hikoyalashga o'rgatish uchun bayon mazmunini qisqartirib tuzish oson bo'lgan hikoya tarzida matn tanlash tavsiya etiladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, yuqorida sanab o'tilgan turlardan foydalanish boshlang'ich sinf o'quvchilarining bog'lanishli nutqini o'stirishga xizmat qiladi. Bu esa o'quvchilar bilan bilan ijodiy ishlar o'tkazishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bekmurodov A. Ta'lim standartlari va tarbiyaviy jarayon samaradorligi // Xalq ta'limi. – Toshkent, 2000. № 5.
2. G'ulomova X., Yo'ldasheva Sh. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. Ma'ruza matnlari Toshkent, 2006.



PEDAGOGIK TEXNOLOGIYANING ASOSIY ELEMENTLARI

Qadamova Xurshida Olimjon qizi

Urganch tumani 27-son maktab o'qituvchisi

Telefon: +998 (90) 438 50 35

qadamovaxurshida_27@inbox.uz

Asqarov Azamat Komuljonovich

Urganch tumani 27-son maktab o'qituvchisi

Telefon: + 998 (93) 286 10 60

azamat.komuljonovich_1060@inbox.uz

Annotatsiya: Ushbu maqola ta'lim tizimining ajralmas qismi bo'lgan pedagogik texnologiya va uning asosiy elementlari haqi.

Kalit so'zlar: Pedagogik texnologiya, ta'lim, muloqot, baholash, axborot, tizim, metod, malaka, talab.

Xozirda ta'limni pedagogik texnologiyalarsiz tasavvur qilish qiyin, pedagogik texnologiyalar, turli interfaol metodlar talim tizimining asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Pedagogik texnologiyaning asosiy elementlari quyidagilardan iborat:

1. Pedagogik muloqot texnologiyasida o'qituvchi (pedagog)ning o'quvchi-talabalar bilan muloqoti.

Muloqotning vazifalari:

- shaxsni tanish, axborot almashish;
- kelgusi pedagogik muloqotni modellashtirish va tahlil etish;
- muloqotdan olinadigan tasavvurlar;
- muloqot yuzasidan fikrlash va fikr almashish;
- pedagogik muloqotni tashkil etishning texnikasi va texnologiyasi ;
- ishga ijodiy yondashish va boshqalar.

Pedagogik talab texnologiyasi.

- «pedagogik talab» tushunchasi, uning o'ziga xos xususiyatlari;
- xulq-atvor va ijtimoiy-madaniy qoidalarining namoyon bo'lishi;
- o'quvchiga bo'lgan hurmat va talab;
- pedagogik talabning psixologik tamoyillari va mezonlari.

2. Baholash texnologiyasi, pedagogik baho va uni mezonlash.

- xatti-harakatlardan olingan taassurot, voqelikni, ob'ekt va sub'ektni qabul qilish;
- baho berish usullarini tanlash, o'qituvchi(pedagog)ning o'z imkoniyatini tahlil etishi va ta'sir samaradorligini oshirishi;

-pedagogik baholash texnologiyasi.

3. Axborotning ta'sir ko'rsatish texnologiyasi.

- nutqiy-axborot berish, «ratsional axborot berish» tushunchalari, demonstratsion va ko'rgazmali vositalar-axborot olish vositalaridan biri sifatida;

- nutqiy ta'sir etish, suhbat, hamkorlik, tezis, argument, ko'rgazmalar va obrazlar;
- nutqiy ta'sir etish texnologiyasi;
- demonstratsion va ko'rgazmali vositalar, etik, iqtisodiy, estetik, gigienik materiallar;
- qabul qilishning fiziologik va psixologik xususiyatlarini demonstratsiya qilish texnologiyasi.

4. Pedagogik vaziyatlarni yaratish va uni yechish texnologiyasi.

- pedagogik konflikt tushunchasi – konflikt pedagogik texnologiya elementi sifatida, konflikt sub'ektlari orasidagi qarama-qarshiliklar, bo'sh va mazmunli konflikt;

- holat tahlili (voqeani aniqlash);
- konflikt;
- konfliktning xilma-xilligi (norozilik, qarshi chiqish);
- konfliktni yechish shakllari (yumor, hazil, mutoiba).

Zamonaviy pedagogik texnologiyaning qo'shimcha elementlari:

1. Psixologik muhit yaratish texnologiyasi.

2. Guruh faoliyatini tashkil etish texnologiyasi.

3. Muvaffaqiyatli va muvaffaqiyatsiz holatlarni tashkil etish texnologiyasi.



4. O‘quvchining xatti-harakatiga pedagogik reaksiya qilish texnologiyasi.
5. Xulqi va odobi yomon o‘quvchi-talabalar bilan ishlash texnologiyasi.
6. Etik himoya texnologiyasi.
7. Muammoli vaziyatlar yaratish texnologiyasi.
8. Pedagogik vosita texnologiyasi.
9. Pedagogik improvizatsiya texnologiyasi

Pedagogik texnologiya atamasiga har bir didakt olim o‘z nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda ta’rif bergan. Hali bu tushunchaga to‘liq va yagona ta’rif qabul qilinmagan. Ushbu ta’riflar ichida eng maqsadga muvofiq‘i YUNESKO tomonidan berilgan ta’rif sanaladi. Pedagogik texnologiya - ta’lim shakllarini optimallashtirish maqsadida o‘qitish va bilimlarni o‘zlashtirish jarayonining inson salohiyati va texnik resurslarni qo‘llash, ularning o‘zaro ta’sirini aniqlashga imkon beradigan tizimli metodlar majmuasidir.

birlashtirish doirasidagi faoliyatni aks ettiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. O‘quv uslubiy majmua.
2. Tolipov O‘., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot.
3. Turg‘unov S.T., Maqsudova L.A. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish.



BOSHLANG'ICH SINFLARDA SINFDAN TASHQARI O'QISH MASHG'ULOTLARINING MAZMUNI

Qo'chqarova Adiba SHaripovna
“Bo'ston tumani 18-maktab”
Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Islohotning asosi esa yangi pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga olib kirish va shu asosda o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish, ularning ongi, dunyoqarashini o'stirishdir. Maqolada ana shu narsalar haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Ezgulikka muhabbat, yovuzlikka nafrat uyg'otish, bog'lanishli nutqni o'stirish, adabiy-estetik tafakkur

Har bir avlod oldida insoniyat yaratgan jamiki boyliklarni, bilimlarni o'rganish, o'zlashtirish va rivojlantirish vazifasi turadi. Hayot taraqqiyoti va jamiyat rivojini shusiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bu vazifani amalga oshirishning birdan-bir yo'li ta'lim tizimini tinmay takomillashtirib borish orqali yosh avlodni ilm-fan asoslari bilan chuqur qurollantirishdir. Zero, ilm olish yo'lidagi izlanish insonning e'tiqodi va dunyoqarashini shakllantiradi, ma'naviy-axloqiy kamolot sari yetaklaydi.

Respublikamizda ta'lim va tarbiya jarayonida katta islohotlar amalga oshirilmoqda. Islohotning asosi esa yangi pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga olib kirish va shu asosda o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish, ularning ongi, dunyoqarashini o'stirishdir.

Sinfdan tashqari ishlar darsdan tashqari mashg'ulotlar hisoblanib, bunday mashg'ulotlar o'quvchilarning qiziqishlari, orzu-intilishlari, ulug' kunlar, bayramlar, sanalarga munosabati asosida o'tkaziladi. Sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarni jamoatchilik ruhida tarbiyalaydi, ularni bir-biriga yaqinlashtiradi, fikrlar hamohangligini ta'minlaydi, mustaqil fikrlashga, ijodkorlikka, hozirjavoblikka undaydi. Hamda hayotda, jamiyatda bo'layotgan voqea-hodisalarga nisbatan befarq bo'lmaslikka chorlaydi.

O'quvchilarni nafaqat darsda, balki darsdan tashqari paytlarda ham tilimizga hamda xalq og'zaki ijodiga bo'lgan hurmatini, mehr-muhabbatini, uni o'rganishga bo'lgan qiziqishini kuchaytirish hamda ularni jamoatchilik asosida mustaqil ishlashga o'rgatish bugungi kunda boshlang'ich ta'lim oldida turgan asosiy masalalardan biridir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy kamolotida, shu bilan birga, ularni ijodkorlikka o'rgatishda sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlarining roli nihoyatda katta bo'lib, boshlang'ich sinf o'qituvchisidan bu mashg'ulotlarni to'g'ri rejalashtirish talab etiladi. Birinchi sinflar uchun sinfdan tashqari mashg'ulotlar uchun dasturda aniq soat belgilanmagan. Sinfdan o'qish mashg'ulotlari uchun 60 soat vaqt ajratilgan bo'lib, birinchi sinfdan sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlarida savod o'rgatish darslarida hosil qilingan ko'nikma va malakalar, bolalarning ona-Vatan, istiqloq, milliy qadriyatlar haqidagi tasavvur-tushunchalari kengaytiriladi, boyitiladi.

Sinfdan tashqari o'qish “Boshlang'ich ta'lim” dasturi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, unda ko'zda tutilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda yaqindan yordam beradi. Buning uchun o'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini tarbiyalash, ularni oddiy kitobxondan ijodkor kitobxon darajasiga ko'tarish talab etiladi. O'quvchilarda kitobga havas uyg'otishda har bir bolaga yakka tartibda yondashish, shaxsiy qiziqishlarini hisobga olish zarur. Bolalarda kitob ustida ishlash malakasini shakllantirish ularni kitobxonlik madaniyatini tarbiyalashning muhimomilidir.

Sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlari ikki haftada bir marta o'tkaziladi va o'qish uchun ajratilgan soatlardan foydalaniladi. Badiiy va ilmiy-ommabop asarlar mustaqil ravishda va izchil o'qib borilsagina o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirishga, shakllantirishga xizmat qiladi. Shunga erishish kerakki, o'quvchilar o'zlariga tanish ijodkorlarning asarlarini tanlab o'qisinlar.

Sinfdan tashqari o'qish tanish bo'lmagan mualliflarning ham kitoblari muqovasi, titul varag'i, kirish so'zi, mundarijasi va suratlariga qarab asarning taxminiy mazmunini aniqlash vazifasini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Bolalarda ezgulikka muhabbat, yovuzlikka nafrat uyg'otish, bog'lanishli nutqni o'stirish, adabiy-estetik tafakkurini yuksaltirish o'qish darslarining tub mohiyatini tashkil etadi.

Men boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlari mazmuni mavzusini yoritish jarayonida quyidagi xulosalarga keldim:

- Sinfdan tashqari o'qish sinfdan o'qish bilan uzviy bog'liq ravishda uyushtiriladi.



- Sinfdan o'qish sinfdan tashqari o'qish uchun zarur bo'lgan o'qish malakalarini shakllantiradi, o'qigan asarni tushunishga o'rgatadi, lug'atini boyitadi.
- Sinfdan tashqari o'qish, o'z navbatida, qiziqarli, o'ziga jalb etadigan faoliyat bo'lib, bolalarning bilim doirasini boyitadi, qiyoslash uchun material beradi.
- Sinfdan o'qish – o'quvchini hayotga tayyorlash vositasi, sinfdan tashqari o'qish esa hayotning o'zidir.
- Sinfdan tashqari o'qishga rahbarlikning asosiy shakli maxsus sinfdan tashqari o'qish darslari hisoblanadi.
- Sinfdan tashqari o'qish darslarining muhim vazifalaridan biri o'quvchilarda kitob o'qishda mustaqillikni tarbiyalash hisoblanadi.
- Sinfdan tashqari o'qish darslarida qiziqarli mashqlarga alohida o'rin beriladi. Bunday darslarda adabiy viktorina, eng yaxshi insholar, topishmoqlar topish, tanlovlar uyushtirish, topishmoqlar albomini tuzish, tayyorgarliksiz jamoa bo'lib yoki yakka tartibda ertaklar to'qib aytish, o'quvchilar hayoti haqida, yozuvchilarning chuqur ma'noli gaplari va maqollar, latifalar aytish mumkin. Ba'zan o'qituvchilar bunday darslarda “Hazil daqiqasi”, “5 minut o'ylash uchun”, “Topishmoqlarni top”, “Bilimdonlar klubi”, ayniqsa, 2000-yildan beri eng keng tarqalgan teleo'yin “Zakovat”ga o'xshash o'yinlarni o'tkazib turadilar.
- Sinfdan tashqari o'qish darslarini o'tkazish rejasini o'quv yilining yarmi yoki butun o'quv yili uchun tuzib, darslar sistemasini belgilab olish tavsiya etiladi.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Н.Муслимов ва бошқалар. Педагогик компетентлик ва креативлик асослари. Тошкент.: Илм зиё, 2015.-210б.
2. Мирзаахмедов М.А. Алгебрадан масалалар ва тестлар тўплами. Тошкент.: Ғофур Ғулом, 2017.-176б.
3. Мирзаахмедов М.А., Исмаилов Ш.Н. Математикадан қизиқарли ва олимпиада масалалари. Ўқув қўлланма.-Тошкент.: Турон-икбол, 2017.-128б.
4. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. - Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – 46 б.
5. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисидаги Қонуни. –Т.: Ўзбекистон, 2020 йил 23 сентябрь ЎРҚ-637-сон.
6. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 6 апрелдаги “Умумий ўрта ва ўрта махсус, касб-хунари таълимининг давлат таълим стандартларини тасдиқлаш тўғрисида”ги 187-сонли қарори
7. Абулғанова-Славская К.А. Стратегия жизни. – М.: Мқслғ, 1991. – 299 с.
8. Абдукаримов Х. «Профессиональное воспитание личности учителя в процесса непрерывного педагогического образования» Автореф.дисс. ... докт. пед.наук.-Т.1997.-46с
9. Абдуллаева Қ.А., Сафарова Р.Ф. ва бошқ. Бошланғич таълим концепцияси. // Бошланғич таълим ж. –Т.: 1998. -№6. – Б. 12-18.



FRANSUZ TILIDA PREDLOGLARNING ISHLATILISHI

Qodirova Hilola Qo'chqarova Rayxon Hayitova Sharofat.

Xorazm viloyati Xanqa tumani 10-sonli umumiy
o'rta talim maktabi fransuz tili o'qituvchilari

Annotatsiya: Mazkur maqolada fransuz tilidagi predloglarning gaplarda ishlatilishi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: predlog, kelishik qo'shimchalari, sodda predloglar, qo'shma predloglar, urg'usiz olmoshlar, inkor yuklamasi.

Predlog yordamchi so'z bo'lib, ko'makchilar kabi gapda so'zlarni bir-biri bilan bo'glash va ularning uzaro munosabatini ko'rsatish uchun xizmat kiladi. Fransuz tilida kelishiklar yo'q, binobarin otlar turlanmaydi va kelishik qo'shimchalarining ma'nosi turli predloglar yordamida ifodalanadi.

Predloglar tuzilishiga ko'ra sodda va qo'shma bo'ladi:

1) Sodda predloglar: de, à, par, sous, va boshqalar.

2) Qo'shma predloglar: parmi, envers, hormis va boshqalar.

Qoidaga ko'ra predlogli so'z qurilishida predlog oldin qo'llanadi.. Agar fe'lining noaniq shakli so'z qurilishining tarkibiy qismini tashkil etsa, predlog bilan uning o'rtasida quydagilar qo'llanishi mumkin:

a) urg'usiz olmoshlar: Je suis content de vous voire. Je consens à y aller. Il a passé me saluer.

b) inkor yuklamasi va rien olmoshi: J'avais décidé ne pas dormir cette nuit. Je tâcherai de ne rien oublier.

Avec predlogining yuqoridagi qoidadan mustasnoligi shundaki, bu predlog so'z qurilishida o'z tarkibidan ajralib turadi va o'z navbatida boshqa predlog orqali bog'lanadi:

Le château, tout blanc.

Avec, à son flanc Le soleil couché...

Biror fe'l yoki ot birdan ortiq bir hil bo'lgan predlogli to'ldiruvchi bilan qo'llanishi mumkin. Bunday holatlarda har bir to'ldiruvchi oldida predloglarning takrorlanishi yoki takrorlanmasligi kuzatiladi. Shu nuqtai nazardan quyidagi qoidalarga e'tibor qaratish lozimligi uqtirb o'tiladi. - A, en, de predloglari har bir to'ldiruvchi oldida takrorlanadi:

Il a parlé aux professeurs et aux étudiants.

Elle aime à chanter et à danser.

Exercices d'orthographe et de grammaire.

Je crains de prendre froid et de tomber malade.

Voyage en Asie et en Agrique.

- A, de, en predloglari quyidagi holatlarda takrorlanmaydi:

a) agar so'z qurilishidagi ikki ot bir hil predlogni ifodalasa: J'ai reçu une lettre de mon ami et collègue N. Il plaçait toutes ses espérances en son fils et héritier.

b) agar so'z qurilishidagi ikki ot bir umumiy ma'noni anglatasa: Inspecteur des eaux et forêts. Ecole des arts et métiers. Il se mit à aller et venire.

c) bir hildagi uyushiq bo'laklar oldida predlog qo'llanilmasligi mumkin: Elle se souciait fort peu de penser. Elle se souciait de manger, boire, chanter, danser, crier, rire, dormir. Boshqa predloglarning takrorlanishi ixtiyoriy xol hisoblanadi:

Dans les villes et dans les villages.

Sur les tables et (sur) les chaises, des papiers étaient épars.

Ko'p qo'llanuvchi predloglardan biri de predlogi bo'lib, u turli so'zlar bilan qo'llanishiga qarab turli ma'nolarni anglatadi: 1. O'zbek tilidagi qaratqich kelishigi ma'nosiga mos kelib, biror predmet yoki shaxsga mansublikni, qarashlilikni yoki atalganlikni bildiradi.

Entre predlogi ikki jonzot yoki narsalarni ajratib turuvchi oraliq yoki masofani ifodalaydi, joy va paytni ko'rsatadi, "o'rtasida, orasida" deb tarjima qilinad.. Il a pris place entre les deux soeurs. Il est rentré chez lui entre chien et loup.

FOYDALANILGAN ADABIYOT

1. Nathalie Blé, Philippe Santinan. Grammaire pour adolescent. Clé International Sejer. 2005.
2. D.A.Alikulova. D.A. Juraboeva. Fransuz tili darsligi. Toshkent «Uzbekiston» 1999



MILLIY QÁDIRIYATLAR, JASLAR TÁRBIYASI HÁM PUQARALIQ JÁMIYETINIŇ RUWXIY KELBETI.

Qosnazarova Palzada Quwanishbaevna

Berdaq atindag'i Qaraqalpaq Mamleketlik
Universiteti Yuridika fakulteti

Jaslardıń milliy qádiriyatlarga múnásibeti, mánawiyat, milliy ideya tiykarında erkin turmıs, jańa Ózbekstandı qurıw jolındaǵı háreketleri, maqset hám máplerin ulıwmalastratuǵın, analiz etetuǵın mine usı ideyalardı bayıtıw hám isenimine aylandırıw menen baylanıslı. Bul is-ilájlardı jolǵa qoyıw ushın tórt máselege itibar beriw lazım hám zárúrligi kórsetilgen:

Birinshiden, aldaǵı wazıypalardı, jaqın keleshegimizdiń rawajlanıw principlerin kerek bolsa ondaǵı kemshiliklerdiń sociallıq sebeplerin úyrenetuǵın mámleketlik emes, gárezsiz shólkemler iskerligin elede jetilistiriw, olardıń imkaniyatlarınan tolıq paydalanıw zárúr¹.

Ekinshiden, tez pát penen ózgerip baratırǵan úzliksiz jańalanıp atırǵan búgingi ómirde turmısımızda júz berip atırǵan waqıya hádiyseler, Ózbekstan mámleketi gárezsizliginiń social-ekonomikalıq, siyasiy, huqıqiy, mádeniy-mánawiy tarawların elede bekkemlew hám turaqlastırıwǵa bolǵan talap hám ıqtıyajlar mánawiy, aǵartıwshılıq islerdi jáne de jedellestiriwdi ulıwmalıq maqsetke aylandırıw².

Ushinshiden, milliy ideyanıń kúshi bir tárepten aǵartıwshılıq, úgit-násiyatlaw isleri onıń nátiyjeliligine baylanıslı bolsa, ekinshi tárepten jaslardıń kúndelik ómirde ushırasıp atırǵan mashqalalardı túsiniwleri, olardıń múnásibetlerine pikirge qarsı pikir menen, ideyaǵa qarsı ideya menen juwap bere alıwı, onı qanday jol menen sheship atırǵanlıǵına tikkeley baylanıslı.³

Jaslardıń «minez qulqında watarpárwarlıq, insanpárwarlıq, miynetsúygishlik hám jámaatpárwarlıq pazıyetlerin payda etiw – xarakterdi korrekciyalawdur. Shaxs jaqsılıq, jamanlıq, hújdan, ádalát, wazıypa, ar-namıs, baxıt hám ómir mazmunı-mánilerin anlap jete alsa, demokratiyalıq jámiyette sociallıq aktiv shaxsqa aylanadı.⁴

Jańa jámiyettiń maqset hám ideyalarına kóre jańa áwlad dúnya qarası qalıplespekte. Jańa jámiyettiń ornawı hám rawajlanıwı óz nábwetinde mánawiy jańalanıwǵa, rawajlangan hám qalıplesken áwladlar ruwxınıń pákleniwinde talap etedi. Jańa jámiyet eń áwele millet arzıwlarında, qálbinde pisip jetilisedi. Soń ol obektiv reallıqqa aylanǵan keń jámiyetshiliktiń turmıs hám rawajlanıw tárizin sáwlelendiriwshi ideya tárizinde qarar taptı. Mine usı jámiyet jetistirgen insanlar, keń jámiyetshiliktiń joqarı dúnya qarası hám sana-sezimine zárúrlık sezdi. Olar jańa jámiyettiń kúsh qúdiretinin belgisi bolıp ǵana qoymastan, milliy sana hám jańa dúnyaqarastıń qalıplesiwinde jaslarda milliy maqtanıstı bekkemlewde júdá úlken áhmiyetke iye bolmaqta.⁵

Dúnyalıq puqaralıq jámiyette hár kim óz isin qılıw, shuǵıllanıwı, sonday-aq, «din dinniń isin, mámleket mámlekettiń jumısın qılıwı kerek. Mámleket diniy máselelerge aralaspaǵanıday, dinde mámlekt islerine siyasiy processlerge aralaspawı kerek. ».⁶

Jaslar mánawiyatın asırıw máseleleriniń birinshi yaki ekinshi dárejeli wazıypaları joq. Olardıń hámmesi bir jolda hámde turaqlı dıqqat-itibarda turıwı kerek. Sonıń ushın tálim-tárbiya, bilim hám dúnya qarasqa úlken áhmiyet berilmekte. Bala tárbiyası besikten baslanganıday, mánawiy kámillik shańaraq, baqsha, mektep, joqarı oqıw orınları hám taǵı basqa da orınlardan baslanadı. Ol keshiktirilse, qıysıq shaqanı sindırmastan tuwrılar qánsheli qıyın bolsa, mánawiy kámillikke erisiw dá sonsheli keshigedi, yaki awır keshedi⁷.

Biz búgin puqaralardıń erkinligin hám gárezsiz sanasına tiykarlangan jámiyet qurıp atırǵan

1 Иноятлов С. Маънавий мезонлар. Т.: «Маънавият», 2017 й., 65-б.

2 Иноятлов С. Маънавий мезонлар. Т.: «Маънавият», 2017 й., 65-б.

3 Иноятлов С. Маънавий мезонлар. Т.: «Маънавият», 2017 й., 66-б.

4 Қаххорова М. Маънавий идеал. Т.: «Маънавият», 2008-й., 46-б.

5 Бахромов Б. Ёшларни сиёсий фаоллигида миллий ғоя. Т.: «Янги аср авлоди», 2009й., 85-б.

6 Исанова Ф. Маънавият ва жамият тараққийети. //Маънавий-ахлоқий иммунитет: таҳдидлар ва уларнинг манбалари. Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. Т.: «MUHARRIRNASHRIYOTI», 2011й., 51-б.

7 Сафаров С. Ёшлар ва ғоявий тарбия. Ёшларда ғоявий иммунитетни шакллантиришнинг долзарб муаммолари. //Маънавий-ахлоқий иммунитет: таҳдидлар ва уларнинг манбалари. Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. Т.: «MUHARRIR NASHRIYOTI», 2011-й., 58-б.



ekenbiz, jaslarımızga jámiyette toliq erkinlik bolmasligın, erkin pikirlew juwapkersizlik hám óz wazıypasın umıtw emesligin túsindirip barıwımız zárúr. «Men toliq erkin puqaraman, erkin sanalı insanman, bilgenimdi qılamın» uranı menen jasaw tárizin ózgertiriw insannıń social hám milliy máni-mazmunına jat illetler.¹

Jaslardıń kóz-qaraslarında mánawiyat penen baylanıslı máselelerde aljasıwlar, qarama-qarsılıqlar kóp. Dúnyaqaras máselesi ótmishke múnásibettiń ózgeriwi, kızıǵıwshılıqtıń ósiwi arqalı oǵada aktual bolmaqta. Óytkeni diniy mistikaǵa kritikalıq emes múnásibet kúsheymekte. Ádeplilik qádrیاتlardı tiklewge urınıw processlerinde nápsini tıyıw, sabır-qanaatlı bolıw hám basqa máseleler bazı hallarda bir tárepleme talıqlanbaqta.²

Juwmaqlap aytqanda, búgingi dáwir ushına aktual hám tiykarǵı esaplangan mánawiyat talapları millet tariyxı hám onı túsiniw jetiw dárejesine baylanıslı boladı. Sebebi, mánawiyat, milliy ideya adamlardıń qálbinde, sanasında jetilip, usı jer, diyar, Watan xızmeti ushın qaratılǵanda ǵana onıń áhmiyeti hám abıroyı da artıp baradı, jámiyettiń turaqlı rawajlanıwın támiynleydi.

PAYDALANILG'AN ADEBIYATLAR

1. Инояттов С. Маънавий мезонлар. Т.: «Маънавият», 2017 й.,
2. Бахромов Б. Ёшларни сиёсий фаоллигида миллий ғоя. Т.: «Янги аср авлоди», 2009й.
3. Қаҳҳорова М. Маънавий идеал. Т.: «Маънавият», 2008-й.,
4. Исанова Ф. Маънавият ва жамият тараққиёти. //Маънавий-ахлоқий иммунитет: таҳдидлар ва уларнинг манбалари. Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. Т.: «MUHARRIRNASHRIYOTI», 2011й.,
5. Сафаров С. Ёшлар ва ғоявий тарбия. Ёшларда ғоявий иммунитетни шакллантиришнинг долзарб муаммолари. //Маънавий-ахлоқий иммунитет: таҳдидлар ва уларнинг манбалари. Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. Т.: «MUHARRIR NASHRIYOTI», 2011-й.,

1 Усмонкулов Б. Миллий ғоя. Маънавият, 2014й., 9-б.

2 Эркаев А. Миллий ғоя ва маънавият. Т.: «Маънавият», 2002-й., 19-б.



TEKNOLOGIYA DARSLARIDA QO‘L MEHNATIDAN FOYDALANISH

Rajabova Iroda

Urganch shahar 11-son umumiy o‘rta ta‘lim
maktabining texnologiya fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mehnat ta‘limi jarayoni o‘quvchilarda ushbu yosh uchun bilim, mehnat, ahloqiy, estetik, iqtisodiy-ekologik va aqliy imkoniyatlarni aniq mehnat jarayonlarida rivojlantirishga qaratilgan, natijada ularni mehnatga tayyorlashni keyigi sinflarda davom ettirilishi uchun zarurligi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: qo‘l mehnati, mehnat, rivojlantirish, o‘qitish metodlari.

O‘quvchilar qo‘l mehnati sohasida bajaradigan ishlar orqali mehnatning juda ko‘p xususiyatlarini farqlash, materiallarning o‘xshash xususiyatlarni izlash va topish, ularning aniq amaliy maqsadlar uchun tanlanishini asoslab berishni asta-sekin o‘rganib boradilar. Bularning barchasi bolalarda berilgan qo‘l mehnati topshiriqlari va vazifalarni to‘g‘ri bajara olish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Qo‘l mehnati tamoyillarini o‘zida mujassam etgan maishiy–xo‘jalik mehnati ham o‘ziga xos xususiyatligi bilan ahamiyatli hisoblanadi. Maishiy–xo‘jalik mehnatda bolaning qatnashishi ancha erta boshlanadi. Yosh bolaning hatto chetlangan jismoniy va ma‘naviy imkoniyatlari ham navbatchilik vaqtida namayon bo‘ladi. Bola binoni, maydonchani tartibga keltirish va shu kabilar bilan aloqador mehnat topshiriqlarini bajarib turadi. Bu o‘z navbatida bolada o‘zining mustaqillik, faollik xislatlarni namoyish etishga imkon beradi.

Maishiy xo‘jalik mehnati mazmunida ma‘lum davr, vaqt ichida takrorlanib turadigan ishlarni ko‘ramiz. Undagi mehnatning o‘ziga xos rang-barangligi yoki bir-biriga yaqinligi, yoki o‘xshashliklari bilan takrorlanibgina qolmay, balki tipik hayotiy vaziyatlarni ham yuzaga keltirib turadi. Bunda bolalarning mehnat topshiriqlarini bajarishida ulardagi harakatlarning batartibligi, ish yuzasidan qo‘yilgan topshiriq va vazifalarga to‘g‘ri munosabatlarni o‘rnata bilishi, uyushganligi, ishlash ishtiyoqi talab qilinadi. Bunday ishlarni muntazam bajarib turilishi bolalarda alohida emosional kayfiyat, mehnatsevarlik, jamoatchilik asoslari kabi ahloqiy sifatlarini shakllanishiga yordam beradi. Maishiy-xo‘jalik mehnati jarayonida, shuningdek, bolalarga tejamkorlik bo‘lish xislatlari, ko‘zga ko‘rinmas tartibsizlikni seza bilish va o‘z tashabbusi bilan uni bartaraf etish qobiliyatlarni tarkib toptirish uchun juda yaxshi imkoniyatlar yaratadi.

Boshlang‘ich sinflarda qo‘l mehnatiga o‘rgatishning tashkil qilish shakllaridan yana biri - tabiat quchog‘idagi mehnat turlari hisoblanadi. Bolalarning tabiat quchog‘idagi mehnati jismoniy rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi, harakatni takomillashtiradi.

Texnologiya darslarining yana bir muhim vazifasi - bolalarni axloqiy tayyorlash va ularga jamoada ishlash, ijodiy tashabbus, tashkilotchilik qobiliyatlarini namoyish qilishni o‘rgatishdan iborat. Zero, bolalarni mehnatga ruhiy tayyorlash o‘ziga xos murakkab, uzoq davom etadigan va mazmun-mohiyatiga ko‘ra ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, u bolalarni butun mehnat ta‘limi va tarbiyasiga singib ketadigan omillardan biri hisoblanadi. Omillarning har biri garchi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lsada, mehnatga ahloqiy tayyorlashga juda yaqindir. Bolani mehnat qilishga o‘rgatish va buning uchun uni ruhiy jihatdan to‘g‘ri tayyorlash kerak. Bu unda mehnatga nisbatan, ayniqsa, uning yoshiga muvofiq keluvchi ongli va ijobiy munosabatlarni tarkib toptirish, unda amaliy malaka va ko‘nikmalarni egallab olishiga qiziqishni shakllantirish demakdir.

Bolalarni mehnat qilishga ruhiy tayyorlash turli psixologik jarayonlarni rivojlantirish va takomillashtirishni nazarda tutadi. Bular sezib anglash, psixomotor, hissiy idrok, diqqat, xotira, tafakkur va boshqalardir. Boshqacha qilib aytganda, ular mehnatning psixologik komponent(tarkibiy qism)lari deyiladi.

Maktab ta‘limining hozirgi bosqichida o‘quvchilarni mehnatga tayyorlash, o‘ziga kelayotgan avlodning ta‘lim va tarbiyasidagi eng zarur masalalardan biri. Qo‘l mehnatiga o‘rgatishda boshqa fanlarni o‘rgatishda bo‘lganidek, o‘qitishning xilma-xil usullarini qo‘llab, ular yordamida o‘quvchilarning bilim, malaka va ko‘nikmalarini egallab olishga, bilish qobiliyatlarini rivojlanishiga erishiladi. O‘qituvchi darsga tayyorlanar ekan, har bir tayyor mavzu mazkur dars uchun uning maqsad va vazifalariga muvofiq keladigan ishni usul va ko‘rgazmali qurollarni tayyorlaydi. O‘quvchilarga bayon etilayotgan aynan buyum emas, balki o‘z bilimlari, malaka va mahoratlari bilan



buyumni shaklan mazmunli bajarilishni yod etishlari talab etiladi. O‘quvchilarni qo‘l mehnatiga o‘rganishda ta’limiy ishlarini to‘g‘ri tashkil etish va pedagogik usullariga qo‘yiladigan umumiy talablarga muvofiq tarzda amalga oshirish kerak. Texnologiya fani o‘qituvchisi har tomonlama etuk va o‘z ishini mohirona egallagan bo‘lishi kerak. O‘qituvchining dasga tayorgalik darajasi, mavzu mazmunini yoritish mahorati, intilishi, hatti-harakati dars davomida o‘quvchilarning diqqat e’tiborlari susaymasligiga, fikrlarning jamlangan bo‘lishiga, ularning chambarchasligiga yo‘llangan bo‘lishi kerak.

Adabiyotlar:

1. Mukhamadovna T. M., Sharipovna H. A., Supkhonovna H. N. The system of development of professional competence in future primary school teachers //SYSTEM. – 2020. – T. 7. – №. 13. – С. 2020.
2. Mukhamadovna T. M., Djamshitovna K. M., Narzullayevna Q. S. Art as a significant factor of forming world outlook of students //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – T. 11.
3. Mukhamadovna T. M. Challenges of Feminism and Gender Equalization //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – T. 10.



BOSHLANG'ICH TA'LIM DARSLARIDA O'QITUVCHINING MAHORATI

Raxmonova Barfiya

Navoiy viloyati, Qiziltepa tumani
15-umumiy o'rta ta'lim maktabi
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim darslarida o'qituvchining mahorati va yangi usullar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: mahorat, ta'lim, tarbiya, boshqotirma, xotira mashqi, xatolarni top...


Ustozlar zimmasida kelajagi buyuk davlatning komil va har tomonlama barkamol, vatanparvar hamda mehnatsevar insonlarni tarbiyalashdek yuksak vazifa yotadi. Ular shogirdlariga ta'lim-tarbiya beradilar, lekin evaziga hech qanday mukofot talab qilmaydilar. Ular uchun eng oliy mukofot shogirdlar kamoli hamda yutug'idir. O'quv jarayonida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish, ularning tarbiyasiga jiddiy e'tibor qaratish juda muhim. Bu vazifani amalga oshirishda innovatsion va axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish muhim o'rin tutadi. O'sib kelayotgan yosh avlodni o'qitish va komil inson qilib voyaga yetkazish dars va sinfdan tashqari ishlar samaradorligini sezilarli darajada oshirishni talab etadi. Chunki, o'quvchilar vatanga sadoqatni, mehnatsevarlik va tejamkorlikni maktabdan o'rganadi. O'quvchilarning ongida tabiat bilan qanday munosabatda bo'lishni, hayotiy jarayonlarni ustozlardan oladi. Bunda ustozlardan xalqimizning asrlar davomida shakllanib kelgan, avloddan-avlodga ko'chib o'tgan "Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani ta'limdan ajratib bo'lmaydi" degan sharqona hayot falsafasi ko'rinishida bizning qon-qonimizga singib ketganligidadir. Xalqimiz uchun boqiy, o'lmas bo'lgan qadriyatlarini yanada qadr toptirish-bu davrning, bugunning talabi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'qituvchisi juda mahoratli va mohir bo'lishi lozim. U darslarni zamonaviy pedtexnologiyalar asosida tashkil etsa, uning mahoratidan darak beradi.

O'qitishning „Zig-zag“ texnologiyasi. Ushbu texnologiya asosida o'qitishda tarqatma materiallar ta'lim oluvchilar tomonidan yakka tartibda va guruh-guruh bo'lib o'zlashtiradi. Ular dars jarayonida va darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quv adabiotlari, matnlar bilan ishlashni o'rganadilar. O'zaro suhbat, bahs-munozara, turli savollar orqali ularning matn mazmunini qay darajada o'zlashtirgani nazorat qilinadi, kichik guruhlarning faolligi va o'zlashtirish darajasi tez baholanadi.

Metodning afzalligi

- hajm jihatidan katta materialni mustaqil o'zlashtirish imkoniyati mavjud;
- kichik guruhlarda ishlash jarayonida guruh a'zolari hamjihatligi mustahkamlanadi.

Boshqotirma:





Xotira mashqi: Bunda sonlar aralash holda aytiladi. Bir ozdan so‘ng so‘ralib, o‘quvchilar xotirasi sinalladi.

38	22	46	10	62	65	19
12	28	47	29	31	39	42
67	3	34	20	44	1	60
25	61	26	41	40	51	35
49	21	70	5	68	30	15
37	58	8	43	11	56	66
18	17	36	69	59	63	27

Tushib qolgan sonlarni toping. Javobi: 2,4,6,7,9,13,14,16,23,24,32,33,45,48,50,52,53,54,55,57,64.

“Xatolarni tuzating” usuli.

Kitop o‘z do‘stining dilini og‘iritmaydi kitopning suxbatidan inson foyda topadi bunday fayizli foydani boshqa xech qayirdan topib bo‘lmaydi kitobni o‘qigan inson o‘tmishdan va kelajagdan ogox bo‘ladi.

Topshiriq: 4 ta gapni chegarasini va 10 ta imloviy xatoni toping.

O‘qitishning „Rolli“ –sahnalashtirish usuli

Bu usul orqali fan asoslari chuqur egallanadi. O‘quvchilari ma‘lum jarayon yoki hodisaga doir amaliy hatti-harakatlarni bajaradi.

Xullas, dars jarayonida asosiy tashabbus o‘qituvchi qo‘lida bo‘ladi. U darsini tez-tez o‘tish, ko‘proq bilim berish bilan mashg‘ul, lekin sinfda bu ma‘lumotlarni barcha o‘quvchi turli tarzda qabul qiladi, ularning xohish istaklari turlicha ular passiv eshituvchi, quloq soluvchi, bu hodisalar o‘quvchilarning o‘quv jarayonidagi ma‘suliyatini, javobgarlik hissini susaytiradi. Bu hol ularni erkin fikrlash mustaqil o‘ylash imkoniyatidan mahrum etadi. Ilm-quyosh, o‘quvchi nihol, o‘qituvchi esa quyosh nurini niholga eltuvchi zarrachadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Boshlang‘ich ta‘lim” jurnali 2018- yil,3-son
2. Darsliklar
3. Internet saytlari.



INGLIZ TILI DARSLARIDA NUTQIY VAZIYATLARNING UMUMIY XUSUSIYATLARI

Rozimova Shahribonu Ulug'bek qizi

Xiva shahar Olimpiya va milliy sport turlari bo'yicha
davlat ixtisoslashtirilgan sport maktab internati
ingliz tili fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada nutq madaniyatini o'zlashtirishga nafaqat o'rganish maqsadi, balki kommunikativ muammolarni hal qilish vositasi sifatida yondashsak, unda bunday pozitsion burilish chet tilini o'qitishning butun jarayoniga yangicha qarashga yordam berishi tadqiq qilingan.

Kalit so'zlar: Nutq, kommunikativ, tasavvurlar, tasvirlar, sxemalar, imo-ishoralar, mimika.

Nutq nihoyatda ko'p qirrali va murakkab hodisa deyiladi. Nutq kabi u uchta vazifani bajaradi: kommunikativ, his-tuyg'ularni ifodalash va fikrni ifodalash funktsiyasi. Nutq har doim tinglovchiga qandaydir tarzda ta'sir qiladi (ayniqsa, his-tuyg'ularni ifodalashda), shuning uchun hissiyotlarni ifodalash funktsiyasi kommunikativ funktsiya bilan chambarchas bog'liq. Nutqda fikr moddiylashadi va nafaqat boshqa odamlar uchun, balki sub'ektning o'zi uchun ham mavjud bo'ladi. Nutq shakllarida, qat'iy va uyg'un til konstruksiyalarida fikr shakllanadi va tashqi ifodasini topadi. Fikrlash nutqqa qaraganda kengroqdir, chunki u og'zaki vositalar bilan bir qatorda tushunchalar, tasavvurlar, tasvirlar, sxemalar, rasmlar bilan ishlaydi. Ammo ba'zi jihatlarida nutq kommunikativ imkoniyatlar nuqtai nazaridan fikrdan kengroq bo'lib chiqadi: u o'zgaruvchan bo'lib, imo-ishoralar, mimika va intonatsiya, pauzalar yordamida nafaqat mazmunni etkazadi. Bundan tashqari, nutqni til me'yorlari nuqtai nazaridan ham, uning kommunikativ ta'sirchanligi nuqtai nazaridan ham baholash mumkin. Nutqning har uchala funktsiyasi ham uning kommunikativ xususiyatini ta'kidlaydi. Bizning holatda, nutqni fonetik kodlangan (ya'ni og'zaki) nutq deb hisoblasak, u aloqa vositasi ekanligini ta'kidlaymiz. Chet tilini o'rgatishning asosiy maqsadi - kommunikantlarning o'zaro tushunishiga erishish uchun talabalarning uni haqiqiy muloqot sharoitida qo'llash qobiliyati - cheklangan soat jadvali, maktabning og'ir moddiy sharoitlari bilan ko'pchilik o'qituvchilar tomonidan juda shubha bilan qabul qilinadi.

Ammo agar biz ushbu materialni o'zlashtirishga nafaqat o'rganish maqsadi, balki kommunikativ muammolarni hal qilish vositasi sifatida yondashsak, unda bunday pozitsion burilish chet tilini o'qitishning butun jarayoniga yangicha qarashga yordam beradi. G.V. Kolshanskiy shunday deb yozgan edi: «... tilning alohida elementlarini bilish, masalan: alohida so'zlar, alohida gaplar, alohida tovushlar - aloqa vositasi sifatida tilni bilish tushunchasiga bog'lab bo'lmaydi ... tilni bilishni hisobga olish kerak. Haqiqiy muloqotda ishtirok etish qobiliyati shartlari». Agar biz ushbu bayonotni ushbu loyiha mavzusiga tatbiq qiladigan bo'lsak, unda aytishimiz mumkinki, nutqni ongli inson faoliyati sifatida o'rgatish faqat ushbu faoliyatni aloqaning muhim holatiga kiritish orqali mumkin.

Vaziyat (keng ma'noda) odatda vaziyat, voqelik holatlari (hodisalar, ob'ektlar) majmui sifatida tushuniladi.

Har qanday voqelik holati nutqqa turtki bo'ladi, deb o'ylamaslik kerak, ya'ni u nutqdir. Ko'pgina voqelik holatlari, qanchalik tabiiy va real bo'lishidan qat'i nazar, nutq vaziyati sifatida harakat qilmaydi. Shunday qilib, masalan, bir kishi ishga shoshilib, to'xtab, yaqinlashib kelayotgan avtobusni ko'rganda, uning bu vaziyatga munosabati, ehtimol, nutqni emas, balki qadamni, ya'ni harakatni tezlashtirish bo'ladi. Boshqa hollarda, voqelik holatlari nutq reaksiyasini keltirib chiqarmasligi mumkin, chunki vaziyat haqidagi ma'lumot odamni qiziqtirmaydi yoki olingan ma'lumotga nutq reaksiyasi uchun shartlar mavjud emas (masalan, mavjud suhbatdosh yo'q).

Shunday qilib, nutqiy vaziyatni faqat u yoki bu nutq reaksiyasini keltirib chiqaradigan voqelik holati deb atash mumkin.

O'quv nutqining holati bir qator o'ziga xos xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

a) hayotdagi nutqiy vaziyat doimo real, o'quv vaziyati esa xayoliy bo'ladi;

b) muayyan hayot sharoitida, qoida tariqasida, ma'lum bir nutq reaksiyasi uchun to'liq bo'lgan voqelik holatlari ta'lim sharoitida batafsil bayon qilinishi kerak. Haqiqatan ham, masalan, Petrovning to'satdan ketishi haqidagi xabar, bizga oldindan ma'lum bo'lgan holatlarga ko'ra, sizda boshqacha nutq reaksiyasini keltirib chiqarishi mumkin. Masalan: “Onang bilan haqiqatan ham



yomonmi?” yoki “Uning o’rniga kim tayinlanadi?” va hokazo. Albatta, mashg’ulot sharoitida bir qator tafsilotlar qo’shimcha ravishda taqdim etilishi kerak;

v) tabiiy nutqiy vaziyat, qoida tariqasida, nutq reaksiyasining og’zaki stimulidan mahrum bo’ladi: u o’z-o’zidan, beixtiyor paydo bo’ladi. Ta’lim holati og’zaki shaklda nutq rag’batiga ega bo’lishi kerak (masalan: “Do’stingizni ishontirishga harakat qiling”, “Onang bilan quvonchingizni baham ko’ring” va boshqalar);

d) hayotiy vaziyat sharoitida shaxsning reaksiyasining yo’nalishi va xarakteri oldindan belgilanadi; ta’lim sharoitida o’quvchilarning o’qituvchi tomonidan taklif qilingan vaziyatga munosabati boshqacha bo’lishi mumkin, ya’ni variantlar mavjud;

e) ona tilidagi tabiiy vaziyatga nutq reaksiyasi doimo ko’proq emotsional bo’ladi. Strukturaviy jihatdan elliptik tuzilmalardan keng foydalanish bilan tavsiflanadi. Bundan tashqari, jonli nutq imo-ishoralar, mimika va harakatlar bilan to’ldiriladi, ya’ni sub’ekt reaksiyasining bir qismi lingvistik bo’lmagan vositalar bilan ifodalanadi. Ta’lim sharoitida taqlid qilish va undan ham ko’proq hissiy reaksiyani qo’zg’atish juda qiyin, bunda o’quvchilar harakatlar bilan reaksiyaga kirishish imkoniyatidan mahrum bo’lishadi, bu esa chet tilidagi nutqni rivojlantirish uchun muhim emas;

f) tabiiy vaziyat va undan ham ko’proq unga bo’lgan munosabat takrorlanmaydi, ular o’ziga xosdir, “holbuki o’quvchilar bir xil nutqiy vaziyatni qayta-qayta “harakat qilishlari” mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Вайсбурд М.Л. Использование учебно-речевых ситуаций при обучении устной речи на иностранном языке. - Издательство ТИТУЛ, 2001

2. Киреева Т.В. Совершенствование и контроль разговорных навыков учащихся на уроках английского языка.//Иностранные языки в школе - 2006 - №3



FIZIKANI O'QITISHDA MUAMMOLI TA'LIM

Ruzmetova Rayhon Kamilovna

Urganch shahar 11- son umumiy
o'rta ta'lim maktabining fizika fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada fizikani o'qitishda muammoli ta'lim texnologiyasidan foydalanishning ahamiyati tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: fizika, muammoli ta'lim, masala, fikrlash, ta'lim texnologiyasi, bilim.

Keyingi paytda muammoli o'qitishga aksariyat o'qituvchilar ijobiy fikr bildirishmoqda. Bu bejiz emas. Chunki darsning muammoli o'tilishi, o'quvchi va talabalarni turli dalillar yig'indisi bilangina qurollantirmasdan, balki ularning ongini, fikrlashini, qobiliyatlarining yuksak darajada rivojlanishini ta'm inlaydi.

Fizika darslarida xususiy muammolar. asosan, ikki holda: masala yechish va mustaqil eksperiment o'tkazish paytida qo'llaniladi. Xususiy muammoli vazifalar, o'zlashtirishi yuqori bo'lmagan talabalar uchun ham foydalidir. Mos holda tanlangan vazifalar, bilimi bo'sh o'quvchi va talabalarining mustaqil ishlashiga sharoit yaratadi. Tayyorlangan xulosa, ularning imkoniyatiga bo'lgan ishonchini hosil qiliadi va fanga bo'lgan qiziqishini yanada kuchaytiradi. Albatta, bunday ishlar, o'quvchi va talabalarining o'sish darajasiga mos tarzda, o'qituvchi tomonidan muntazam olib borilishi maqsadga muvofiqdir. Xohlovchilarga mo'ljallangan muammoli vazifalar, o'quvchi va talabalarni fizika faniga, uning ayrim bo'limlariga bo'lgan qiziqishini orttirishda muhim ahamiyatga ega. Asosan, bu vazifalar tadqiqotchilik va konstruktorlik (amaliy) yo'nalishida bo'lishi mumkin. Ular tizimli ravishda fizika o'quv xonasida ilib qo'yilib, kerakli paytda qo'llaniladi. Vazifalar, asosan, o'tilgan materiallarga bog'lab tuziladi. Ayrim hollarda, uning bajarilishi o'quvchi va talabalardan dasturidan tashqari bilimlarni talab qiliadi. Bunday vazifalar, ularning texnik fikr yuritishini faollashtirib, bilish qobiliyatini o'stiradi. Ayrim hollarda, o'quvchi va talabalar, o'zlarining nazariy bilimlari past darajada ekanligini sezishadi hamda bilimga mustaqil ega bo'lish usullarini izlay boshlashadi.

Fizika fanini o'qitishda o'quv muammosi mazmuniga ko'ra uch guruhga: nazariy, amaliy va aralash turdagi muammolarga bo'linadi. Nazariy muammolar yangi qonuniyatlarni xulosalashda, tajriba natijasini nazariy jihatdan asoslashda va ularni oldindan aytishda. tadqiqot yurgizish bilan masala yechish va boshqalarda qo'ilaniladi. Amaliy o'quv muammolari, o'quvchilardan turli amaliy masalalarni yechishni unga tegishli bo'lgan hal qilishning yangi yo'llarini topishni taqozo qiladi. Albatta, har qanday amaliy ishning bajarilishi nazariy tahlilsiz amalga oshirilishi mumkin emas. Ammo muammo amaliy jihatdan ifodalanganda masalaning nazariy tomoni yordamchi vosita sifatida foydalaniladi. Masalan, o'quvchi yoki talabaga quyidagicha vazifa berilishi mumkin: «Ampernetr va reostat yordamida elektr lampasining quvvatini aniqlang.

Vazifaning asosiy maqsadi - lampaning quvvatini aniqlashning eksperimental yo'lini topish bo'lib hisoblanadi. Albatta, bu faqat amaliy ahamiyatga ega. Biroq shunday bo'lsa ham, bu vazifa o'quvchilardan ma'lum nazariy bilimni va uni amalda qo'llay bilishni talab etadi. Jumladan, ular zanjir qismidagi tokning quvvatiga oid formulani bilishlari va tokning kuchi bir xil bo'lgan holda, uning quvvati qarshilikka proporsional ekanligini bilishiga tegishli. Amaliy muammoga yangi qonuniyatlarni tajribada aniqlashga qaratilgan vazifalarni ham qo'shsa bo'ladi. Masalan, o'tkazgichlarni ketma-ket va paralell ulaganda, tok kuchini o'tkazgichning qarshiligiga bo'lgan bogliqligini aniqlashga qaratilgan amaliy ish. Amaliy muammolar yangi qurol tayyorlash yoki mavjud qurolni yaxshilash (asbob shkalasining ko'rinishini yanada yaxshilash, o'lchash chegarasini va sezgirlik qobiliyatini oshirish va boshqalar) maqsadida ham tahlil qilinadi. Aralash turdagi muammolar deb, hal qilinishi ayrim nazariy va amaliy masalalar asosida kelib chiquvchi muammolarga aytiladi. Bu turdagi muammolar fizika darslarida keng qaraladi. Chunki har bir fizik hodisaning mazmuni, ma'lum darajasida nazariy va amaliy masalalarni yechish orqali aniqlanadi. Masalan. elektromagnit induksiya hodisasini tushuntirishda, nazariya va amaliyotning rolini ajratib qarash mumkin emas. Chunki bu holda, nazariy savollarning javobi va amaliy vazifalarning bajarilishi bir-birini to'ldirib, biri ikkinchisi orqali rivojlantiriladi.

Muammoli o'qitishning samarali amalga oshirilishi, o'qitish jarayoniga tegishli muammoli vaziyatni hosil qilish bilan bog'liq. Bu esa. Muammoli vaziyat har doim o'quvchi va talabalarining



psixologik (fikrlashi emotsional va boshqa) holatini ifodalaydi.

Dars paytida muammoli vaziyat turli shartlar bilan hosil qilinishi mumkin. Masalan, «O'tkazgichning qarshiligini haroratga bog'liqligi», - degan mavzuni, muammoli o'qitishni ko'rib o'taylik. Bunda biz materialning o'quvchilar tomonidan mazmunini o'zlashtirishga qaramasdan, darsning bilim berish va rivojlantirish funksiyalariga to'xtalib o'tamiz. Darsning asosiy maqsadi, o'quvchi va talabalarga o'tkazgichning qarshiligining haroratga bog'liqligini tushuntirishdan iborat.

Muammoli o'qitishni tashkillashtirishda, muammoli vaziyatni tuzish va uni hal qilishning samarali yo'lini tanlash muhim ahamiyatga ega. Bunday holda, birgina mavzuni tushuntirish uchun, turli variantlardan foydalanishga imkoniyat mavjud.

Xulosa qilganimizda, muammoli o'qitishni tashkillashtirish jarayonida o'quvchi va talabalarning faoliyatini kuzatishlar, quyidagi kamchiliklarning mavjudligini ko'rsatadi. O'qituvchi taklif qilgan muammoli savollar, ularning bir qismi uchun muammoli bo'lsa, boshqa bir qismi uchun esa muammoli emas. O'zlarining umumiy bilimiga asoslanib, birinchi guruh, muammoni hal qilishga faol kirishadi va uni hal qiladi. Ikkinchi guruh bo'lsa, yangi vazifani bajarishga yetarli imkoniyati bo'lsa ham, undan unumli foydalana olmaganligidan, uni hal qila olmaydi.

ADABIYOTLAR:

1. Baydedayev A., Mamadazimov M., Djorayev M va boshq. M aktabda fizika va astronomiya o'qitish. MetodoJogik va dunyoqarash aspektlari. - T.: O'qituvchi. 1994.
2. Begimqulov U.SII. Pedagogik ta'lim jarayonini axborotlashtirishni tashkil etish. boshqarish nazariyasi va amaliyoti. Ped. fan. dokt. diss. Avtoref. -T., 2007.



MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES OF ENGLISH LANGUAGE TEACHING

Sabirova Surayyo Ravshanbekovna

English teacher at the secondary school No.
11 in Urgench, Khorezm region

Abstract: This paper analyses the innovative and quite interesting methods we have in teaching English language. this article analyzes the importance of modern pedagogical technologies in teaching English.

Key words: English language, pedagogical technologies, teacher, pupils, interesting.

In today's world English is taught in a very orthodox manner. The basic teaching is needed. Teaching the alphabets and the formation of the words is essential and a must. But there is something that is even more important. The children must be able to speak the words and understand their meaning before writing them down. The foundation to teach English can only be taught using the orthodox methods of teaching the alphabets and the words and the rules. But then teaching only the rules is found to be boring by most pupils and it is because of this that they lose interest in learning the language. Although there is no way other than the traditional one to teach the basics of the language these methods must be tweaked a bit so as to appeal to the students. When it comes to teaching English to students of higher classes who already know the basics the traditional methods generally tend to yield poorer results than innovative methods. This has already been proven by methods implemented like use of stories, poems, movies, books and newspapers etc. These methods help the students learn the language better without them actually realizing and also it keeps their interest. This paper will provide a few of such methods to teach English Language.

Teaching through games .This is a very interesting method of teaching. Students and children generally tend to like games and want to play them more and more. Traditional methods dictated for study and games to be separate but the fact remains that the students tend to be more interested in playing games rather than sitting down to study. Any logical reasoning would dictate us to combine the two aspects to solve the problem. The games part of learning would help the students keep their interest as the desire to win is very strong. It keeps us going and when included with different aspects of learning the learning process would continue almost throughout the day without the children getting tired or bored of studying.

Word games The most important part of any language is the vocabulary. To understand the meaning of the words and to use them in day to day life is a very difficult task and games can help the students overcome this difficulty. Games like scrabble, housie etc. have been designed for this specific purpose. These games are just based on words and help the students develop their vocabulary. In addition to these very simple games can be played to help improve the word database of the students such as simple dictation competitions, synonym competitions, words puzzles, anagrams and hangman. All these games are very addictive and help a lot in improving our vocabulary as whenever the student hears a new word the first question that comes up is “what is its meaning?” and in this way the vocabulary improves and most of the times we don't even have to consult the dictionary.

Multimedia sources like songs, movies, TV series, magazines, newspapers play a very vital role in improving our language. We don't even realize that they have helped us. We just wake up one fine day and realize that we are better than it than we were yesterday. Such sources can be used to help the students improve their language. But great precautions must be taken. This method should be used in the final stages of learning as that is the only place where there is no scope of damage as most of the movies and songs etc. use colloquial English most of the times which is grammatically wrong and it is very important that the students understand that fact so that they do not use that form of the language in their everyday usage.



The languages play a very important role in our lives. They help us express our emotions. They help us explain what we want. They help us to communicate and hence are the prime tools to express who we are.

References:

1. . Q. Xatamova, M.N.Mirzayeva. “Interactive methods used in english lessons” (methodical manual), Navoi, 2006
2. O. Hoshimov, I. Yakubov. “Methodology of teaching english” (textbook) Tashkent: “Sharq” Publishing House, 2003.



TEKNOLOGIYA DARSLARIDA SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN TA’LIM

Sapayeva Bikajon Raximberganovna

Urganch shahar 11-son umumiy o‘rta ta’lim maktabing
texnologiya fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Shaxsga yonaltirilgan ta’lim asosida o‘quvchilarning intellektual va emotsional-motivatsion rivojlanishi, bilim va kasbiy malakalar shakllanishi, talim jarayoniga qadriyat sifatida yondashish munosabatini taminlash, faollikni oshirish, oz-ozini anglash va mustaqilligini shakllantirish kabi masalalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Shaxsga, ijodiy, tanqidiy, fikrlash, bilim, kasbiy malaka, interfaol ta’lim, tajriba, samaradorlik.

Texnologiya darslarida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari

- o‘quvchining fikrlash va harakat strategiyasini inobatga olgan holda uning shaxsi,

o‘ziga xos xususiyatlari, qobiliyatini rivojlantirishga yo‘naltiradi. Bu ta’lim o‘qitish muhitining o‘quvchi imkoniyatlariga moslashtirilishini nazarda tutadi. Unga ko‘ra ta’lim muhiti, pedagogik shart-sharoitlar, ta’lim hamda tarbiya jarayonini to‘laligicha o‘quvchining shaxsiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, qobiliyatini rivojlantirish, shaxs sifatida kamolotga yetishini ta’minlash, tafakkuri va dunyoqarashini boyitishni nazarda tutadi. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning o‘ziga xos jihati ta’lim oluvchi shaxsini tan olish, uni har tomonlama rivojlantirish uchun qulay, zarur muhitni yaratishdan iboratdir.

Shaxsga yonaltirilgan texnologiya asosida o‘quvchilarning intellektual va emotsional-motivatsion rivojlanishi, bilim va kasbiy malakalar shakllanishi, talim jarayoniga qadriyat sifatida yondashish munosabatini taminlash, faollikni oshirish, oz-ozini anglash va mustaqilligini shakllantirish yotadi.

O‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim - o‘quvchi shaxsiy imkoniyatlariga moslashtirilgan pedagogik muhitni hamda ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishni nazarda tutadi. Bu texnologiyada kommunikativ metodlardan keng foydalaniladi, ularning ayrim asosiy belgilarini qarab chiqamiz:

1. Har bir o‘quvchiga buyuk shaxsdek qarash, uni hurmat qilish, uni tushunish, qabul qilish, unga ishonish.

2. Ta’limning shunday muhitini yaratish kerakki, unda o‘quvchi o‘zini shaxs deb sezsin, unga bo‘lgan e’tiborni tuysin.

3. Bolaga tazyiq o‘tkazmaslik hamda uning kamchiligini bo‘rttirmaslik; bilimlarni o‘zlashtirmasligi, o‘zini yomon tutishi sabablarini aniqlash va ularni bolaning shaxsiyatiga zarar yetkazmaydigan tarzda bartaraf etish;

4. Ta’limda muvaffaqiyat muhitini tashkil etish, bolaga o‘qishda muvaffaqiyat qozonishga yordam berish, uning o‘z kuchi va iqtidoriga ishonchini orttirish. O‘quvchiga atrofdagilarning har biri o‘zi kabi ekanligini anglatish, unda jamoaga aloqadorlik hissini rivojlantirish.

5. O‘quvchining hurmati va ishonchini qozonish, o‘ziga ham shaxs nuqtai nazaridan qarash. Kasb - hunar kollejining o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan ta’limni amalga oshirish faoliyatida bolalarning kognitiv (aqliy), kommunikativ (nutqmuloqotchanlik), ijtimoiy-hissiy va jismoniy rivojlanishiga sharoit yaratilishini ta’minlash juda muhimdir.

Bundan tashqari shaxsga yo‘naltirilgan talimning quyidagi asosiy turlari mavjud: Innovatsion ta’lim. hamkorlik ta’limi, interfaol ta’lim, masofaviy ta’lim, muammoli ta’lim, loyiha ta’limi, kompyuterli ta’lim, rivojlantiruvchi ta’lim, tabaqalashtirilgan ta’lim, modul ta’limi, individual ta’lim, mustaqil ta’lim, dasturiy ta’lim, o‘yin texnologiyalari Yuqorida keltirilgan shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim turlarining barcha turlarini mehnat ta’limi darslarida ham to‘g‘ri qo‘llay olsak, dars muvaffaqiyatli va ijobiy samara beradi. Ayniqsa mehnat ta’limida interfaol ta’lim metodlaridan foydalanish samaralidir. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim turlaridan “interfaol talim metodlari”ni misol qilib olsak, hozirgi zamonaviy sharoitda ta’lim samaradorligini oshirishning eng maqbul yo‘li bu mashg‘ulotlarni interfaol metodlar yordamida tashkil etish deb hisoblanmoqda [1-30]. Xo‘sh, interfaol metodlarning o‘zi nima? Ular qanday didaktik imkoniyatlarga ega? Ta’lim jarayonida interfaol metodlarning o‘rinli, maqsadga muvofiq qo‘llanilishi qanday samaralarni kafolatlaydi? Quyidagi ana shu kabi savollarga qisqacha javob berib o‘tamiz. Interfaol ta’lim (ingl. “interact”, rus. “interaktiv”; “inter” - o‘zaro, “act” - harakat qilmoq) - o‘quvchilarning bilim,



ko‘nikma, malaka va muayyan axloqiy sifatlarni o‘zlashtirish yo‘lidagi o‘zaro harakatini tashkil etishga asoslanuvchi ta’lim.

Texnologiya fani dars jarayonlarida interfaol talim texnologiyalariga asoslangan ta’limiy harakatlar quyidagi shakllarda tashkil etiladi:

- individual;
- juftlik;
- guruh;
- jamoa bilan ishlash.

Ko‘p hollarda texnologiya fanida sinfdan tashqari (to‘garak mashg‘ulotlari)da har bir o‘quvchiga individual yondashish samarali natija beradi. Interfaol talim texnologiyalarini qo‘llash jarayonida o‘quvchilar quyidagi imkoniyatlarga ega bo‘ladi: guruh yoki jamoa bilan hamkorlikda ishlash, tengdoshlari orasida o‘z g‘oyalarini erkin bayon qilish, bilimlarini hech qanday ruhiy to‘siqlarsiz namoyish etish, muammoni hal qilishga ijodiy yondashish, guruh yoki jamoadoshlari bilan ruhiy yaqinlikka erishish, o‘z ichki imkoniyat va qobiliyatlarini to‘liq namoyon qila olish, fikrlash, fikrlarni umumlashtirish va ular orasidan eng muhimlarini saralash, o‘z faoliyatini nazorat qilish va mustaqil baholash, o‘z imkoniyatlari va kuchiga ishonch hosil qilish, turli vaziyatlarda harakatlanish va murakkab vaziyatlardan chiqa olish ko‘nikmalarini o‘zlashtirish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rasulova Z.D. (2020). Pedagogical peculiarities of developing socioperceptive competence in learners. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*. 8:1, pp.
2. Расулова З.Д. (2020). Дидактические основы развития у будущих учителей креативного мышления. *European science*, vol. 51, no. 2-2, pp.
3. Расулова З.Д. (2018). Значения обучающих технологий направленной личности на уроках трудового обучения.



BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINI TARBIYALASHDA INTELLEKTUAL SALOHİYATINI RIVOJLANTIRISH

Sayfiddinova Marxabxon Abdurahimovna

Norin tumani 32- maktab birinchi toifali
boshlangich ta’lim o’qituvchisi

***Annatsiya.** Iqtidor — bu inson psixikasining butun umr davomida tizimli rivojlanuvchi sifati bo‘lib, insonning boshqa odamlarga nisbatan bir yoki bir necha sohada yuqori natijalarga erishish imkoniga ega ekanligi bilan belgilanadi.*

***Kalit so‘zlar:** iqtidor, maktab, tarbiya.*

Maktabga borish bolalarning hayotida juda-katta voqeadir. Maktab hayoti bolalarga yangi bir dunyoni ochib beradi, maktab davrida bolalarning asosiy faoliyatlari o‘zgaradi. Endi bolalarning asosiy faoliyatlari, asosiy vazifasi va ijtimoiy burchi o‘qish bo‘lib qoladi.

6-7 yoshli bolalar uchun yangi faoliyat bo‘lgan o‘qish ulardan yangi sifat, yangi xususiyatlarga ega bo‘lishni talab etadi. O‘qish faoliyati uchun bolalarda barqaror diqqat, o‘tkir zehn, mustaqillik, ishchanlik va bartiblik xislatlari bo‘lishi kerak. Bog‘chadan maktabga o‘tishlari natijasida kattalar bilan bo‘lgan munosabatlarida ham birmuncha o‘zgarish yuz beradi.

Birinchi sinf o‘quvchisi ko‘pincha obrazli xotiraga suyanib bilish faoliyatini tashkil etsa ham bu ish xotiraning boshqa turlarini inkor qilmaydi. Aksincha, ta’lim so‘z-mantiq xotirasini taqozo etadi. So‘z mantiq xotirasining mavjudligi ma’nosini tushunib esda olib qolish jarayonining samaradorligi ortishiga keng imkoniyat yaratadi. Tajribadan ma’lumki, bola ma’nosiz so‘zlardan ko‘ra ma’nodor tushunchalarni birmuncha tez va mustahkam eslab qolish xususiyatiga ega.

Iqtidor — bu inson psixikasining butun umr davomida tizimli rivojlanuvchi sifati bo‘lib, insonning boshqa odamlarga nisbatan bir yoki bir necha sohada yuqori natijalarga erishish imkoniga ega ekanligi bilan belgilanadi. Psixologik lug‘atda “iqtidor” tushunchasi quyidagicha ta’riflanadi: iqtidor bu—faoliyatning muvaffaqiyatli amalga oshirili-shini ta’minlaydigan qobiliyatlarning o‘ziga xos uyg‘unlashuvdir; iqtidor bu — insonning imkoniyatlari doirasi, faoliyatlari darajasi va o‘ziga xosligini belgilaydigan umumiy qobiliyatlar; iqtidor bu — aqliy potensial, ta’lim olish qobiliyati va bilish imkoniyatlarining bir butun individual xarakteristikasi; iqtidor bu — tabiat tomonidan in’om etilgan qobiliyatlar, qobiliyatlar tabiiy asoslarining o‘ziga xosligi va ularning namoyon bo‘lishi darajalari; iqtidor bu — iste’dodlilik, faoliyatda yuqori natijalarga erishish uchun ichki imkoniyat va sharoitlarning mavjudligi. Ushbu tavsiflardan kelib chiqqan holda, shuni ta’kidlash mumkinki, iqtidor asosida umumiy intellektual va insonning bilish imkoniyatlarini belgilaydigan, tabiat tomonidan in’om etilgan qobiliyatlar, biror bir faoliyatda (masalan, ta’lim, ijodiy, kasbiy, ilmiy) muvaffaqiyatga erishishni ta’minlaydigan maxsus qobiliyatlar yotadi. Umumiy qobiliyat egalari yuqori intellektual imkoniyatlarga ega bo‘lib, muammoning yoki biron-bir masalaning yechimini tezda topishi, faoliyatiga ijodiy yondashishi bilan ajralib turadi. Maxsus qobiliyat egalari esa-biron-bir aniq (masalan, matematika, musiqa, rasm chizish, shaxmat o‘ynash, sport) faoliyat turiga qobiliyati bo‘lgan va mana shu faoliyat bilan shug‘ullanishni afzal ko‘radilar. Pedagogik nuqtai nazardan umumiy va maxsus qobiliyat yosh davrlarini inobatga olgan holda muhim jihatlarga bog‘liq. Erta yosh davrlar maktabgacha va kichik maktab yoshida iqtidor umumiy hamda universal qobiliyat sifatida ko‘rilishi va rivojlanishi mumkin. Vaqt o‘tishi bilan bu “umumiy qobiliyat” o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib ma’lum bir yo‘nalishni belgilaydi. Ayni vaqtda bu iqtidor bola tomonidan qay darajada namoyon bo‘layotganligiga e’tibor qaratish kerak bo‘ladi. Aniq namoyon bo‘lgan, ya’ni psixolog, pedagog, ota-onalar tomonidan e’tibor berilgan qobiliyat “aktual”, atrofdagilar payqamaydigan qobiliyat “potensial” qobiliyat deyiladi. Ko‘pgina mashhur olimlar, bastakorlar, rassom va yozuvchilar (masalan, yosh V.A.Motsart, F.Galton, I.Mechnikov, K.Gauss, N.Vinner, G.Leybnis, V.Gyugo) erta yoshdayoq o‘zlarining qobiliyatlarini namoyon qilganlar. Va aksincha ko‘p hollarda bolalikda hech qanday iqtidorga ega bo‘lmagan bolalar yetuklik davrda muvaffaqiyatlarga erishishlari mumkin. Bu aqliy potensialga ko‘pincha atrofdagilar e’tibor bermasliklari mumkin. Tabiiyki, har bir holatda iqtidorni payqamaslikning sabablari turlicha. Potensial qobiliyat haqiqatdan ham ma’lum bir vaqtgacha namoyon bo‘lmagandir. Balki, ota-onalar pedagoglar va kattalar tomonidan bola qalbining nozik harakatlaridagi o‘zgarishlarga yetarlicha ahamiyat berilmagandir, intuitiv holda buni payqamagandirlar yoki



bilimlari yetmagandir. Yoki aksincha, bu narsalarni tushunmaganliklari sababli boladagi buyuk potensial imkoniyatlarni sezmaganlar, va hattoki, bu ijodkorlikni, intellektual tashabbusni negativ xususiyat sifatida qabul qilganlar. Boshqa, xususiyatlarni esa qadrliroq deb hisoblaganlar, ya'ni, hammamizga shaxsiy tajribamizdan ma'lumki, tirishqoqlik, itoatkorlik, saranjom-sarishtalik kabi xislatlarni fikrlar originalligi, dadillik, harakatlardagi va mulohaza yuritishdagi mustaqillikdan ustun qo'yadigan ota-onalar, o'qituvchilar, oliy o'quv yurtlari professor o'qituvchilari, rahbarlar uchraydi. Amerikalik olimlar tomonidan 400 ga yaqin taniqli odamlarning tarjimai holi o'rganib chiqilganda ulardan 60 foizi maktab ta'limi davrida jiddiy muammolarga duch kelganliklari aniqlandi. Aktual va potensial qobiliyatlar tushunchasining mavjudligi rivojlanishni oldindan prognoz qilish muammosini muhim deb hisoblaydi. Shaxsning qanday sifatlari va xarakter xususiyatlari, fe'l-atvoridagi va faoliyatidagi fazilatlari kattalarga kelajakda bolaning buyuk olim, rassom yoki davlat arbobi bo'lishi mumkinligini aniqlashga yordam beradi. Bu savolga javob topish birmuncha mushkuldir. Psixologlar bolaning kelajagini "bashorat" qilish imkonini beradigan qator qonuniyatlarni belgilab berganlar, lekin asoslangan prognozlar berishga hali erishilgani yo'q. Shu bilan birga jahon pedagogika va psixologiyasi sohasidagi tajriba shuni ko'rsatadiki, bolaning imkoniyatlariga ishonchning pedagoglar va ota-onalarning mahoratiga yo'g'rilganligi mo'jizalar sodir etishga qodir. Ba'zi hollarda hayotda insonga tabiat tomonidan berilgan qobiliyatdan ham ko'ra u ana shu xususiyatni qanday rivojlantira olgani muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat – T., 2006.
2. Tolipov O., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari – T.: 2006. – 260 b.



XORIJIY DAVLATLARDA BOSHLANG'ICH TA'LIM TIZIMI

Siddiqova Nasibaxon Xamidovna
Norin tumani 32-maktab birinchi toifali
boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi

Annatsiya: Boshlang'ich ta'lim tizimi. Kanadaliklarning eng muhim yutuqlaridan biri - bu ularning ta'lim tizimidir. Ilg'or universitet va kollejlardagi ta'lim sifati juda yuqori va Kanada diplomlari butun dunyoda tan olinadi.

Kalit so'zlar: Germaniya, Kanada, Yaponiya.

Germaniya davlati ta'lim tizimi. Boshlang'ich ta'lim tizimi. Germaniya Federativ Respublikasi 16 ta mustaqil Federativ yerlar (viloyatlar)dan iborat bo'lib, har biri shakliga ko'ra turlicha bo'lgan ta'lim tizimiga ega. Ta'lim muassasalari asosan davlat tasarrufida bo'lib, ular uchun ta'lim dasturiga tegishli bo'lgan davlat ko'rsatmalari mavjud. Federal organlar va Federal Yerlarning ta'lim sohasi bo'yicha siyosati kelishilgan: ta'limning davomiyligi, ta'tillar, o'quv dasturi, imtixonlarni o'zaro tan olish, attestatlar, maktabni tugatganligi xaqida guvohnoma, diplomlar, unvonlar shular jumlasidandir. Federal hukumatning xuquqlari asosiy qonunlarni qabul qilishda, jumladan moliyalashtirish masalalarida chegaralangan. Ta'limdagi xarajatlar haqida quyidagilarni aytish mumkin: birorta Federal Yerlar davlat umumta'lim, kasbiy o'quv yurtlarida o'qish uchun pul olmaydi; barcha Federal yerlarda o'quvchilarni uydin maktabga, maktabdan uyga tashuvchi avtobuslarni o'z hisobidan beradi; deyarli barcha o'quvchilarga darslik va o'quv qo'llanmalarni qiymatining ozgina qismiga beriladi; ma'lum toifadagi o'quvchilar va talabalarga mavjud federal qonunlarga ko'ra davlat moddiy yordam ko'rsatadi.

Germaniyada xususiy maktablarga ruxsat berilgan, ular orasida diniy maktablar ham bor. Bu maktablarda taxminan 8% o'quvchilar tahsil oladilar. Xususiy maktablar o'quv dasturlarini tanlashda davlat maktablariga nisbatan erkin bo'lganligi bois turli pedagogik muqobillarning aprobatyasiyosi o'tkazilib turiladi. Germaniya ta'lim tizimi bir necha bosqichni o'z ichiga oladi: Elementar ta'lim: maktab ta'limining 1-bosqichiga tegishli bo'lib, maktabgacha muassasalar kiradi. Asosan bular bolalar bog'chalari, tayyorlov sinflari va kirish guruhlar bo'lib, bu yerlarga bolalarning qatnashishi 3 yil davomida ota-onalar xohishiga ko'ra ixtiyoriydir. Ta'limning birinchi bosqichi. (Primastufe) boshlang'ich maktab, unga 6 yoshdan qatnay boshlaydi. O'qish muddati 4 yil, Berlin va Brandenburgda 6 yil. Bu bosqichdagi ta'limning maqsadi – bolalarga ta'limning ikkinchi bosqichidagi u yoki bu maktabda ta'limni davom ettirishga imkon beruvchi asosiy bilimlarni berishdan iborat. Germaniyaning har bir o'quvchisi butun hayoti davomida umumiy, oliy va kasbiy ta'lim olish imkoniyatiga ega. Chunki Germaniya yuqori rivojlangan sanoat davlatlaridan biri bo'lib, yuqori malakali mutaxassislariga ehtiyoj katta. Germaniya xukumati turli sohalarida sifatli mutaxassis kadrlarni tayyorlashga manfaatdor. Shu bois nemis ta'lim tizimining rivojlanishiga katta miqdorda mablag' ajratiladi.

Kanada ta'lim tizimi. Boshlang'ich ta'lim tizimi. Kanadaliklarning eng muhim yutuqlaridan biri - bu ularning ta'lim tizimidir. Ilg'or universitet va kollejlardagi ta'lim sifati juda yuqori va Kanada diplomlari butun dunyoda tan olinadi. Xalqaro reytingda Kanada ta'limi AQSHdan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Kanadaning turli provinsiyalari o'quv rejalarida o'ziga xosliklar ko'rinadi.

Masalan, Kvebek, Ontario, Manitobda maktabgacha muassasada maktabga tayyorlash 2 yil, 4 yoshdan 6 yoshgacha, Albert va Britan Kolumbiyasida 1 yil. O'quv yili sentyabrning birinchi haftasidan boshlanadi va iyunning oxirgi haftasida tugaydi. Kanada maktablarida ta'limning o'rtacha davomiyligi 12 yilni tashkil qiladi. 6-7 yoshdan bolalar boshlang'ich maktabga qatnay boshlaydi va unda 6 yil tahsil olishadi. Manitob va Ontario boshlang'ich maktablarida o'qish boshqa provinsiyalardan ko'ra 2 yil ko'p davom etadi. 12 yoshdan bolalar o'rta maktabga o'tishadi va 16-18 yoshgacha o'qishadi. Kvebek provinsiyasida o'rta ta'lim 11 sinf davom etadi, universitetda o'qishni xohlaganlar esa yana 2 yil kollejga tayyorlov bo'limida o'qishadi. 10-12 sinflar High Shool -oliy maktabda olib boriladi.

Yaponiya ta'lim tizimi. Boshlang'ich maktabga 6 yoshdagi yapon bolalarning 99% qatnaydi. O'quv rejasiga yapon tili, gumanitar fanlar, arifmetika kabilar kiradi. San'at va hunar (yapon xusni xati), musiqa, uy xo'jaligini yuritish, jismoniy tarbiya, axloqiy odobnoma akademik predmetlar hisoblanmaydi. Yaponiyada boshlang'ich ta'lim majburiy va bepul bo'lib, mashg'ulotlar aprel



oyida boshlanadi. O‘quv yili 3ta chorak – simestrga bo‘linadi. 1-chorak – 6 apreldan – 20 iyulgacha davom etadi, keyin yozgi ta‘til boshlanadi. 1sentyabrdan 2-simestr boshlanadi va 26 dekabrgacha davom etadi. 26-dekabrdan 7-yanvargacha qishgi ta‘til bo‘ladi. Oxirgi 3-simestr 7-yanvardan 25-martgacha davom etadi. 25-martdan 6-aprelgacha bahorgi ta‘til bo‘ladi. Shu paytda o‘quvchilar sinfdan sinfga ko‘chadi. Chorak-simestrlarning boshlanishi va tugallanishi turli maktablarda turli sanalarga to‘g‘ri kelishi mumkin. Ta‘til paytida o‘quvchilar uy vazifalarini oladilar. Ba‘zan ta‘til paytida ham, agar simestrda yaxshi o‘qimagan bo‘lsa, maxsus kurslarda o‘qiydilar. Yaponiyada o‘qish 6 kunlik, lekin har 2-shanba dam olish kuni hisoblanadi. Maktablarda o‘qitish dasturi o‘zgaruvchan, lekin Ta‘lim vazirligi tasdiqlagan standartlarga asoslanadi. Boshlang‘ich ta‘limni moliyalashtirish, o‘qituvchilar bilan ta‘minlash, maktab dasturlarini yaratish mahalliy hokimiyat zimmasida. Boshlang‘ich ta‘limda bolalar davlat hisobidagi 1945 kandji iyeroglifdan 1006 tasini yod olishi kerak.

Ota-onalar farzandlarini o‘z tumanlarida joylashgan maktabga borishini istamasalar, xususiy pullik ta‘lim muassasasiga berishlari mumkin, lekin bu maktablarga juda qiyin tanlov orqali qabul qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O. Roziqov va boshqalar. «Ta‘lim texnologiyasi». T. :-«Pedagog»1999.
2. Bolalarni maktabga tayyorlashda noan‘anaviy o‘yinlardan foydalanish. T., RTM. 2004 y.



QO'SHIQ VA UNING CHET TILIDAGI NUTQIY KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISHDAGI O'RNI

Sobirova Quvonchoy Sanjarovna

Xiva shahar Olimpiya va milliy sport turlari bo'yicha
davlat ixtisoslashtirilgan sport maktab internati
Ingliz tili fani o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada musiqa maktab o'quvchilarining his-uyg'ulari va his-tuyg'ulariga ta'sir etishning eng samarali usullaridan biri ekanligi aytib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *Musiqa, urf-odatlar, dunyoqarash, psixologik stimul, kommunikativ.*

Ta'limning amaliy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi va tarbiyaviy vazifalarini kompleks ishlab chiqish faqat o'quvchilar ongiga emas, balki ularning shaxsiy qiziqishlari, moyilliklari va motivlari sohasiga ham ta'sir ko'rsatadigan taqdirdagina mumkin bo'lishidan boshlaylik. Musiqa har qanday insonning his-tuyg'ulari va his-tuyg'ulariga ta'sir qilishning eng samarali usullaridan biridir. Bu bizning hayotimizning ajralmas qismidir, barchamizning musiqiy afzalliklarimiz bor va odamlarning aksariyati radio yoki sevimli mualliflarining qo'shiqlarini muntazam tinglashadi. Musiqa har bir xalq madaniyatining bir bo'lagi bo'lib, demak, o'rganilayotgan tildagi xalqning musiqasini bir tilda tinglasangiz, ularning madaniyati, turmush tarzi, urf-odatlar, dunyoqarashi bilan yanada chuqurroq tanishish mumkin.

Ko'pincha qadimgi Yunoniston maktablarida qo'shiq aytish orqali matnlarni o'rgananlar.K.D.Ushinskiy sinfda qo'shma qo'shiq aytish maktab o'quvchilarini tashkil qiluvchi, birlashtiruvchi, ularning his-tuyg'ularini tarbiyalovchi kuchli pedagogik vosita deb hisoblagan. Taniqli o'qituvchi Yan Amos Komenskiy musiqani bilmagan odamni o'qish va yozishni bilmaydigan odamga o'xshatishini yozgan. V.Levining fikricha, “Musiqa maktab o'quvchilarining his-tuyg'ulari va his-tuyg'ulariga ta'sir etishning eng samarali usullaridan biri bo'lib, u ongning yashirin chuqurligiga kirib boradigan eng kuchli psixologik stimuldir”.

1) G. Blell va K. Xelviglar san'at va chet tili o'rtasidagi bog'liqlik haqida shunday yozadilar: “Musiqa va san'at erkin talqin etiladi, madaniy ongda iz qoldiradi, ijodkorlikni qo'zg'atadi va individual til reaksiyalarini uyg'otadi”.

2) Xuddi shu mualliflar musiqa va chet tillarini birlashtiruvchi asosiy funktsiyalarni tavsiflaydi:

- 1) fiziologik (esda saqlashga yordam beruvchi);
- 2) psixogigienik (dam olish, tushirishga yordam berish);
- 3) hissiy (his-tuyg'ularni keltirib chiqaradigan);
- 4) ijtimoiy-psixologik (guruhdagi dinamikani kuchaytirish);
- 5) kognitiv (fikir jarayonlarini rag'batlantirish);
- 6) ongsiz o'rganish funktsiyasi (murakkab til tuzilmalari ongsiz darajada o'rganiladi);
- 7) kommunikativ (muloqotni rag'batlantirish);

Bizningcha, bunday birlashtiruvchi tushuncha chet tilini o'qitish jarayonida musiqali ko'rgazmali qurollardan foydalanish asosida sanab o'tilgan vazifalardan foydalanishga asos beradi.

Chet tilini o'rgatishda qo'shiqlarning uslubiy afzalliklari, bizningcha, quyidagicha ifodalanishi mumkin:

- qo'shiqlar doimiy assimilyatsiya qilish va so'z boyligini kengaytirish vositasidir, chunki ularda yangi so'z va iboralar mavjud. Qo'shiqlarda tanish lug'at yangi kontekstda topiladi, bu lingvistik instinkt deb ataladigan narsaning rivojlanishiga va xotirada assotsiativ aloqalarning kuchayishiga yordam beradi. Qo'shiqlarda ko'pincha o'rganilayotgan til mamlakati haqiqati, ifoda vositalari mavjud bo'lib, bu maktab o'quvchilarining tilning stilistik xususiyatlariga oid bilimlarini rivojlantirishga va chet el madaniyatining o'ziga xos xususiyatlarini chuqur anglashiga xizmat qiladi;

- qo'shiqlarda tilning grammatik hodisalari yaxshiroq singdiriladi va faollashadi. Eng keng tarqalgan dizaynlarni o'rgatish uchun o'quv qo'shiqlari mavjud. Ular ritmik bo'lib, tushuntirishlar, sharhlar, shuningdek, topshiriqlar va mashqlar bilan birga keladi (ularning maqsadi tushunishni tekshirish va mazmunni muhokama qilishdir);

- qo'shiqlar xorijiy talaffuz ko'nikmalarini egallashga, musiqiy quloqni rivojlantirishga yordam beradi. Olimlar eshitish diqqati, musiqiy quloq va eshitish nazorati artikulyar apparatlarning



rivojlanishi bilan chambarchas bog'liqligini isbotladilar. Ohangdor naqsh jihatidan sodda bo'lgan qisqa qo'shiqlarni o'rganish va tez-tez takrorlash to'g'ri talaffuz, artikulyatsiya, shuningdek, stress qoidalari, ritm xususiyatlari, ohang va boshqalarni mustahkamlashga yordam beradi;

- qo'shiqlar o'quvchilarni estetik tarbiyalash vazifalarini amalga oshirishga yordam beradi, jamoani shakllantirishga hissa qo'shadi, har bir kishining ijodiy qobiliyatlarini ochishga yordam beradi. Sinfda musiqadan foydalanganda guruhda qulay psixologik muhit yaratiladi, psixologik yuk olib tashlanadi, nutqiy fikrlash faollashadi, monolog va dialogik nutq rivojlanadi, chet tilini o'rganishga qiziqish saqlanib qoladi va hissiy ohang kuchayadi.

Chet til madaniyatining rivojlanuvchi jihati talabalarning maqsadli rivojlanishini nazarda tutadi: a) nutq qobiliyatlari; b) nutq faoliyati bilan bog'liq psixik funktsiyalar (og'zaki fikrlash, xotira, diqqat, tasavvur); v) muloqot qilish qobiliyati; d) xorijiy madaniyatni yanada o'zlashtirish uchun motivatsiya.

Chet til madaniyatining tarbiyaviy jihati quyidagilarni bildiradi. Chet tili inson nafaqat o'zining madaniy saviyasini, o'z fikrlash qobiliyatini egallashi va namoyon etishi, balki birovning fikriga, birovning ijodiga baho beradigan vositadir. Bu boshqa madaniyatning kalitidir, shuning uchun chet el madaniyatini o'zlashtirish jarayonida o'quvchilarda boshqa madaniyatlarga qiziqish, o'zaro tushunish, bag'rikenglik va boshqa xalq madaniyatiga hurmat hissi paydo bo'ladi.

Chet tili madaniyatining tarbiyaviy jihati shundan iboratki, talaba nutq faoliyatining zarur turlarini - gapirish, yozish, o'qish, tinglashni o'zlashtirib oladi.

Har bir jihat amaliy ahamiyatga ega: kognitiv jihat motivatsiyaga ta'sir qiladi, rivojlanayotgani chet tili madaniyatini o'zlashtirishga yordam beradi, tarbiyaviy jihat ikkalasiga ham hissa qo'shadi va ularning barchasi o'qitishda musiqiy asarlar qo'llanilganda o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. chet tili.

Biroq, qoida tariqasida, musiqiy asarlar parcha-parcha, tizimsiz qo'llaniladi va shuning uchun an'anaviy foydalanish shaklida chet tilini o'qitishning to'laqonli vositasi sifatida qabul qilinishi mumkin emas. Ko'p hollarda qo'shiq bilan ishlash matnni o'qish, notanish so'z va iboralarni tarjima qilish va ularni daftarga yozish, qo'shiqni tinglash va uni ijro etish bilan bog'liq. Bizning fikrimizcha, chet tilidagi muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish uchun musiqadan foydalanishda eng katta samaraga faqat musiqiy vizualizatsiya va turli mashqlardan muntazam ravishda kompleks foydalanish sharoitida erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Гальскова Н.Д., Гез Н.И. Теория обучения иностранному языку: Лингводидактика и методика – М.: Издательский центр «Академия», 2004. – 336 с.

2. Гебель С.Ф. Использование песни на уроке иностранного языка. //ИЯШ №5, 2009. – с. 28-30



YOSHLARNING DUNYOQARASHI VA XULQ-ATVORIGA TA'SIR ETUVCHI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLAR

Sultonova Muqaddas Nurboyevna

Karmana tumani 31-umumiy o'rta

ta'lim maktabi psixologi

Telefon: +998(94) 488 30 40

Annotasiya: Ushbu maqolada yoshlarni dunyoqarashi va xulq-atvoriga ta'sir etuvchi omillar sirasiga glaballashuv sharoitida axborot xurujlari, turli salbiy ta'sir qiluvchi ijtimoiy tarmoqlar, yon atrofidagi "salbiy" do'stlar, ota-onaning farzandga salbiy ta'sir doirasi, "oilaviy muhit", "oilaviy ajrimlar" kabilarning yoshlar dunyoqarashi va xulq-atvoriga ta'siri haqida fikrlar bildirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: yoshlar, internet, axborot xuruji, axborot bosimi, oila, mahalla, jamiyat, ta'lim, ma'rifat, madaniyat, shakllantirish, himoya, buzg'unchi tahdidlar, dunyoqarash, xulq-atvor, psixologiya.

Oilada avvalo shaxs deb atalmish ijtimoiy mavjudot bo'lgan farzandning dunyoga kelishi, farzand tarbiyasi, farzandning kelajakda komil inson bo'lib voyaga yetishda bot-bot "oila"ga borib mavzular taqalmoqda. Jamiyat shu tariqa barpo bo'ladi, rivoj topadi, ijtimoiy taraqqiyot vujudga keladi. "Bola tug'ilgan kunidan boshlab oila muhitida yashaydi. Oilaga xos an'analar, qadriyatlar, urf odatlar bola zuvalasini shakllantiradi. Eng muhimi, farzandlar oilaviy hayot maktabi orqali jamiyat talablarini anglaydi, his etadi" SHuningdek, Islom dinining muqaddas manbaasi bo'lgan "Qur'oni Karim"da ham "oila", "farzand", "tarbiya" so'zlarining mazmun mohiyatiga alohida urg'u berilgan bo'lib, jumladan "Er o'zlari va oilasiga taaluqli barcha narsalar to'g'risida doimo xotini bilan bamaslahat ish qilishi lozim, chunki ular so'zsiz ravishda teng sherikdirlar (3-sura, 159-oyat)", "Alloh sizlarni onalaringiz qornidan biron narsa bilmagan holingizda chiqardi va shukr qilishingiz uchun sizlarga quloq, ko'zlar va dillarni berdi (16-sura, 78-oyat)". Darhaqiqat oiladagi ijtimoiy nosog'lom muhit orqali farzand yo jamiyatda "foydali" yoki "foydasiz" inson bo'lib voyaga yetishi tabiiy holatdir. Ko'plab tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki jamiyatdagi ko'plab nosog'lom oilalarning yani otasiz yoki onasiz voyaga yetishi, yohud otaning moddiyat bilan uzluksiz ta'minlash oqibatida farzand dunyoqarashiga salbiy ta'sir o'tkazib, kibr-havoli, manmans iragan, boshqalarning o'zidan past sanash kabi illatlar yosh avlodning kelajagiga "bolta" urmoqda.

Taniqli AQSH psixologi G. Ollportning fikricha, shaxs "ichki tizim", "dinamik qurilma", "Men", "qandaydir metapsixologik Men" o'zida oldindan maqsad va dispozitsiyani aks ettiruvchi, inson tafakkuri va xulq-atvorida mutanosib ravishda qaror toptiruvchi jonzotdir". Xuddi shu boisdan shaxsning sinfiy-tarixiy jihatdan yaqqol baholanishi ochilmay qoladi, ijtimoiy tahlil o'rnini psixologik talqin egallaydi" deydi. Darhaqiqat yoshlarda "Men" tushunchasi noto'g'ri shakllanishi oqibatida esa xulq-atvoriga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Yoshlar dunyoqarashi esa har bir mamlakatning ertangi hal qiluvchi kuchi bo'lib shakllanadi.

Jahon axborot tarmog'iga kirayotgan yoshlar soni soat sayin ortmoqda. Masalan, O'zbekiston internetdan foydalanuvchilar soni 2008 yilda 2 million bo'lsa, 2021 yilda 22,5 milliondan oshgani, ularning aksariyati yoshlar ekanini alohida qayd etish lozim. Asosiy masala internetdan kim qanday foydalanishida. Hozir yosh bola ham kompyuterni bimalol ishlata oladi. Bir qarashda buning yomon joyi yo'qdek. Ammo haddan oshilsa, nazorat bo'shshsa, oqibati ayanchli bo'ladi.

Ayniqsa, global tarmoqqa qo'l telefoni orqali kirish imkoniyati paydo bo'lganidan keyin ko'pchilik uning asiriga aylanmoqda. Hozir ko'p insonlar ayniqsa yoshlar uyida ham, yo'lda ham va hatto ish va o'qishda ham butun fikri zikrini telefonga qaratgan. Bu hozirgi kunda insoniyatga xavf solayotgan global muammoga aylandi. Xalqaro munosabatlarda "axborot urushi", "axborot xuruji", "axborot bosimi" kabi hatti harakatlar kuchayayotganligi sababli, yoshlarni bunday tahdidlardan himoyalash bo'yicha aniq maqsadli ishlar qilishni davrning o'zi talab etmoqda.

Inson kundalik hayotida turli narsalardan foydalanadi. Inson ularni iste'mol qilar ekan har gal muayyan tartib qoidalar, soda qilib aytganda madaniyatga rioya qiladi. Aytaylik, kiyim-bosh kiyish yoki oziq-ovqat iste'mol qilishning o'ziga xos madaniyati bor. Bugungi kunda axborot ham iste'mol qilinadigan tovarga aylangan ekan, har bir inson yoki alohida olingan jamiyat o'zida uni istemol qilish madaniyatini tarbiyalashi lozim.

Xulosa o'rnida shuni qayd etish joizki, fan-texnika rivojlanishi axborot texnologiyalarining



beqiyos darajada taraqqiy etishini tezlashtirib yubordi. Hayotga shiddat bilan kirib kelgan globallashuv o'z ortidan ba'zi salbiy oqibatlarini keltirib chiqarmoqda. Murakkab bir davrda "axborot xuruji" o'zining salbiy oqibatlarini namoyon etmoqda. Bugungi globallashuv davrida yoshlar ma'naviyatini asrash, yosh avlodning qalbi va ongini turli zararli g'oyalar ta'siridan saqlash hamda mafkuraviy immunitetini mustahkamlash masalalariga alohida e'tabor qaratish dolzarb vazifadir. Albatta yoshlarni buzg'unchi g'oyalar ta'siriga olishni istaydigan kuchlar juda ko'p. Afsuski xorijda bunday harakatlarni moliyalashtirayotgan, "chirog'iga moy quyayotgan"lar ham oz emas. SHu bois yoshlarni yomon ko'zlardan asrash, ularning buzuvchi g'oyalar bilan zaharlanishini oldini olish doimiy e'tiborda bo'lish lozim. Buyuk ma'rifatparvarlar bo'lgan Jaloliddin Rumiy hazratlari "kumushning tashqi ko'rinishi oppoq bo'lsa ham, qo'lda cho'ntakda ko'p ushlansa, qora yuqtiradi. SHunga o'xshash ba'zi odamlarning so'zlari zohirida kumush kabi porloq va toza ko'rinib ham, lekin qayg'u va zarar keltiradi" degan edilar. Har bir axborotni ajrata olish esa faqat ilmu-ma'rifat bilan hosil bo'ladi. SHunday ekan, internetdan ezgulik, ilm-fan, taraqqiyot yo'lida foydalansak, maqsadga muvofiq bo'ladi. Yoshlar-hal qiluvchi kuch va ona vatan kelajagi ekanini, avvalo, o'zlari yuraklaridan his qilib, ilm-ma'rifat olishlari kerak. Har bir farzand e'tiqodi sofligi uchun aql-idrokini ishlatishi zarur. Buning uchun yoshlar oqni qoradan, hidoyatni zalolatdan ajrata olishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Barkamol avlod- O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.-T; SHarq 1998, 4-b.
2. Qur'oni karim. (Tarjima va izohlar muallifi Alauddin Mansur).-T: "Cho'lpon" 49-b. "Nahl" surasi, 190-b. "Niso" surasi, 34-oyat, 59-b.
3. SH. Baratova va boshqalar/ Psixologiya nazariyasi va tarixi/2019 y. 121-b
4. <https://mitc.uz/uz/stat/4-psixology>




TEKNOLOGIYA FANIDA STEAM TA'LIMI YONDASHUVINING DOLZARBLIGI

Tursunova Gulsinoy Abdushukurovna,
Norin tumani 32- maktab birinchi toifali
texnologiya fani o'qituvchisi
tel: 942705199

Annatsiya: STEM ta'limiy yondashuvi o'quvchilarga dunyoni tizimli ravishda o'rganishga, atrofda ro'y berayotgan jarayonlarni mantiqiy mushohada qilishga, ulardagi o'zaro aloqani anglab yetishga, o'zi uchun yangi, noodatiy va qiziqarli narsalarni ochishga imkon beradi.

Kalit so'zlar: STEM, STEAM, yondashuv.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentyabrdagi “Xalq ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish choratadbirlari to'g'risida”gi PQ-3931-sonli qarori bilan tasdiqlangan “2018-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi”ning II bo'lim, 11-bandida – umumiy o'rta ta'limning yangi davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlarini takomillashtirish va shu bilan birga STEM (fan, texnologiya, muhandislik va matematika) ta'limini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish belgilab berilgan. Mazkur vazifalarni bajarish uchun, avvalo, ta'lim ishtirokchilari – pedagoglar, metodistlar, o'quvchilar, ota-onalar va boshqalar STEM ta'limi yo'nalishida o'tkaziladigan xalqaro tadqiqotlar haqida ma'lumotlarni bilishi hamda ularni amaliyotda qo'llash uchun malakalarga ega bo'lishlari zarur bo'ladi. Hozirgi vaqtda texnologik inqilob mavjud. Yuqori texnologiyali mahsulotlar va innovatsion texnologiyalar zamonaviy jamiyatning ajralmas qismiga aylanmoqda. Zamonaviy maktablarda robot dizayni, modellash va dizayn loyihalashtirish ishlari yetakchi o'rinni egallamoqda. Mamlakatimizning raqobatbardosh-ligini oshirish uchun ko'proq texnik ta'lim talab etilayotganligi dolzarb muammolardan hisoblanadi. Bugungi kunda STEM ta'limi jamiyat va davlatning rivojiga katta hissa qo'shadigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash imkonini bermoqda. Ma'lumki, zamonaviy ta'lim tizimi, an'anaviy ta'limdan farqli o'laroq, amaliyotda o'rganilayotgan ilmiy-nazariy va metodik uslubni kundalik hayotda qanday qo'llash mumkinligini ko'rsatishga imkon beradigan aralash muhit hisoblanadi. Matematika va fizika bilan bir qatorda o'quvchilar robototexnika va dasturlashni o'rganadilar. Bu jarayonda o'quvchilar aniq va tabiiy fanlardan olgan bilimlarini amaliyotdagi natijasini shaxsan ko'rib turadilar. STEM ta'limining muhimligi shundaki, haqiqiy fan sohasida ta'lim sifatining pastligi, moddiy-texnika bazani yetarli darajada emasligi, o'qituvchilar va o'quvchilarning sust motivatsiyasi – bularning barchasi ta'lim tizimining eng katta muammosidir. SHu bilan birga, bosqichma-bosqich rivojlanib borayotgan davlatimiz yuqori texnologiyalar sohasidagi fanlarning turli xil ta'lim yo'nalishlari bo'yicha yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashni talab qiladi. SHu munosabat bilan, bugungi kunda STEM ta'limi birinchi o'rinda turadi. Bu esa kelajakda texnologik jarayonni rivojlantirish va mamlakatimizda ilmiy va muhandislik kadrlarga bo'lgan ehtiyojni qoplanishiga yordam beradi.



STEM atamasi ilk bor AQSHda maktab dasturiga kiritilgan bo'lib, o'quvchilarning ilmiy-texnika yo'nalishlaridagi kompetentsiyalarni rivojlantirishga qaratilgan. Keyinchalik bu yo'nalish kengaytirilib, atamaga qo'shimcha harflar kiritildi. Jumladan, unga “R” – robotics – robototexnikani qo'shib, STREM deb “A” - art - san'atni qo'shib, STEAM deb atala boshlandi. Bugungi davr



talabi dunyo ta'limi oldiga katta vazifani qo'yimoqda. Bu esa o'quvchilarni jamiyatda yashashga tayyorlay olishi kerak. Bunda birinchi navbatda tez o'zgarayotgan axborot bilan ishlaydigan kasblar bilan bog'liq xususiyatlarni o'quvchida shakllantirish lozim. Axborotni olish, qayta ishlash va amaliyotda foydalanish STEAM ta'limi dasturining asosini tashkil qiladi. STEAM ta'limi texnologiyasi loyihalash metodiga tayangan holda uning asosida bilash va ijodiy izlanish yotadi. Bunday izlanish amaliy faoliyat jarayonida bilimlarni olish, ulardan amaliyotda qayta foydalanish, ya'ni o'yinlarda turli konstruksiyalar tuzish, texnik ijodiyot elementlarini qo'llab, bilim olishga oid tadqiqot ishlarida amalga oshiriladi. STEAM ta'limi o'quvchining rivojlanishini tashqi olam bilan bevosita bog'laydi. Ma'lumki, texnologiya fani kundalik hayotimizda doimiy qo'llaniladi, muhandislik esa uylar, yo'llar, ko'priklar va mashina mexanizmlarda o'z aksini topgan biror bir kasb, kundalik mashg'ulotlarimiz ozmi-ko'pmi matematik hisobkitoblar bilan bog'langandir. STEAM ta'limiy yondashuvi o'quvchilarga dunyoni tizimli ravishda o'rganishga, atrofda ro'y berayotgan jarayonlarni mantiqiy mushohada qilishga, ulardagi o'zaro aloqani anglab yetishga, o'zi uchun yangi, noodatiy va qiziqarli narsalarni ochishga imkon beradi. Qandaydir yangilikni kutish orqali o'quvchida qiziquvchanlikni rivojlantiradi. O'zi uchun qiziqarli masalani aniqlab olishni, uning yechimini topishning algoritmini ishlab chiqishni, natijalarini tanqidiy baholashni, fikrlashni muhandislik stilini shakllantirishga olib keladi. Jamoaviy faoliyat olib borish ko'nikmalarini shakllantiradi. Bularning barchasi o'quvchi rivojlanishining yuqori bosqichga ko'tarilishini va kelajakda to'g'ri kasb tanlashga zamin yaratadi. SHunga ko'ra dunyoning ko'pgina mamlakatlarida STEAM ta'limiy yondashuvga katta e'tibor berilmoqda. Jumladan, Yevropaning 10 dan ortiq mamlakatlari (Avstriya, Germaniya, Frantsiya, Italiya, Niderlandiya, Norvegiya, Angliya, Irlandiya, Ispaniya va boshqalar) milliy strategiya va tashabbuslarida bu hisobga olingan.

STEAM ta'limni amalga oshirish uchun davlat ta'lim standartlariga o'zgartirishlar kiritish lozim. Masalan, bunda AQSH tajribasidan ijodiy ravishda foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi “Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida” 187-sonli Qarori. – T.: O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 14-son, 230-modda.
2. Tohirov O'.O. Texnologiya o'quv fani davlat ta'lim standarti va o'quv dasturini ta'lim amaliyotiga joriy etish metodikasi. // Metodik tavsiyanoma. – T.: RTM, 2017.-72 b.



O'ZBEKISTONDA SPORT RIVOJI

Umarov Xabibullo

Urganch tumani 38 – son maktabning
jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining jismoniy tarbiya va professional sport sohasida yuksak marralarni zabt etishi va rivojlanishi keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: sport, xalqaro maydon, individual va o'yin yo'nalishi, milliy sport, milliy kurash.

O'zbekiston Respublikasi sport jamoasi yil sayin o'z safini kengaytirib, xalqaro maydonda mustahkam va yuksak o'rinlarni egallab bormoqda. Mamlakat sportchilari erishayotgan yutuqlar yosh respublikaning xalqaro maydondagi nufuzini mustahkamlashga ishonchli yordam bermoqda. Davlatimiz bayrog'i ranglarini himoya qilayotgan yosh o'g'il-qizlar, individual va o'yin yo'nalishlari bo'yicha mutaxassislar vakillik anjumanlarida o'ziga xos tayyorgarlik va ajoyib mahorat namoyish etayotgani boy sport an'alariga ega mamlakat vakili ekanini yorqin tasdiqlaydi.

Jismoniy tarbiya va professional sport sohasida yuksak marralarni zabt etishning jiddiy istiqbollari chinakam mehnat, to'g'ri munosabat va katta moddiy sa'y-harakatlarni talab qilishiga rozi bo'lishimiz kerak. Faqatgina ushbu muhim tarkibiy qismlar mavjud bo'lganda, sportchilarning turli darajadagi startlardagi ta'sirchan muvaffaqiyatlariga ishonish, kelajakda sport yutuqlarining barqarorligi bo'yicha hisob-kitoblarni qurish kerak.

Ko'pgina mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, milliy sport va jismoniy tarbiya taqdiriga davlat tomonidan g'amxo'rlik ko'rsatilishi muqarrar ravishda ko'plab manfaatlarga aylanadi. Zero, ijtimoiy sohaning ushbu moddalarini qo'llab-quvvatlash, avvalambor, jamiyatdagi bolalar va yoshlar muhitini ma'naviy va jismoniy jihatdan sog'lomlashtirish uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

O'zbekiston bu haqiqatning arxiv ahamiyatini anglab yetgan davlatlar toifasidan chiqib ketmayotgani ramziy ma'noga ega. Mamlakatimiz davlat tuzilmalari, jamoat tashkilotlari, sport boshqarmalari sport va jismoniy tarbiya sohasining moddiy-texnik bazasini izchil rivojlantirish, ularni tashkil etishda ommaviy tus olish, sport bazasini mustahkamlash kabi muhim vazifalarni hal etishda hamisha hamjihatlikda ish olib boradi. professional sektor va boshqalar.

Mustaqillik yillarida Respublika Vazirlar Mahkamasining yangi jamiyatlar tashkil etish, sport inshootlarini barpo etish, turli toifadagi sportchilarni professional asoslarga o'tkazish uchun shart-sharoitlar yaratish orqali sport harakatini yanada rivojlantirishga qaratilgan o'ndan ortiq qaror qabul qilingan. Suveren taraqqiyot yillarida mamlakatimiz vakillari Olimpiya o'yinlari, chempionatlar va Osiyo kuboklari, Osiyo o'yinlari va boshqa yirik xalqaro musobaqalarda 731 oltin, 736 kumush va 845 bronza medalni qo'lga kiritdi. Bu shubhasiz ta'sirli.

Respublikada sportni rivojlantirish bo'yicha asosiy ishlar O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi tomonidan amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga olimpiya harakatini yanada rivojlantirish va unda respublika sportchilarining ishtirokini ta'minlash bo'yicha tadbirlar 1993-yildan buyon Xalqaro olimpiya harakatining a'zosi bo'lgan Milliy olimpiya qo'mitasi tomonidan amalga oshirilmoqda.

Ayni paytda sportning 32 turi bo'yicha O'zbekiston milliy federatsiyalari xalqaro federatsiyalarga a'zo bo'lib, turli xalqaro musobaqalarda qatnashish huquqini qo'lga kiritgan.

Jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarini tayyorlash O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya instituti tomonidan amalga oshiriladi. U har yili 2 mingga yaqin talaba tahsil oladi. Oliy ta'lim muassasasi jismoniy tarbiya o'qituvchilari va sport bo'yicha murabbiy-o'qituvchilarni tayyorlaydi.

Keyingi yillarda respublikada sportning individual turlari jadal sur'atlar bilan rivojlanib, uning moddiy-texnik bazasi jahonda qabul qilingan talablar asosida modernizatsiya qilinmoqda. Bu turkumda o'zbek futbolining asosi ko'rsatkich bo'lib, unda 36 ta jamoa ishtiroki qayd etilgan. Ular ixtiyorida 231 ta stadion, 5231 ta futbol maydoni, shuningdek, mini-futbol va futzal o'ynash uchun ko'plab maydonchalar mavjud. Respublikamizda eng ommabop sport turi bo'yicha O'zbekiston chempionati va birinchiligi, Respublika kubogi musobaqalari o'tkaziladi.

Mamlakatimiz poytaxtida har ikki yilda bir marta Amir Temur va Hakim at-Termiziy xotirasiga bag'ishlangan “kurash” milliy kurashi bo'yicha xalqaro musobaqalar bo'lib o'tadi. 1999 yilda



poytaxtda 50 ta davlat sportchilari ishtirokida milliy kurashning ushbu turi bo'yicha birinchi jahon chempionati o'tkaziladigan joyga aylandi. Kurashning ushbu turini Olimpiya o'yinlari dasturiga kiritish maqsadida ayni kunlarda Xalqaro kurash assotsiatsiyasi (XAK) faoliyat ko'rsatmoqda.

“Boshlang'ich - professional toifadagi sportchi” o'qi bo'yicha izchillikni ta'minlaydigan sport zaxirasini tayyorlash bugungi kunda tizimli. 522 bolalar va o'smirlar sport maktabi, 63 ixtisoslashtirilgan olimpiya zaxiralari bolalar va o'smirlar sport maktabi, 5 olimpiya zaxiralari maktabi, 7 oliy sport mahorati maktabi sa'y-harakatlari bilan amalga oshirilmoqda. Ularda respublikamizning barcha hududlaridan 1500 nafarga yaqin boshlang'ich sport iqtidori tayyorlanmoqda.

Oliy sport mahorati maktablari negizida Olimpiya sport turlari bo'yicha mamlakatimiz terma jamoalari tashkil etilib, ularda 150 nafar malakali mutaxassis rahbarligida 2000 nafarga yaqin yuqori toifali sportchilar tarbiyalanmoqda. Ular sportning 32 turi bo'yicha terma jamoalarning tayanchini tashkil qiladi. Xuddi shu maktablarda Olimpiada tayyorlash markazlari mavjud bo'lib, ularda istiqbolli va iqtidorli sportchilar shug'ullanadi.

Yosh mamlakat hayotida 6,5 million kishilik ulkan auditoriyani egallagan jismoniy tarbiya alohida o'rin tutadi. Ular 145 ming jamoaning asosini tashkil qiladi.

Respublikada nogironlar aravachalari sportini rivojlantirishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Uning bazasini kengaytirish nafaqat tegishli idora va jamoat tuzilmalari, balki O'zbekiston Respublikasi Ijtimoiy ta'minot vazirligi, shuningdek, Respublika nogironlar jamiyati, viloyat vakilliklari uchun ham yo'naltirilgan chora-tadbirlar mavzusiga aylandi. Xalqaro Qizil Xoch tashkiloti.

Olimpiada startlarida sportchilar va jamoalar sport etukligi va mahorati uchun asosiy sinovlardan o'tadilar. Sidneyda bo'lib o'tgan XXIV o'yinlarda O'zbekiston sharafiga 77 nafar sportchi 11 turdagi – yengil atletika, suzish, boks, dzyudo va boshqa dasturlar bo'yicha chiqish qildi. Natijani a'lo desa bo'ladi, chunki umumjamoa hisobida o'zbekistonliklar dunyoning ko'plab kuchli jamoalarini ortda qoldirib, 200ta talabgor jamoalar orasida 41-o'rinni egalladi. 312 nafar ishtirokchi o'rtasida andijonlik bokschi Muxamadqodir Abdullaev oltin, erkin kurashchi Artur Taymazov, bokschilar Sergey Mixaylov va Rustam Saidov kumush va bronza medalni qo'lga kiritdi.

O'zbekistonlik sportchilar ham ular bilan birga katta vatandoshlar armiyasi ham buyuk g'alabalar quvonchini totib ko'rdi. Va ularning barchasi oldinda hech qanday muhim boshlanishlar borligiga amin. Bu esa jahonning bosh arenalarida O'zbekistonning yuksak va g'urur bilan hilpirab turgan Davlat bayrog'i eng oliy mukofot bo'lgan munosib elchilarning yangi yorqin g'alabalarini anglatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. К.Т. Конишов, Д.У. Мусурманкулов (Ташкент, Узбекистан) Миллий спорт ўйинларини ташкил этиш муаммоси бўйича илмий адабиётлар таҳлили. 30–31 Березень, 2015 XII Міжнародна науково-практична інтернет-конференція

2. Ботиров Х.А. Ўзбекистонда жисмоний тарбия тарихи. –Т.: Ибн Сино номидаги нашриёт - матбаа бирлашмаси. 1993. -128 б.



GEOGRAFIK TASAVVURLARNING O'RTA ASRLARDA RIVOJLANISHI

Orasta Umarova

O'zbekiston tumani 29–maktab
geografiya fani o'qituvchisi
e-mail:orasta29@mail.ru

Annotatsiya: ushbu maqolada O'zbekistonda yetishib chiqqan geograf olimlar, o'rta asrlarda geografik tasavvurlarning shakllanishi xususida mulohazalar berilgan.

Kalit so'zlar: geografiya, jahon madaniyati, geografik tasavvurlar

O'rta asrlarda O'zbekistonda yetuk olimu-fozillar yetishib chiqdi. Bu o'lkaning farzandlari Muhammad Al-Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn-Sinolar yaratgan asarlar jahon madaniyati hazinasining durdonalari edi. Bizning zaminimiz bu davrda jahonning katta qismini titratgan mo'g'il istilochilari vayron qilgan o'lkaga jon bag'ishlagan Amir Temurni yetishtirib chiqardi. Muhammad al-Xorazmiy va Ahmad Farg'oniy (IX asr), Abu Zaid Balhiy, Jayhoni, Abu Abdulla Xorazmiy (X asr), Abu Rayhon Beruniy, Ibn-Sino, Mahmud Qoshg'ariy (XI asr), Xofizi Abro', Abdurazzoq Samarqandiy, Ulug'bek (XV asr), Zahiriddin Bobur, Haydar Mirza, Xofiz Buxori, Sulton Balhiy (XVI asr) boshqa fanlar qatori geografiya fani rivojiga katta hissa qo'shdilar. Ilk o'rta asrda o'lka tabiatiga qiziqish, uni kuzatish, tabiatdan xo'jalik maqsadlarida foydalanish jarayoni davom etgan. O'lka tabiati Xitoy, arab va yerli olimlar tomonidan o'rganildi. Mahmud Qoshg'ariyning XI asr oxirlarida yozilgan «Devonu lug'atit-turk» asarida R.Rahimbekovning yozishicha ilk o'rta asrdagi ovchilik, chorvachilik, dehqonchilik, shuningdek, tabiat va uning manzaralari, qabilalar hamda ular o'rtasidagi janglar ta'svirlangan. Xitoy sayyohi Syuanь TSzan 629 yilda O'rta Osiyoning Toshkent, Samarqand, Buxoro, Termiz va boshqa shaharlarda bo'lib, ularning geografik tasvirini bergan. Bunda u asosiy e'tiborni tabiatga emas, balki o'lka xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga qaratgan. VII asrning ikkinchi yarimida O'rta Osiyoga kirib kelgan arablar o'lkaning iqtisodiy va madaniy hayotiga juda katta zarar yetkazdi, natijada boshqa fanlar qatori tabiiy fanlar ham chuqur inqirozga uchradi.

Ma'lumki, IX-XII asrlar O'zbekiston hududi geografiyasi tarixida o'ziga xos yorqin davrdir. Bu davr geografik tasavvurlarning ikki muhim manbai bor. Bular O'rta Osiyolik olimlarning ilmiy asarlari, chet el geograflari va sayyohlarining ma'lumotlaridir. O'rta Osiyo geografiyasiga asos solgan, IX asrda yashab ijod etgan shu yerlik olimlardan biri Muhammad ibn Muso Xorazmiydir. U 780 yilda Xivada tug'ilib, 850-yilda Bog'dodda vafot etgan. Uning geografik merosi geodeziya, xaritashunoslik va mamlakatshunoslikka oid asarlardan iborat. Xorazmiyning eng yirik geografik asari bu «Surat-al-arz» (Erning tasviri) bo'lib, unda shaharlar, mamlakatlar, tog'lar, okeanlar, dengizlar, daryolar, ko'llar haqida ma'lumotlar keltirilgan, ularning koordinatalari ko'rsatilgan, xaritalar ham berilgan. Asar 1878-yilda Qohirada topilgan va shu yiliyoq rus tiliga tarjima qilingan.

O'zbekiston hududi tabiati, geologik tuzilishi, foydali qazilmalari, xo'jaligi, tarixi haqida buyuk olim Abu Rayhon Beruniy (973-1048 yy) juda qimmatli ma'lumotlar yozib qoldirgan. 150 dan ortiq ilmiy asar yozgan, shundan 20 tasi asosan matematik geografiya va tabiiy geografiyaga oiddir. Bular ichida bizgacha «Xarita», «Minerologiya», «Hindiston», «Geodeziya», «Osori boqiya», «At-Tafhim», «Qonuni Mas'udiy», «Saydana» kabi asarlari yetib kelgan. Beruniy o'z asarlarida Yerning shakli va o'lchamlari, Yerning quyosh atrofida aylanishi, joyning geografik koordinatalarini aniqlash usullari, o'lkamiz paleogeografiyasi haqida ma'lumotlar beradi. Prof. H.H.Hasanov Beruniy asarlarining o'rta asr geografik tasavvurlarining rivojlanishidagi benihoya katta ahamiyatini hisobga olib, O'rta Osiyodagi XI-XII asrlar geografiyasini Beruniy davri geografiyasi deb atash mumkin deb yozgan edi.

O'zbekiston hududida X-XI asrlarda geografiyaning rivojlanishida o'rta asr tibbiyotinig ulkan vakili, tabiatshunos Abu Ali ibn Sinoning (980-1037 yy) xizmatlari katta. U 280dan ortiq asar yozgan bo'lib, shundan 30 ga yaqini tabiiy fanlarga bag'ishlangan. «Kitobi ash-Shifo» asarining «Tabiat» deb atalgan bobida minerallarning, tog'larning, vodiy va tekisliklarning paydo bo'lishi to'g'risida aniq fikr va xulosalar bergan.

O'zbekiston hududida geografiyasiga oid o'rta asr manbalari muallifi Mahmud Qoshg'ariydir. U «Devonu lug'atit-turk» asarida dunyoning yangi xaritasini, joy nomlarining izohini bergan, O'rta Osiyo va unga qo'shni hududlarda yashovchi xalqlar geografiyasini aks ettirgan, astronomiyaga



oid ma'lumotlar bergan. Uning dunyo xaritasida, R.U.Rahimbekovning takidlashicha, O'rta Osiyoning Yevrosiyoda tutgan o'rni va yirik geografik ob'ektlari, tog' tizmalari, vodiylari ancha to'g'ri ko'rsatilgan. O'zbekiston hududi tabiati haqidagi geografik tasavvurlarning rivojlanishida o'rta asrda yashagan eron va arab olimlari va sayyohlari Ibn Xurdodbeh, Ibn Rusta, Al Ma'sudiy, Ibn Fazlon va boshqalarning xizmatlari ham diqqatga sazovordir.

O'rta asrda O'rta Osiyoda mo'g'illar hukumdorlik qilgan sal kam 150 yil davomida (1220-1360 yy) fan, shu jumladan geografiya og'ir ahvolda qoldi. SHunga qaramay O'rta Osiyolik olim va sayyohlar Muhammad Avfiy va Fahriddin Binokantiy, arab sayyohi Ibn Batuta, yevropalik sayyohlar Plano Karpini, Vil'gelm Rubruks, Marko Pololar o'lka geografiyasiga oid qimmatli ma'lumotlar yozib qoldirganlar. Umuman olganda, bu davrdan saqlanib qolgan manbalar o'lkamiz tabiati to'g'risida bir butun va mukammal tasavvur hosil qilmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Babushkin L.N., Kogay N.A. Fiziko-geograficheskoe rayonirovaniye Uzbekskoy Respubliki. Trudo' TashGU. Nov.seriya. Vo'p 231.Geograficheskije nauki., kn.27. Tashkent, 1964.
2. Baratov P. O'zbekiston tabiiy geografiyasi.Toshkent. O'qituvchi, 1996.



NUTQNING KOMMUNIKATIV SIFATLARI VA UNI EGALLASH ZARURATI

Umurzoqova Odinaxon

Farg'ona viloyati Furqat tumani

22-umumiy o'rta ta'lim maktabi

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada nutqning kommunikativ sifatleri va uni egallash zarurati haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: nutq madaniyati, kommunikativ sifat, notiqlik, o'quvchi nutqini o'stirish.

Nutq madaniyati haqidagi ta'limot qadimgi Rim va Afinada shakllangan bo'lsa ham, unga qadar Misr, Assuriya, Vavilon va Hindiston kabi mamlakatlarda paydo bo'lganligi notiqlik san'ati tajribasidan ma'lum. Tsitseronning “Notiqlik haqida”, “Notiq”, “Brut” asarlari, Mark Fabiy Kvintilianning “Notiq bilimi haqida”, Aristotelning “Ritorika” kabi asarlari ham qadimgi Gretsiya va Rimda madaniy nutq, notiqlik nazariyasi ancha rivojlanganligini ko'rsatadi.

O'rta Osiyo madaniyati tarixida ham nutq madaniyati o'ziga xos mavqega egadir. “Nutq odobi”, “Muomala madaniyati” nomlari bilan yuritilib kelingan “nutq madaniyati” tushunchasi juda qadimdan olimlar, ziyolilarning diqqatini tortgan: Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Abu Abdulloh al-Xorazmiy, Mahmud Koshg'ariy, Mahmud Zamaxshariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, So'fi Olloyor, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi ulug' siymolar nutq odobi masalalariga, umuman, nutqqa jiddiy e'tibor berish bilan birga, tilga, lug'atga, grammatikaga va mantiqshunoslikka oid asarlar yozganlar.

Adabiy me'yor adabiy til bilan birga, badiiy adabiyotning, xalq madaniyatining taraqqiyoti bilan rivojlanib, o'z qonun-qoidalarini mustahkamlab boradi. Bugungi kunda ona tilimizga bo'lgan e'tibor nihoyatda katta. Ayniqsa, yoshlarning nutqini rivojlantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu haqda A.Mamatovning quyidagi mulohazalarini keltirish o'rinli: “Yoshlarning adabiy til normalariga amal qilgan holda so'zlashishi, nafaqat ularning o'qimishlilikidan darak beradi, balki ayni vaqtda aqlli va madaniyatlilikini ham ko'rsatadi. Shuning uchun yoshlar hamma vaqt nutq madaniyati va nutq odobiga qat'iy rioya qilgan holda so'zlashga harakat qilishlari lozim. Talaffuz etilgan har bir tovush, so'z, ibora, aniq va ravon jaranglashi kerak. Yoshlarning notiq bo'lishi shart emasdir (balki), lekin faqat fikrini, tushunchalarini to'g'ri, aniq iboralar bilan ifoda qilishlari zarur, chunki ona tilimizning sofligini saqlash har bir yosh avlodning sharaflil burchidir”.

Til o'zining ijtimoiy tabiatiga muvofiq jamiyat rivoji bilan bab-baravar takomillashib borar ekan, tilning me'yorlari ham o'zgarib, yanada mukammallashib boradi. “To'g'rilik deganda, - yozadi V.G.Kostomarov, - nutq madaniyatining zarur va birinchi sharti sifatida adabiy tilning ma'lum paytda qabul qilingan me'yoriga qat'iy va aniq muvofiq kelishini, uning talaffuz, imloviy va grammatik me'yorlarini egallashni tushunish lozim bo'ladi”.

Kishilar o'rtasidagi mulohazotni talab darajasida ta'minlay oladigan nutq to'g'ri bo'lishi bilan bir qatorda aniqlik sifatiga ham ega bo'lishi shart. Qadimgi yunon donishmandi Aristotel o'zining «Ritorika» kitobida nutqning asosiy fazilati uning aniqligida ekanligini aytib, «agar nutq aniq bo'lmasa, u o'z maqsadiga erisha olmaydi» deb ta'kidlaydi. Nutqiy ifoda aniq bo'lishi uchun, avvalo, nutq tuzuvchining o'zi aytmoqchi bo'lgan fikrini tiniqlashtirib olishi kerak. Ko'pincha tadqiqotchilar rus adibi L.N.Tolstoyning «So'zdagi noaniqlik shubhasiz, fikr noaniqligining alomatidir» degan gapini iqtibos qiladilar.

O'rinsiz qo'llangan chet so'z, ya'ni adabiy til me'yorlariga kirmagan so'zlar, shuningdek, birikma va iboralarning nutqqa kirib qolishi, shuningdek boshqa til sintaktik qo'llari asosida jumla tuzish nutqning sofligini buzishi tabiiy. Atoqli adib Fitrat o'zining «Adabiyot qoidalaril» asarida nutqning («uslubning») umumiy zaruriy sifatleri («hollari») tarzida to'g'rilik («tuzuklik»), aniqlik («ochiqlik»), soflilik kabilarni tahlil etar ekan, xususan, soflilikka shunday ta'rif beradi: «Uslubda soflilik so'z tuzishda, gap tuzishda yotchilik ko'rsatmaslik, asarga yot so'zlar yo eski onglashilmas so'zlarni kirgizmaslik, yot tillarning nahviy qoidalariga qarab gap tuzmaslikdir”. Shunday ekan, nutqning boyligi ham zaruriy kommunikativ sifatlardan biridir. Ulug' mutafakkir Alisher Navoiy aytganidek, «Bir deganni ikki demak xush emas, So'z chu takror o'ldi, dilkash emas». Shuning uchun nutqning bu sifati rang-baranglik tarzida ham talqin etiladi, ya'ni boylilik tegishli fikr ifodasi uchun qo'llangan til birliklarining xilma - xilligi, rang - barangligi bilan o'lchanishiga



urg'u beriladi. Qadimgi yunon faylasufi Galikarnaslik Dionisiy “So'zlarning qo'shilishi haqida» nomli asarida nutqning rang-barangligi (boyliqi) sifatining zaruriyati to'g'risida shunday yozadi: «Umuman barcha yoqimli narsalarday hatto har qanday go'zallik ham tinimsiz takrorlansa, jonga tegadi; xilma - xil, rang - barang o'zgarishlarda esa bu go'zallik mangu yangi bo'lib qolaveradi.»

O'zbek adabiy tili me'yorlarini puxta egallash, yuqori savodxonlik, nutq madaniyati va mahoratiga erishish, notiqlik sifatlarini to'la o'zida namoyon etish uchun har bir pedagog, avvalo, nazariy bilimga ega bo'lishi va uni amaliyotda qo'llay olishi kerak. Nutqning madaniyligini ta'min etadigan to'g'rilik, aniqlik, mantiqiylik, ifodalilik, boylik, soflik, kabi kommunikativ sifatlarning barchasini o'zida mujassamlashtirgan nutq madaniy nutq hisoblanadi. Xullas, madaniy nutqni yuzaga keltirish uchun yuqoridagi kommunikativ sifatlarga javob beradigan nutq tuzish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Po'latov I. Ahmedova H. Nutq madaniyatini shakllantirish usullari. Toshkent. 2008.
2. Ibrahimov I. O'zbek milliy tilining nutq madaniyati masalalari. Toshkent, 1969.



BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA O‘QITISHNING USUL VA TEXNOLOGIYALARI

Xolova Shaxnoz

Navoiy viloyati, Qiziltepa tumani
15-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich ta‘limda o‘qitishning usul va texnologiyalari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta‘lim, usullar, paravoz, yangilik, kashf etmoq, masala...

O‘quvchining bilim olishiga, o‘qishi, o‘rganishi, ularni ichki ehtiyojlariga aylanishi, real hayotga kirib borishi, dunyoni anglashi kabi xislatlarni rivojlantirishga o‘qituvchi mas‘uldir. Bunday holatda o‘qituvchi faqat “baholovchi” emas, balki yangi bilimlar beruvchi yetkazuvchi manbaga aylanadi. Kompyuterdan, internetdan mobil aloqa vositalaridan foydalanadigan hozirgi kun o‘quvchisini oddiy ma‘ruza usulidagi dars va mashg‘ulotlar qanoatlantirmay qo‘ydi. Endilikda o‘qituvchi o‘quvcilarni o‘z faniga qiziqitirish uchun ta‘limning eng maqbul vosita va usullarini aniqlashi, ulardan o‘z o‘rnida va samarali foydalanish yo‘lini belgilashi, o‘quv dasturi bo‘yicha qaysi mavzularni qaysi usul va shaklda o‘tish natijali ekanligini aniqlashi zarur bo‘ladi. Aytish joizki, bu kabi tartiblar o‘quvchilarni faollashtirish barobarida mantiqiy fikrlashini rivojlantiradi, bilimni yuksaltiradi.

Boshlang‘ich ta‘limda o‘qitishning juda ko‘plab usul, uslub va texnologiyalari mavjud. O‘quv jarayonida qo‘yilgan maqsadga erishish uchun o‘qituvchi ulardan samarali va ijodiy foydalanishi lozim. Dars jarayonlarida qo‘llash uchun ba‘zi bir usullar haqida to‘xtalib, o‘tmoqchiman.

“Paravoz” usuli. Bu usulni matematika darslarida qo‘llash tavsiya etiladi. Bunda 0 dan 10 gacha bo‘lgan raqamlarda mavzuga oid misol va masalalar yoziladi va o‘quvchilar ketma-ket turib paravozlarni tanlaydilar hamda misollarni bajaradilar.



“Yangilik kashf etish orqali o‘rganish” texnologiyasi.

Bu yondoshuv o‘quvchilarning egallagan nazariy bilimlarini tadbiq etish bilan bir qatorda ularning o‘z-o‘zlarini rag‘batlantirish orqali bilim va ko‘nikmalar to‘plashlariga sharoit yaratadi.

Asosiy tamoyillari quyidagicha:

O‘rganishdan maqsadni avvaldan aniqlab olish talab qilinadi.

Oldindan aniqlangan va sog‘lom tarzdgai o‘rganishga asoslangan natijalar.

Muvaffaqiyat – faoliyat-yutuq motivatsiyasiga asoslangan.

«Pochtachi» ta‘limiy usuli.

Bunda o‘quvchilardan biri pochtachi sifatida sinfga kirib keladi va o‘quvchilarga bittadan surat



solingan xatjild topshiradi. Har bir o'quvchi qo'lidagi suratda nimalar tasvirlanganligini so'zlab beradi. Boshqa o'quvchilar o'rtoqlarining hikoya davomida nechta so'zdan foydalanganini sanab boradi. So'zlardan ko'p va o'rinli foydalangan o'quvchi g'olib sanaladi.


“Do'stingizni qutqaring” texnologiyasi orqali o'quvchilar guruh bo'lib bir-biriga mehrlanish, hamjihatlik, bilimni yanada mustahkamlash, tezkorlik, hozirjavoblik jihatlari oshirishga undaydi.

“Alifbo bilag'oni” usuli orqali o'quvchilarning alifboni qanchalik chuqur o'rganganliklarini nazorat qilish nmaqsadida foydalanish yanada foydali bo'ladi. Darslar davomida bu o'yindan turli o'rinlarda foydalanish mumkin. Bu usul orqali o'quvchilarning bilimni, xotirasini yanada charxlashga yordam beradi.



Masala yechish

To'g'ri to'rtburchak shaklidagi maydonning bo'yi **22 m**, eni **10 m**. Shu maydon o'rtasida kvadrat shaklida ikkita bir xil gulzor ajratildi. Agar gulzor(kvadrat)ning tomoni **6 m** bo'lsa, qolgan joyni yuzini toping.



Shunday qilib, o'yinlarning o'quvchilar bilimni oshirishda, mustahkamlashda, bilimi boyishida o'rni kattadir. O'yin, ayniqsa boshlang'ich sinf o'quvchilarining asosiy faoliyat turi bo'lganligi uchun ham, bu darslarda qo'llanish o'quvchilarga o'zlashtirishga katta yordam beradi. O'qituvchining esa maqsadiga yetaklaydi. Ta'lim sifatining oshishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. I.X.Teshaboyev. “Interfaol usullari”. T.2009-yil
2. Ma'naviyat – qalbim quyoshi. Toshkent - 2013
3. Internet saytlari.



INNOVATIVE METHODS FOR TEACHING ENGLISH AS A SECOND LANGUAGE

Xusainbekova Iqboloy Radjabbayevna

Teacher of English language, secondary school No 11, Urgench, Khorezm region

Abstract: English is the official language of many countries including Uzbekistan. So there is always a need for people to use the language effectively. In order to acquire proficiency in English language one must take efforts to learn the four major skills in the same.

Key words: English language, skills, teaching, innovative methods, second language.

Modern methodology is rich in teaching methods and principles. Each of them has its own advantages and disadvantages, merits and defects, but none is perfect. So, it is very important to find out the exact method of teaching in a particular case. Innovative methods and technologies of teaching today are gaining increasing recognition and new opportunities associated with the establishment of interpersonal interaction through external dialogue in the process of assimilation of educational material, as well as contribute to the implementation of the principle of continuity of knowledge transfer, the formation of competencies, personal and meta-professional qualities of students. As for us we consider it necessary to use some of innovative methods for teaching adults as they respond to the above mentioned principles and characteristics of adult language teaching. Among them there are such methods as: method of direct instruction (J. Wiechmann and J. Grell), method of electronic self-directed education (T.M. Balykhina), method of pedagogic studio work (E.V. Nevmerzhitskaya), method of interdisciplinary projecting (S.E. Kaplina).

The teaching of foreign languages are done traditional or slightly teacher-centered methods rather than modern student-centered applications and techniques while the transmission of knowledge and information has been realized with the usual form of lectures or discussions requiring physical presence of both student and the teacher. Furthermore the teaching methods used may differ in terms of the degree of influence on active learning. The aim of this article is to analyze the traditional and innovative methods for teaching and learning the foreign language as well as to reveal and prove a set of effective pedagogical conditions for learning languages. We can turn our attention to the comprehensive description of the key words, “traditional methodology” and “modern methodology”. One of the aims of any methodology in foreign language teaching is to improve the foreign language ability of the student. However, traditional methodology is based largely on a reduction of the integrated process of using a foreign language. Very typical feature of traditional methodology is the teacher – dominated interaction. The teaching is deeply teacher-centered. Unlike traditional methodology, modern methodology is much more student-centered. The teacher’s main role is to help learning to happen, which includes involving students in what is going on by enabling them to work at their own speed, by not giving long explanations, by encouraging them to participate, talk, interact, and do things. Broughton adds that the language student is best motivated by practice in which he senses the language is truly communicative that it is appropriate to its context, that his teacher’s skills are moving him forward to a fuller competence in a foreign language.

As a traditional method, before, lectures were formalized – professors used to deliver a lecture and students used to write down the most important things from what they have heard. As a modern tradition, some innovations came through and lectures became more active.

References:

1. Broughton G. Teaching English as a Foreign Language. Oxford university press, 2008.
2. Scrivener J. Learning Teaching.- Oxford. Macmillan, 2005.



МАЛАКА ОШИРИШ ТИЗИМИДА ТИНГЛОВЧИЛАРДА ТАНҚИДИЙ ФИКРЛАШНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

Турманов Куатбай Аманбаевич

Нукус Давлат педагогика
институты таянч докторанти
Телефон: +998(90) 724 62 15
q.turmanov83@umail.uz

Аннотация: Мақолада малака ошириш тизимида тингловчиларнинг танқидий фикрлашини ривожлантиришнинг аҳамияти, танқидий ва таҳлилий фикрлашини ривожлантириш усуллари ҳақида сўз юритилади. Тингловчиларда танқидий фикрлашни ривожлантиришда интерфаол методлардан самарали фойдаланиш усуллари ҳақида тухтаб ўтилади.

Калит сўзлар: Танқидий фикр, таҳлилий фикрлаш, интерфаол методлар, вербал, новербал, дидактик уйинлар, мустақил ишлар методи, муаммоли-эвристик моделлаштириш методи, илмий тадқиқот методлари.

Танқидий фикр – бу қўйилган масала ёки муаммо юзасидан ўз фикрини баён қилиш, ўзгаларнинг фикрларини танқидий қайта идрок этиш, ўз нуқтаи назарини асослаб бериш ва сақлаб қолиш имкониятига эга бўлишга асослангандир. Яна бу қоидага аниқлик киритадиган бўлсак, фикрлаш – бу ўқиш, ёзиш, сўзлаш ва эшитишга ўхшаш жараён. У фаол, мувофиқлаштирувчи шундай жараёнки, ўзида бирор ҳақиқат тўғрисидаги фикрларни қамраб олади.

Танқидий фикрлаш - ҳаётнинг мураккаб ўзгарувчанлик маъносини тушуниб этишга ёрдам беради, жамоанинг очиқ фикрини рағбатлантиради, тушуниш ва ҳурматнинг икки томонламалигини англатади ва шахснинг ривожланишига шароит яратиши билан аҳамиятлидир.

Малака ошириш жараёнида танқидий ва таҳлилий фикрлаш:

- Профессор-ўқитувчи ва тингловчилар ўртасидаги ҳамда тингловчилар ўртасидаги ўзаро ҳурматни тарбиялайди;

- Машғулот жараёнида тингловчининг ўз тажрибасидан фойдаланишига имкон яратади;

- Ҳар хил фикр ва қарашлар интеграциялашади.

Малака ошириш тизимида тингловчиларнинг танқидий ва таҳлилий фикрлашини ривожлантиришга ва мустақил таълим олиши учун шароит яратилиши лозим. Машғулотлар жараёнида фойдаланиладиган методлар ва дидактик ўйинли технологиялар тингловчиларнинг билиш фаолиятини фаоллаштириш, дарслик ва қўшимча адабиётлар устида мустақил ишлаш, нутқ ва мулоқот маданиятини ривожлантириш, дидактик ўйин давомида вужудга келган қийинчиликларни бартараф этишда мўлжални тўғри олиш, ҳар хил вазиятларни таҳлил қилиб, тўғри хулоса чиқаришга замин ҳозирлайди. Ўқув дастурлари талабларига мувофиқ муаммоли ёки мунозарали машғулотларнинг ташкил этилиши танқидий ва таҳлилий фикрларнинг ривожига муҳим аҳамиятга эга. Ўқув жараёнида мунозарали дарсларнинг икки хили: илмий мунозара дарслари ва эркин фикрлаш дарсларидан фойдаланилади.

Интерфаол методлар - ўзаро фикр алмашишга, ўзаро фикрларни тўлдиришга, гоҳ новербал, гоҳ вербал таъсир ўтказишга қаратилган ҳаракатлар мажмуасидир. Интерфаол методларни қўллашда ўзаро таъсир асосига қурилган интеллектуал ҳаракатлар шунчаки таъсир ёки туртки вазифасини бажариш билан чекланиб қолмайди ва ҳамкорлик субъектларини ижодий изланишга йўналтириш, номаълум ҳолатни очишга ва кашф этишга қўмак берувчи назарий-ақлий мулоҳазаларни яратиш функцияларини ҳам бажариши мумкин.

Малака ошириш жараёнида ўқув мазмунини ўзлаштиришда тингловчиларнинг билим савияси, ўзлаштириш даражаси, таълим манбаи, дидактик вазифаларга мувофиқ ва муносиб равишда қуйидаги интерфаол методлардан фойдаланиш яхши самаралар бериши мумкин:

- ўқитишнинг кўргазмали методи;
- мустақил ишлар методи;
- муаммоли-эвристик моделлаштириш методи;
- илмий тадқиқот методлари;



–ўқитишнинг муаммоли-изланишли методлари;

– ўқитишнинг назорат ва ўзини ўзи назорат қилиш методлари.

Малака ошириш таълими, тингловчиларнинг топшириқни мустақил бажариш жараёнини зукколик билан бошқаради, эътибор билан кузатади, керак бўлганда жонли мулоқотга чорлайди. Тингловчилар мантикий фикрлаш давомида уларнинг жонли мушоҳадаси, фикр доираси профессор-ўқитувчи томонидан изчиллик билан ҳисобга олинади ва таҳсил охирида фаол малака ошириш таълими иштирокчиларга қўйилган баллар ёки баҳоларни эълон қилади. Малака ошириш таълимида тингловчиларда умумлашган психологик ва услубий билим, иқтидор ва кўникмаларни шакллантириш, ўз тажрибаларини танқидий нуқтаи назардан янада мустаҳкамлаш, реал ҳақиқий амалиётдаги шароитда синаш ва амалий компетенцияларни янги билимлар билан янада бойитиш мақсадида шу услубдан фойдаланилади. Танқидий фикрлашни ривожлантириш осон иш эмас. Бу муайян ёш даврида тугалланган ва эсдан чиқарилган вазифа ҳам эмас. Шу билан бирга танқидий фикрлашга олиб борадиган тугалланган йўл ҳам йўқ. Аммо танқидий фикрловчиларнинг шаклланишига ёрдам берувчи муайян ўқув шароитлари тўплами мавжуд.

Танқидий фикрлаш тажрибасини эгаллаши учун малака ошириш таълими иштирокчиларга вақт ва имконият бериш зарур, яъни, тингловчиларга фикр юритиш учун имконият бериш, турли-туман ғоя ва фикрларни қабул қилиш, тингловчиларнинг ўқув жараёнидаги фаоллигини таъминлаш, ҳар бир тингловчининг танқидий фикр юритишга қодир эканлигига унинг ўзида ишонч ҳиссини уйғотиш, танқидий фикрлашнинг юзага келишини қадрлаш лозим. Шунинг билан бирга тингловчилар - ўзига ишончли орттириш, ўз фикри ҳамда ғояларининг қадрини тушуниш, таълим жараёнида фаол иштирок этиш, турли фикр ва ғояларни эътибор билан тинглаш, ўз ҳукмларини шакллантиришга ва ундан қайтишга тайёр туриши лозим.

Хулоса қилиб айтганда, малака ошириш тизимида тингловчиларнинг танқидий ва таҳлилий фикрлашини ривожлантириш таълимнинг ушбу тури ўқув-тарбия жараёнида камол топтирувчи ҳамда тарбияловчи принципларни амалга оширишда ва тингловчиларнинг ўзини ўзи бошқаришида муҳим рол ўйнайди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Тургунов С.Т., ва.б. Ўқитувчиларнинг касбий маҳорат ва компетенлигини ривожлантириш – Тошкент 2012 йил.
2. Ишмухамедов Р.Ж., Юлдашев М. Таълим ва тарбияда инновацион педагогик технологиялар.– Т.: “Ниҳол” нашриёти, 2016 йил.



ABU NASR FOROBIYNING – FUQAROLIK JAMIYATIDAGI O‘RNI

Raxmatullayev Shohrux Qudrat o‘g‘li

Xorazm viloyati Xiva shahri 12-sonli
umumiy o‘rta ta’lim maktabining Tarix fani o‘qituvchisi

Telefon: +998 97 856 00 19

raxmatullayevshohrux1@gmail.com

Matyaqubov Maqsad Batirovich

Xorazm viloyati Xiva shahri 12-sonli
umumiy o‘rta ta’lim maktabining Huquq fani o‘qituvchisi

Telefon: +998 99 540 96 98

maqsadbekmatyaqubov@gmail.com

Annotatsiya: Quyida berilgan ushbu ilmiy maqolada, Abu Nasr al-Forobiyning – fuqarolik jamiyatidagi o‘rni ya’ni – Forobiyning “Fozil shahar odamlari qarashlari” asarida jamiyatning kelib chiqish sabablarini ilmiy jihatdan asoslab berishi va uning fikrlari, sharqona siyosiy-huquqiy va ijtimoiy qarashlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Forobiy, jamiyat, ijtimoiy, tabaqa, davlat, odam, adolat.

Antik yunon falsafasini yanada rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan, Sharq uyg‘onish davrining mutafakkiri Abu Nasr al-Forobiy insoniy jamiyatni puxta o‘gangan olimlar jumlasiga kiradi. Forobiy “Fozil shahar odamlari qarashlari” asarida jamiyat (“inson jamoasi”)ning kelib chiqish sabablarini ilmiy jihatdan asoslab beradi; “Har bir inson o‘z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko‘p narsalarga muhtoj bo‘ladi, uning bir o‘zi bunday narsalarni qo‘lga kiritmaydi, ularga ega bo‘lish kishilik jamoasiga ehtiyoj tug‘iladi. Shu sababli yashash uchun zarur bo‘lgan, kishilarni bir-biriga yetkazib beruvchi va o‘zaro yordamlashuvchi ko‘p kishilarning birlashuvi orqaligina odam o‘z tabiati bo‘yicha intilgan yetuklikka erishuvi mumkin. Bunday jamoa a‘zolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashash va yetuklikka erishmoq uchun zarur bo‘lgan narsalarni yetkazib beradi. Mutafakkir nazdidagi inson jamoasi – bu kishilik jamiyati hisoblanadi. Forobiy jamiyatning ijtimoiy tuzilmasi sifatida jamiyatdagi turli ijtimoiy tabaqalarni chuqur tahlil etadi. Abu Nasr Forobiyning fikricha, mukammal jamiyatda har bir tabaqa, yaxlit ijtimoiy organizmning ajralmas qismi sifatida, o‘zining muayyan funksiyalariga ega bo‘lib, go‘yoki shu vazifalarni bajarish uchun ixtisoslashganlar. Forobiy orzu qilgan ideal davlatda ijtimoiy tabaqalar o‘rtasidagi farqlanishlar saqlanadi. Mutafakkir biron-bir tabaqaga mansub odamlarning vazifalari va majburiyatlari o‘rtasida tafovutlarning saqlanishi, har bir odamning o‘z kasbini yaxshi bilishi va o‘z vazifalarini bajarishi jamiyatning sobitligi hamda adolatning yuzaga chiqishi uchun zarur bo‘lgan omildir, deb qaraydi. Forobiy o‘zidan oldingi barcha o‘tmishdoshlaridan farq qilib, adolat haqidagi quyidagi ta’rifini keltiradi: “Adolat – avvalambor butun shahar ahli tomonidan yaratilgan ne‘matlarni to‘g‘ri taqsimlash hamda kishilar o‘rtasida bu ne‘matlarni taqsimlash qoidalarini saqlash demakdir. Bunday ne‘matlar qatoriga kishilarning farovonligi, boylik, turli unvonlar va jamiyatda tutgan o‘rni hamda odamlarning moddiy-iqtisodiy va ma’naviy hayotiga oid boshqa ko‘pgina ne‘matlar (narsalar) kiradi. Jamoa a‘zolarining har biri o‘zining xizmatiga yarasha bu ne‘matlardan tegishli hissasiga egadir. Agar ne‘matlar bir odamga nisbatan kamroq taqsim etilsa, bu holda u odamga nisbatan adolatsizlik bo‘ladi. Aksincha, o‘sha odamga ne‘matlar ko‘proq taqsim etilsa, unda boshqa fuqarolarga nisbatan adolatsizlik sodir qilingan bo‘ladi.

Forobiy shunday yozadi: “Agar saltanat har qanday talabga javob bersa-yu, ammo uni donishmandlik tark etsa, mamlakat hukumatsiz qoldi, deyavering. Bu mamlakatni boshqaruvchi hukmdor ham o‘z mavqeini butkul yo‘qotadi. Mamlakat esa halokatga yuz tutadi”.

Forobiyning “Fozil odamlar shahri”, “Davlat arbobining aforizmlari” asarlarida sharqona siyosiy-huquqiy va ijtimoiy fikr tarixida ijtimoiy tizim, siyosat, davlat va hukumat haqidagi qarashlar nazariy asoslangan. Abu Nasr Forobiy fikricha adolatli jamiyat qurish uchun uni mudofaa qilish va oqilona boshqarish usulini bilish, odamlarga yovuzlikdan saqlanish ezgulikka intilish yo‘llarini ko‘rsatish lozim. U davlat rahbarining boshqaruv mahorati umumiy baxtga erishish yo‘lidir deb hisoblaydi. Adolatli davlatni ma’rifatli hukmdor boshqaradi, u ma’naviyat, adolat yetakchisi bo‘lishi, o‘z fazilatlarini bilan qat’iy talablarga javob berishi lozim. Bu borada Abu Nosir



Forobiy “Ularning o‘zlaridan saylangan rahbar yoki boshliqlar hokimi mutloq bo‘lmaydi. Ular odamlar ichidan ko‘tarilgan, sinalgan eng oliyjanob, rahbarlikka loyiq kishilar bo‘ladilar. Shuning uchun bunday rahbarlar o‘z saylovchilarini to‘la ozodlikka chiqaradilar, ularni tashqi dushmandan muhofaza qiladilar”, deb davlat boshqaruvida demokratik tamoyillarni ta‘minlash bilan bog‘liq axloqiy va madaniy qadriyatlarni tizimlashtiradi.

Xulosa qilib aytganda, adolat kishilar va turli tabaqalar o‘rtasida o‘zaro iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlarda to‘g‘ri taqsimlashning belgisi vazifasini bajaruvchi kategoriyadir. Hukmdorlar dorini bemorning sevimli va ko‘p tanovul qiladigan taomiga qo‘shib ichiradigan mahoratli tabibga o‘xshamoqlari lozim. Zero, mehru muhabbat va rag‘batlantirishlar fuqarolar bilan muomalaning eng asosiy usulidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abu Nasr Forobiy// <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/hikmatlar/mumtoz-faylasuflar/abu-nasr-forobiy>
2. Fuqarolik jamiyati//https://uz.wikipedia.org/wiki/Fuqarolik_jamiyati
3. Fuqarolik jamiyatida Forobiyning o‘rni// <https://hozir.org/mavzu-fuqarolik-jamiyati-ijtimoiy-tuzilmasida-mulkdorlar-sinfi-v2.html>
4. Fuqarolik jamiyatida Forobiyning o‘rni// <http://www.samvmi.uz/frontend/web/images/Gumanitar%20kafedra/O.Haydarov%20Fuqarolik%20jamiyati.pdf>



ТАЪЛИМ МУАММОЛАРИ ЕЧИМИДА ПЕДАГОГИК ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ

Ашрапова Шохид Пайзуллаевна

Тошкент вилояти Занги ота тумани
42-сон умумий ўрта таълим мактабининг
биология фани ўқитувчиси

Бойтураева Шахноза Абдихабобовна

Тошкент вилояти Бекобод тумани
12-сон умумий ўрта таълим мактабининг
биология фани ўқитувчиси.

Мусурмонкулова Умида Абдиганиевна

Тошкент вилояти Оққўрғон тумани
15-сон умумий ўрта таълим мактабининг
биология фани ўқитувчиси.
+998990849778 x.turdiyev@cspi.uz

Аннотация: Таълим тарбия жараёнлари кенг қўлламда ўрганилиб, уларни амалиётда тадбиқ этиш чора тадбирлари ишлаб чиқилди. Илмий педагогик изланишларни баҳолаш мезонлари тўғрисида фикр юритилганда, аввало тадқиқотнинг замонавийлиги, долзарблиги, ундан кўзланган мақсад ҳамда натижалар назарида тутилади. Таълимда юқори сифат ва самарадорликка эришиш учун юқори даражадаги касбий маҳорат, ижодий ёндашув, дарс жараёнига илғор педагогик технологияларни жорий этиш, ахборот-коммуникация технологиялари (электрон дарслик, ўқув фильми, виртуал лаборатория ишлари ва аниматсион кўргазмалар тажрибалар)дан самарали фойдаланиш, илғор педагогик тажрибани ҳамда таълим ва тарбиянинг назариясини чуқур ўрганиш, уларни ўз тажрибалари билан солиштириб кўриш, баъзиларини ўз ишида тадбиқ қилиш.

Калит сўзлар: Педагогик маҳорат, инновация, кластер, ўқув филмлар, виртуал лабораториялар, электрон дарслик, БКМлар.

Миллий истиқлолни қўлга киритилиши Республикада таълим тизимини тубдан ислоқ қилиш ва уни янада ривожлантириш имкониятини яратди. Таълим тарбия жараёнлари кенг қўлламда ўрганилиб, уларни амалиётда тадбиқ этиш чора тадбирлари ишлаб чиқилди. Таълим тўғрисидаги қонун ва Қадрлар тайёрлаш миллий дастурини қабул қилиниши эса бу борада амалга оширилаётган ишларни янада ривожлантириш ва жадаллаштириш имконини берди.

Илмий педагогик изланишларни баҳолаш мезонлари тўғрисида фикр юритилганда, аввало тадқиқотнинг замонавийлиги, долзарблиги, ундан кўзланган мақсад ҳамда натижалар назарида тутилади.

Таълимда юқори сифат ва самарадорликка эришиш учун фан йўналишидаги янгиликларни излаб топиш ва таълим жараёнига тадбиқ этиш, ўқувчиларнинг мазкур фанга қизиқишларини ошириш, ҳозирги замон фан-техникасини ўрганишга интилишини ўстириш талаб этилади.

Халқимизнинг келажаги мустақил Ўзбекистоннинг истиқболи кўп жиҳатдан ўқитувчига унинг савиясига, ёш авлодни ўқитиш ва тарбиялаш ишига бўлган муносабатига боғлиқ. Ўқитувчи шахсининг касб соҳасидаги хусусиятлари бу-болаларни севиш, улар билан ишлашга қизиқиш, ўз касбига муҳаббатли бўлиш, педагогик назокат, педагогик тасаввур, ташкилотчилик қобилияти, ҳаққонийлик, дилкашлик, талабчанлик, қатъийлик ва мақсадга интилиш, вазминлик, ўзини тута билиш, касбий лаёқатлик ва бошқалар. Самарали педагогик таъсир кўрсатишни тўғри ташкил этиш болалар билан муомала қилишда, самимий муносабатда бўлишга ёрдам беради. Амалий педагогик фаолиятда илмий ғоялар ва педагогик тарбияни қўллаш, ўқитувчи меҳнатига кўп жиҳатдан боғлиқ. Лекин бу меҳнат натижалари дархол кўринмайди. Унинг махсулини кўриш учун йиллаб меҳнат қилиш керак. Ўқитувчи фаолиятини ўрганиш шуни кўрсатадики, бу фаолият ўзининг сифат кўрсаткичлари бўйича ҳам турлича бўлади. Ҳақиқий фидоий ўқитувчилар ўз фаолиятида энг яхши натижаларга эришадилар. Тажрибали новатор ўқитувчилар болаларга самарали таълим тарбия бериш билан бир қаторда педагогика фанидан янги йул ҳам очмоқдалар.

Педагогик меҳнатни амалга ошириш жараёнида қуйидаги хусусиятларни ўз фаолиятида



амалга оширишлари зарур.

1. Ўқитувчининг сиёсий қарашлари ва эътиқодининг аниқлиги ҳамда барқарорлиги, ўқувчилар олдида чинакам обрў эътибор қозониши.

2. Мамлакатнинг бутун ижтимоий ҳаётида фаол иштирок этиш ва эгаллаган тажрибаларни таълимга олиб кириш, бу фаолиятга ўз ўқувчиларини жалб қилиш, уларни ижтимоий ҳаётда фаол иштирок этишини таъминлаш.

3. Хар бир ўқувчи шахсига катта қизиқиш билан қараш ва барча жамоа ишларини ташкил этиш.

4. Ўқитувчилар ўз ишларига бугунги кун талаби билан эмас, балки келажакни ўйлаб иш юритиш.

5. Болаларга бўлган муносабатлари уларнинг тақдири ҳақида ғамхўрлик қилиш, ўз тарбияланувчиларининг келажакни билан қизиқиш.

6. Ўқувчи шахсига хар томонлама таъсир кўрсатиш.

7. Илғор педагогик тажрибани ҳамда таълим ва тарбиянинг назариясини чуқур ўрганиш, ҳамма янгиликларни тушуниб олиш, уларни ўз тажрибалари билан солиштириб кўриш, баъзиларини ўз ишида тадбиқ қилиш.

Биз ўқитувчилар олдида қўйилган улкан вазифалардан бири назарияни амалиётга кўллаб дарс ташкил қилиш.

— ўқитувчиларнинг мавзуни тушунтириш жараёнида ўқувчиларга табиатда технологик кузатишлар олиб боришни тўлиқ тушунтирмаётгани;

— мавзулар бўйича мавжуд ўқув филмлари, виртуал лабораториялар, кўргазмали тажрибалар, жиҳозлардан унумли фойдаланилмаётгани;

— ўқувчиларнинг назарий билимларини ҳаёт билан боғлаб олиб бормасдан, фақат дарсликда берилган маълумотлар билан чекланиб қолгани;

Дарсдан ўқувчи ҳайратлансагина устозга эргашади, фанга яқинлашади. Зерикарли, маърузаларга бой дарслар билан БКМларни ҳосил қилиб бўлмайди, натижага эришиб бўлмайди. Бир дарснинг ўзида ҳам мавзуни тушунтириш, ҳам уни амалда кўрсатиш учун вертуал лабораториялар кўл келади. Фақат доскадан фойдаланмасдан экранда Power Point дастурида тайёрланган анимацион кўргазмали дастурлар ўқувчилар онгида узоқ қолиб кетади.

Мураккаб мавзуларни ўқитишда қуйидаги омилларга эътибор қаратиш зарур:

* юқори даражадаги касбий маҳорат;

* ижодий ёндашув;

* дарс жараёнига илғор педагогик технологияларни жорий этиш;

* ахборот-коммуникация технологиялари (электрон дарслик, ўқув фильми, вертуал лаборатория ишлари ва анимацион кўргазмали тажрибалар)дан самарали фойдаланиш;

* таълим жараёнининг ўқув-методик жиҳатдан таъминлангани.

Таълим мазмунини ахборот тизимида ўзлаштирилиши, фикр кучи билан эмас, балки хотира асосида билим ўзлаштириш ўқитувчиларимизга хос хусусиятларга айланмоқда

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикасининг «Кадрлар тайёрлаш Миллий дастури». Тошкент, 1997 й.

2. А.Т.Ғофуров, Толипова Ж. “ Умумий биологияни ўқитишнинг норасмий усул ва шакллари” Тошкент 1990 й.

3. Толипова Ж.О. “Биологияни ўқитишда педагогик технологиялардан Фойдаланиш”. - Тошкент: ТДПУ, 2004й.

ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 10-ҚИСМ

(10-қисм)

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.01.2022

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000